# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIMI VAZIRLIGI

**M.Z.MURTAZAYEV, J.HAMIDOV, G.M.AXMEDOVA, M.E.ESHONKULOVA**

**SERVIS BO‘YICHA**

# KENG ASSORTIMENTDAGI KIYIMLARNI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH

**KASB-HUNAR KOLLEJLARI UCHUN DARSLIK**

*Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi tavsiya qilgan o‘quv dasturlariga binoan kengaytirib tayyorlangan.*

*Oliy va O‘rta maxsus ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etadi*

**«Fan va texnologiya» nashriyoti**
**TOSHKENT – 2012**

**UDK___ 372.862(07**
**BBK 74.200. 52. M.88 Ya.72.**

Ushbu darslik servis bo‘yicha kasb ta’limini gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi yo‘nalishidagi keng assortimentdagi kiyimlarni lohalash va modellashtirish faniga oid bylib, yengil sanoat ishlab chiqarishlariga ta’lluqli kasb xynar kollejlariga mo‘ljalllangandir.

Darsilikda milliylikka asoslangan keng keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash va modellashtirish texnologiyasi va ular asosidagi xalq hunarmandchiliklariga oid dars materiallariga tegishli kengaytrilgan manbalar mavjud darsliklardan, ensiklopediyalardan tarixiy va ilmiy uslubiy manbalardan foydalanib keltirishga harakat qilingan. Darslik kasb-hunar kollejlarining o‘qitvchilari tomonidan ko‘rib chiqilgan.

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika instituti ilmiy kengashda (2011 yil 29 dekabr, № 4) va Jizzax viloyat hokimligi kasb-hunar kollejlar boshqarmasi o‘quv uslubiy kengashida (2012yil 14.05 № 4) nashr etishga tavsiya qilingan.

**TAQRIZCHILAR:**

1.Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti “Amaliy san‘at” kafedrasi mudiri p.f.d. professor S.S. Bulatov.

2. Jizzax Davlat Pedagogika instituti professori X.A.Turaqulov.

3. Jizzax viloyat hokimligi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi boshqarmasi o‘quv metodik ta’mbnlash bulim boshlig‘i A.S.Tolipov.

4. Jizzax viloyat hokimligi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi boshqarmasi bosh maslahatchi uslubchisi S.R. Alimqulov.

5. Respublika Ta’lim Markazi “Musiqa, san’at, mehnat ta'limi, Jismoniy kamolat va salomatlik” bo‘limi boshlig‘i Z.S. Shamsiyeva.

6.Jizzax tumani kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi M.X.Xudaynazarova

7.Toshkent shahar xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 62-son umum o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi T.P.Poshshaxo‘jayeva.

8.Jizzax shahar № 36-son umum o‘rta ta’lim maktabi mehnat ta’limi o‘qituvchisi Z.Turopova.

***Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etadi***

**ISBN: 978-9943-10-760-1**

**© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012**

# KIRISH

Mustaqillika erishgan O‘zbekiston rivojining asosiy tayanchi hisoblanmish ta’limning amaliy samarasini oshirish uchun o‘quv jarayonini muvofiq tashkil qilish, o‘qitish mobaynida ta’limni usul va formalaridan oqilona foydalanish, o‘quv ustaxona va kabinetlarni talab darajasida jihozlash va ulardan unumli foydalanish, o‘quv dasturlarini milliylikni e’tiborga olgan holda tuzish, milliylik asosida o‘quv darsliklarini yaratish kabi ishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Jumladan, kasb ta’limini barcha yo‘nalishlari kabi “Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi” bo‘yicha o‘qitishni samarali tashkil qilishga oid bo‘lgan muammolar qatoriga milliylik va halq xunarmandchiligi g‘oyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil qilishga qaratilgan o‘quv dasturlari tuzish va shu asosida o‘quv darsliklari yaratish muammolarini hal qilish lozim bo‘ladi.

Hozirgi kunga qadar servisning kasb ta’limini “Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi” yo‘nalishi bo‘yicha mavjud darsliklarda milliylik va halq hunarmandchiligi texnologioylariga oid dars materiallar juda kam berilgan. Shu boisdan ham ushbu darslikda tuzuvchilar o‘quvchilar o‘zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda milliylik ruhidagi dars materiallarini va ularni o‘rgatishga oid uslubiy tavsiya hamda manbalarni aniq bir tizimga keltirishga harakat qilishgan.

Ushbu darslik Oliy va o‘rta maxsus ta’limi Vazirligining 2011 yil 11 maydagi 192-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va ro‘yxatga olingan, Oliy va O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 29 martdagi 1-son majlis bayoni bilan ma’qullangan. Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash va modellashtirish fanining o‘quv dasturi asosida tayyorlandi.

Demak, ushbu darslikning ahamiyati o‘rgatishga mo‘ljallangan milliylik va halq hunarmandchiligi texnologiyalariga oid manbalarni umumlashtirib ma’lum didaktik tamoyil asosida bir tizimga solishga harakat qilishganligidandir.

Shu boisdan servis kasb ta’limining “Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi” bo‘yicha keng assortimentdagi kiyimlarni lohalash va modellashtirish fanida keltirilgan o‘rgatishga mo‘ljallangan yengil sanoat kollejlari uchun kiyimlarni lohalash va modellashtirish texnologiyasi va ular asosidagi xalq hunarmandchiliklariga ta’lluqli dars materiallariga oid manbalariga uslubiy fikrlar, mulohazalar, tuzatishlar, ko‘rsatmalar, tavsiyalar bildirishlarni tuzuvchilar o‘rinli deb hisoblab, e’tibor qilganlari uchun minnatdorchilik birdirishadi.

# BOB.I. KIYIMNI KONSTRUKSIYALASHGA DOIR MA’LUMOTLAR

## 1.1.KIYIM TO‘GRISIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR

Har qanday gazlamani buyum yoki kiyim, qo‘lda yoki mashinada yaratilgan mahsulot hisoblanmish matodan tayyorlanadi. Bu matolar texnik gazmol, triko, trikotaj va boshqalar hisoblanadi.

**Triko** (frants. tricoter - to‘qimoq) 1) *paxta, jun* va sintetik tolalar aralashmasidan zich to‘qilgan matolar. Yo‘l - yo‘l, katak va mayda gul hosil qilib to‘qiladi. Bunday to‘qima, asosan, erkaklar kostumlari va yengil paltolar tikish uchun foydalaniladi. Shuningdek, sportchilar, teatr sahnasida o‘ynovchilar kiyadigan, badanga yaxshi yopishib turadigan kiyim hisoblanadi.

**Trikotaj** (frants. tricoter - to‘qimoq) trikotaj mashinasida bir yoki bir necha iplardan halqa hosil qilib, ularning o‘zaro o‘rilishi natijasida olinadigan mato yoki buyum. Trikotaj iplarning tarkibiga, ishlatilish pardozlash usuliga va strukturasiga qarab klassifikasiyalanadi.

Tarkibiga qarab paxta ipidan, jundan, ipakdan va kimyoviy tola aralashgan iplardan to‘qilgan xillarga bo‘linadi.

Ishlatilishiga qarab trikotaj buyumga yoki matoga bo‘linadi.

Trikotaj buyumlariga kostum, jemfer, kofta, palto, qo‘lqop, ko‘ylak, ichki kiyim, paypoq va boshqalar.

Trikotaj matolariga sun’iy mo‘yna, sun’iy charm kiradi; bular texnik maqsadlarda va turli xil kiyimlar tayyorlashda ishlatiladi.

Pardozlash usuliga qarab dag‘al, oqartirilgan, tekis va rangli bo‘yalgan xillarga bo‘linadi.

Trikotajning asosiy fizik-mexanik xossalari uning tuzilishiga, halqalarining shakli va o‘lchamiga, ipning yo‘g‘on va ingichkaligiga, qalinligiga va pishiqligiga bog‘liq.

Strukturasiga qarab, ko‘ndalang to‘qilgan, tanda o‘rilish, bir qavatli va ikki qavatli bo‘ladi. Trikotaj yumshoqligi, elastikligi, g‘ijimlanmasligi, yengilligi, oson yuvilishi bilan boshqa to‘zima matolardan farq qiladi.

Kiyim deganda - ich kiyim, ko‘ylak va ust kiyim, bosh kiyim, poyafzal, qo‘lqop, paypoq kabilarning keng kompleksi tushuniladi.

Kiyim ma’lum davr va ijtimoiy sharoitda kishilarning go‘zallik, haqidagi qarashlari mujassamlanadigan moda bilan bog‘liq. Kishilik jamiyati rivoji jarayonida bu qarashlar o‘zgara boradi, shu munosabat bilan moda ham uzluksiz o‘zgarib turadi.

Yaxshi kiyinish - o‘ziga xos san’at. Kishi bu san’atni egallashi uchun moda talablariga rioya qilibgina qolmay (moda bilan moda jurnallari, vaqtli matbuotning modaga bag‘ishlangan sahifalarida bosiladigan materiallar orqali tanishib turish mumkin), o‘z estetik didini ham uzluksiz tarbiyalashi kerak. Didni tarbiyalash uchun qonunlarn me’yor va garmoniya tushunchalariga asoslangan san’atning barcha turlari bilan tanishib borish lozim. Yaxshi did avvalo orastalik namoyon bo‘ladi. Orastalik birnichi navbatda ansambilning, ya’ni kiyim bilan poyabzal, bosh

kiyimi, sumka, qo‘lqoplar rangi va shakllari uyg‘unligi demakdir. Kostyum orastaligi uning bezaklari, detallari, qismlaridagi uyg‘unlashgan ranglar me’yori bilan ham bog‘liq. Zamonaviy modadagi kiyimda ranglar majmui bir yoki ikki rangdangina iborat bo‘la olmaydi. Kiyimlarda ko‘pgina ranglarning och, to‘q va murakkab birikmasi mavjud bo‘ladi. Bir rangning och, to‘q xillaridan yoki bir-biriga yaqin ranglar (zangori bilan ko‘k, to‘q sariq bilan jigar rang)dan, shuningdek, mayin ranglar oqish, sarg‘ish, pushti rang, moviy va shu kabilar) dan foydalanib orastalikni ta’minlash oson. Oq bilan qora, ko‘k bilan oq ranglarni ham muvofiqlashtirib orastalikka erishish mumkin. Lekin, umuman, kontrast muvofiqlikdir. Bu ranglarnnng o‘zaro muvofiqligini - me’yori bir modelda saqlay bilish kerak. Orastalik bilan kiyilgan kiyim uning aniq sharoitda munosibligi, kishining mashg‘uloti, voqea, muhit va shuning kabilar bilan muvofiqligi hamdir. Kiyinishda orastalikning tosktrisi didsizlik belgisi sifatida namoyon bo‘luvchi bachkanalikdir. Ish joyida katta isirg‘a, serhasham taqinchoqlar taqish, bashang kiyinish bir-biriga rangi nomunosib kiyimlar kiyish, tor yoki o‘ta keng yubka, shim kiyish bachkanalikdir hamda modani buzish demakdir, agar buni moda deb da’vo qilinsa, bu didsizlikdir. Zamonaviy modalarni inkor etuvchi ayrim kishilar «bizlar modaga asoslanib kiynamiz» deb o‘ylashadi. Lekin ular yanglishadilar. Modasiz kiyim yo‘q. So‘nggi modada kiyinish mumkin, juda eskirgan, vaqti sal o‘tgan modalarda ham kiyinish mumkin. Kiyim atrofdagilar ko‘z o‘ngida kishi gavdasini kulgili ko‘rinmasligi kerak. Birnichi navbatda, yaxshi kiyinish yaxshi didga bog‘liq.

O‘ta modadagi kiyim ham juda eskirgan modadagi kiyim kabi g‘ayritabiiy, noo‘xshov, xunuk ko‘rinadi. Kiyim kishining qiyofasini chiroyli (yoki xunuk) qilibgina qolmay, kishining o‘z muhitiga munosabatani ham ifodalaydi. Ish paytida ayol kishi juda ham serhasham kiyinsa, o‘zini ko‘z-ko‘z qilayotgan bo‘ladi, aksincha, tantanali daqiqalarda kundalik oddiy ish kiyimida yursa, atrofdagilarning kayfiyatiga e’tiborsizlik bilan qarayotganini ko‘rsatadi.

Did bilan kiyinish kishining o‘ziga tanqid bilan qaray olishini ham ifodalaydi. Kishi o‘z tabiiy nuqsonlarini sezib, uni boshqalari sezilmaydigan qilib kiyinmog‘i kerak. Kiyim tanlanayotganda yoshni ham unutmaslik lozim. Yoshlar sport kiyimlari bichig‘ida kiyinadilar, ochiq rangli, guldor kiyimlar ularga ko‘proq yarashadi. O‘ttiz yoshdagi ayollar (shartli ravishda) didi modaga asos deb qabul qilingan. Bu yoshda ayol o‘z qiyofasini yaxshi bilmog‘i, husniga husn qo‘shadigan kiyimlarni tanlay olmog‘i lozim. Qirq yoshdan keyin esa o‘tgan yillar oqibatida vujudga keladigan ayrim nuqsonlarni (kiyim va pardoz bilan) yashirish kerakligini unutmaslik lozim. Semiz yosh ayollar juda ham odmi kiyimlar bilan kifoyalanmasliklari, semizlikni sezdirmaslik uchun ayniqsa, qoramtir kiyim bilan qanoatlanmasliklari kerak, chunki odmi kiyim semizlik bilan birga yoshlikni ham, latofatni ham yashirishi mumkin. Muhimi kiyimning shakli va rangi me’yorida bo‘lsin. Semiz keksa ayollar ham rangdor kiyimlardan voz kechmasliklari, faqat juda guldor matolardan tikilgan kiyimlarnigina kiymasliklari kerak. Did bilan yaxshi va toza kiyinishni bolalikdan o‘rganish zarur. Kiyimni yoshlikdan to‘g‘ri tanlashda ota-onalarning shaxsiy namunasi muhim rol o‘ynaydi. Bolalarning gavdasiga munosib va qulay kiyim tanlash kerak. Bola tez o‘sadi, kiyimi kattaroq

bo‘lgani ma’qul degan tushuncha noto‘g‘ri bunga rioya qilib bolani xunuk kiyintirishadi, bolaga katta va keng kiyim yarashmaydi. Katta kiyim bolaga to‘g‘ri kelguncha eskirishi, yirtilishi ham mumkin. Bunday kiyim bolani o‘z qiyofasiga loqayd qarashga odatlantiradi. Odatda bolalarning kiyimlarida yeng va etakda ko‘proq mato qoldirib astarga qo‘shib qaytarib qo‘yadiga joylarni uzaytirib tikib bergan ma’qul. Kiyimning shakli va ko‘rinishi u kiyiladigan sharoitga, mavsumga, kiyinadigan kishining yoshi, gavdasi, mashg‘uloti, ish turiga bog‘liq.

Ishlatilishiga ko‘ra kiyim bir necha guruhga bo‘linadi:

Kundalik kiyim

- uyda va ishda har kuni kiyiladigan kiyimlar;

-bayram, tantanalarda-kiyiladigan kiyim;

-sport kiyimi;

-shahardan tashqarida dam olish paytlarida kiyiladigan kiyim.

Bulardan tashqari, mehnat jarayonidagina kiyiladigan maxsus ish kiyimlari ham bor. Har bir guruhga mansub kiyimlar mavsumiy va yosh kategoriyalari bo‘yicha xillarga bo‘linadi. Kundalik kiyim sipo rangli turli-tuman matolardan tikiladi.

Uy kiyimi paxta ipidan to‘qilgan matolardan, shtapel, jun aralashtirib yigirilgan, kimyoviy mayin tolalardan to‘qilgan matolardan tikiladi. Ayollarga uy ichida kiyishga ko‘ylak bilan lozim, yubka bilan bluzka, xalat ko‘ylak tavsiya qilinadi. Ustki kiyimlarda tugmacha gulli, yo‘l-yo‘l yoki katak gulli matolar ko‘p ishlatiladi. Uy kiyimlari bezagida rangli jiyak, mag‘iz kabi oddiy bezak elementlari ko‘p ishlatiladi, ortiqcha bezak uy kiyimlariga nomunosib. Ayollarda uy ishlari uchun fartugi ham bo‘lgan, oilada dam olish soatlarida ham kiyiladigan kiyimlar komplekti bo‘lgani ma’qul. Uy kiyimlari erkin harakat qilishga qulay qilib tikiladi.

Dam olish kiyimi ham ortiqcha hashamsiz, lekin ixcham va nafis bo‘lishi kerak. Uyda erkaklarga ko‘rtka qulay. Ba’zi ko‘rtkalar sidirg‘a rangli yoki yo‘l-yo‘l, katak gulli yengil matolardan tikiladi. Shim sidirg‘a rangli, paxga tolasidan yoki shtapeldan tayyorlangan matodan, rangi esa ko‘rtkaning rangiga o‘xshash bo‘lishi kerak.

Qishki kurtka velvet, jun qo‘shib to‘qilgan issiq matolardan tikiladi. Kiyim erkaklar jigar rang, kul rang, ko‘k, qo‘ng‘ir rangli matolardan yosh erkaklar esa bu matolardan tashqari yana to‘q yashil, to‘q qizil, binafsha rangli matolardai tikilgan kiyim kiyganlari ma’qul. O‘zbekiston sharoitida bahor va kuzning salqin kunlarida, qishda uyda, hovlida chopon kiygan yaxshi.

**Kundalik kiyim** har bir xalq madaniyati taraqqiyotining mahsuli bo‘lib, turli *modada*, kishilarning didiga qarab turli matolardan tikiladi.

**Dam olish paytida kiyiladigan kiyim** odmi, yumshoq matodan, erkin harakat uchui qulay qilib tikiladi.

**Bayram marosim kiyimlari** milliy uslubda, qimmatbaho matolardan tayyorlanadi.

**Ish kiyimi** (jomakor) oddiy matodan mehnat jarayoniga moslab, ixcham qilib tikiladi. Masalan, po‘lat quyuvchining ish kiyimi o‘tga chidamli brezentdan, baliqchining kiyimi nam o‘tmaydigan matolardan tikiladi. Tibbiyot xodimi,

sartarosh, oziq-ovqat bilan savdo qiluvchi, oshpazlarning ish kiyimi oq xalatdan iborat.

**Sport kiyimi** - fizkultura va sportniig turli xillari bilan shug‘ullanuvchilarga mo‘ljallangan kiyimlar.

**Rasmiy kiyim** - formadir: harbiy kiyim, matros, militsioner, aloqachi va rasmiy kishilar (prokuror va boshqalar)ning maxsus nizom bilan belgilangan kiyimlari.

**Maxsus kiyim** - homilador ayollar, bemorlar va boshqalar kiyadigan kiyimlar. Kiyim kishilarning mehnati, ijtimoiy munosabatlari, madaniyati, gyeografik muhit, moddiy sharoiti bilan uzviy bog‘liq ravishda rivojlangan.

Eng qadimgi odamlar issiq o‘lkalarda avvalo bezak uchun, hasharot va issiqdan saqlanish uchun, ov paytlarida o‘rmon va chakalakzorlarda tikanaklardan badanlarini himoya qilib ibtidoiy kiyim kiygan. Keyinchalik iqlim o‘zgarishi va odamlar issiq o‘lkalardan sovuq yerlarga ko‘cha boshlaganlarida sovuqdan saqlanish uchun kiyim kiygan. Dastlabki kiyimlar hayvon terisidan, daraxtlar bargi va po‘stlog‘idan tayyorlangan. Keyingi palyeolit davriga oid arxeologiya materiallari (suyak va hayvon shoxidan ishlangan ignalar) kishilar shu davrlardayoq hayvon terisidan kiyim tikkanini ko‘rsatadi. Nyeolit davrida odamlar yovvoyi o‘simlik tolasidan ip yigirish, mato to‘qish, undan kiyim tikishni o‘rgangan. Dehqonchilik va chorvachilikka o‘tish jun, paxta kabi madaniy ekinlar tolasidan, uy hayvonlarining juni, terisi, mo‘ynasidan keng foydalanish imkonini bergan. Gyeografik muhit kiyim materiali, modasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Kiyim madaniyatning muhim belgilaridan biriga, xalq amaliy bezak san’atining bir turiga aylandi. Hunarmandlik va sanoatning rivoji natijasida turlicha mehnat jarayonlari har xil kiyimlarni vujudga keltirdi.

Kiyim turlari murakkablashdi. Faqat ayrim xalqlar (qadimgi misrliklar, yunonlar, rimliklar, hindilar)dagina kiyimning sodda shakllari (masalan, gavdani mato bilan o‘rash) saqlanib qoldi.

*Kashtado‘zlik* kiyimning badiiyligini oshirdi. Hamma xalqlarda ham bezatiladigan kiyim turlari bor. Xalq va millatning shakllanishi bilan xalq kiyimi - milliy kiyim ham vujudga kelib, uzoq davr mobaynida mehnatkash xalqning asosiy qismida saqlanadi. Turli davrlarda turli davlatlarning e’tibori oshishi munosabati bilan shu davlatlar hukmron sinflarining modalari ommalashadi.

Yengil sanoat, xususan, to‘qimachilik sanoatining betinim o‘sishi modaning tez-tez o‘zgarib turishini taqozo etadi, ayniqsa ayollar kiyimlari modasi o‘zgarib turadi. Geografik muhit, turmush sharoiti, urf-odatlari yaqin bo‘lgan xalqlarning kiyimlari o‘xshash. Masalan, slavyan xalqlari kiyimlarida anchagina umumiylik bo‘lganidek, turkiy xalqlar kiyimlarida ham o‘xshashliklar mavjud. Turkiy xalqlar ayollarida asosiy bosh kiyim-do‘ppi, ro‘mol; oyoq kiyim-mahsi, kavush; ich kiyim-ko‘ylak, ust kiyim-kaltacha, chopon; erkaklarida: bosh kiyim-do‘ppi, salla, telpak; ich kiyim-ko‘ylak; ust kiyim-yaktak, to‘n, chakmom; oyoq kiyim esa mahsi, kavush, etik. 19- asrning 2- yarmidai boshlab kavush o‘rniga kalish rasm bo‘ldi.

Kavkaz xalqlari (gruzin, osetin, lazgin, cherkas, arman va boshqalar)da erkaklarning asosiy kiyimi cherkaskasi uzun chakmon, tik yoqali movut ko‘ylak,

beshmat, papaxa. Ayollar gavdaga yopishib turadigan uzun ko‘ylak kiyadilar. O‘tmishda o‘zbek kiyimlarida ham ijtimoiy tengsizlik o‘z ifodasini topgan. Amir amaldor, ruhoniy, boy - feodallar bilan, kosib, kambag‘al dehqonlarning kiyimlari bir-biridan keskin farq qilgan. Badavlat kishilar kundal, kimxob, zardo‘zi kiyim kiyganda, kambag‘allar bo‘z va qalamidan faqirona kiyinishgan, adras yoki shoyidan hayit, to‘ylardagina kiygan kiyimlarini avloddan-avlodga saqlaganlar. Oq yoki malla bo‘zdan ko‘ylak, qalami yaktak yoki to‘n, olacha chopon, do‘ppi, salla erkaklarning, pochasi uzun lozim, keng ko‘ylak, nimcha, kaltacha apyollarning asosiy kiyimi bo‘lgan.

Hozirgi vaqtda mamlakatlarda umumevropa kiyimi (erkaklar uchun- kamzul, shim, ayollar uchun - ko‘ylak, yubka, jaket va boshqa komponyentlar) qabul qilingan bo‘lib, uning asosida turli ijtimoiy jug‘rofiy va iqtisodiy hususiyatlardan kelib chiqadigan turli-tuman shakllar paydo bo‘lgan. Umumevropa kiyimidan tashqari, milliy kiyimlarga ham talab katta.

Tikuvchilik buyumlari deganda maishiy va ishlab chiqarish kiyimlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari (salfetkalar, dasturxonlar, sochiqlar, ko‘rpa-yostiq jildlari), texnik buyum va anjomlar (avtomobil yopqichlari, chodirlar, qop, pogonlar va hokazolar) tushuniladi.

Tikuvchilik kiyimlari. Turli maishiy va ijtimoiy sharoitlarda kiyiladigan kiyimlardir.

Maishiy kiyim vazifasiga ko‘ra kundalik kiyim, tantanalik kiyim, uy kiyim, sport kiyimi bo‘lishi mumkin.

Maishiy ust kiyimlariga kiradigan tikuvchilik buyumlari assortiment har xil bo‘ladi kiyimlarni quyidagicha nazarda tutilgan kiyilish sharoitlarini belgilaydigan kichik sinflarga: kiyimdagi pridmetlarni sanalish tartibiga binoan turkumlarga: tikuvchilik buyumlarini jins – yosh alomatlariga binoan belgilovchi kichik turkumlarga kiyimni mavsum alomatlariga binoan bo‘ladigan turlarga: kiyimni ijtimoiy funksiyalarga binoan bo‘ladigan tiplarga bo‘linadi.

Ust kiyim – korset ich kiyim va kostum – ko‘ylak turkumidagi kiyimlar ustidan kiyiladigan kiyimlar.

Ust kiyimga nima ekanini aytish kerak. Polto kalta polto plashlar pidjaklar nimchalar jaketlar yubkalar ko‘ylaklar halatlar bluzkalar erkaklar ko‘ylaklari kombenzonlar va kalta kombenzonlar.

Ichi kiyim bu korset ustidan yoki bevosita odam badanidagi kiyiladigan kiyimlardir. Ichki kiyim – ich ko‘ylaklar ostki yubkalar tungi ko‘ylaklar yaktakchalar bolalar ko‘ylakchlari ishtonlar kolsonlar (kalta erkaklar uzun ishtoni) polzunkalar pijamalardir.

Korset nima ekanini yoritish kerak buyumlari – tananing ba`zi bir qismlarini tutib turishga va shakllantirish uchun bevosita oodam tanasiga kiyiladigan shuningdek paypoqni tutib turadigan kiyimlardir. Korset nima ekanini yoritish kerak bu siynaband korset grakiya nima ekanini aytish kerak Polugraqiya nima ekanini aytish kerak Paypoq belbog‘idir.

Plyaj kiyimlari – cho‘milish va quyoshda qorayish uchun badanga to‘g‘ridan to‘g‘ri kiyiladigan kiyimdir. Plyaj kiyimlari bu plavkalar kiyimlaridir.

Bosh kiyimlar – odam boshini yopib turadigan kiyimlardir. Bosh kiyimlarga quloqchin – qalpoqlar furajkalar nima ekanini tushuntirish kerak, Kaporlar nima ekanini tushuntirish kerak, chepchiqlar nima ekanini tushuntirish kerak do‘ppilar.

Kiyimga tegishli bo‘lmagan tikuvchilik kiyimlari – ko‘rpa yostiq jildlari, choyshablar yostiq jildlari ko‘rpa jildalri yo‘rgaklar bolalarga kerak chaqaloq konvertlari.

Ishlab chiqarish kiyimlari-turli xalq xo‘jalklari soxasi ho‘jaliklar sharoitlarida kiyiladigan kiyimlardir. Ishlab chiqarish kiyimlari maxsus sanitariya rasmiy kiyimlarga ajaraladi

Ishlab chiqarish kiyimi sanoatning barcha yuzalaridagi ommaviy kasb ishchilari ishlatadigan ishchi xonasini ifloslanishda asraydigan kiyimlardir. Ishlab chiqarish kiyimlarining asosiy xillariga halatlar va peshbandlar kiradi.

Maxsus kiyim – ishlab chiqarish kiyimi bo‘lib ishlayotgan kishini hafli va zararli atrof muxit tasiridan asraydi.

Maxsus kiyimning asosiy turlari: plashlar kurtkalar kambinzonlar paxtali kurtkalar paxtali shimlar.

Maxsus kiyimlar: namdan radiaktiv moddalardan kislotalardan neft moydan asraydigan maxsus kiyimlarga umumiy maxsus kiyimlar changdan organik erutuvchilardan issiqdan kimyoviy zararli moddalardan ishqorlardan elektir to‘kidan asraydigan kiyimlkarga ajraladi.

Sanitariya kiyimlari – mehnat buyumlarini ishlovchidan va ishchini ishlab chiqarishdan umumiy ifloslanishdan asraydi. Mehnat buyumlarini asraydigan texnalogik kiyim sanitariya kiyimining bir turi hisoblanadi.

Rasmiy kiyim (forma kiyim) – harbiylar maxsus maxkamalar ishchilarning transport (temir yo‘l aviyatsiya taksi daryo va dengiz floti) ishchilarining va forma kiyish mo‘ljallangan o‘quvchilarning (o‘quv yurtlari) kiyimidir. Maxkama kiyimlarining nima ekanini yoritish kerak Asosiy turlari shinel palto kostum kitel ko‘ylak bosh kiyimlaridir.

Yil fasliga qarab ishlab chiqarish kiyimlari mavsumdan tashqari va qishki kiyim kichik guruhlariga bo‘linadi.

Kiyim tikiladigan gazlamaning tolasiga qarab (jun shoyi ipgazlama zig‘ir tolali suniny va sintetik materiallardir) ham kilassifikasiyalash mumkin ko‘plab ishlab chiqarishda kiyim o‘lcham va polali o‘lchamlari bo‘yicha tikiladi.

O‘lcham ko‘ylak aylanasidan ba’zi kiyimlar masalan erkaklar ko‘ylaklari uchun esa boo‘on aylanasining o‘lchami bo‘yicha aniqlanadi. Kiyim uzunligi gavda bo‘yidan aniqlanadi kattalar kiyimi quidagi o‘lchamlarda ichlab chiqariladi. Erkaklar uchun 84, 88, 92, … 128, ayollar uchun 84, 88, 92, kiyim yilning qaysi faslida kiyilishiga qarab bahorgi, kuzgi, yozgi, qishki kiyimlarga bo‘linadi. Mayishiy kiyimlar turli maqsadlarda va xar hil sharoitda kiyilishi mumkin. Ya’niy ko‘chalik kastum uy kiyim tantanali kiyim va sport bilan shug‘ullanishga mo‘ljallangan kiyim.

Jins yosh alomatlari bo‘yicha kiyim erkaklar ayollar va bolalar kiyimlariga ajratiladi. Bolalar kiyimini o‘z navbatida chaqaloqlar (9 oylikgacha) yasli yoshdagi bolalar (9 oylikdan 3 yoshgacha) maktabgacha bolgan guruhdagi bolalar (3 yoshdan

7 yoshgacha) kichik maktab guruhidagi bolalar (o‘gil bolalar 7 dan 12 yoshgacha va qiz bolalar 7 dan 11,5 yoshgacha) kiyimlariga bo‘linadi. Yuqori sinf guruhidagi bolalar (o‘gil bolalar 12,5 dan 15,5 yoshgacha va qiz bolalar 11,5 dan 14,5 dan 18 yoshgacha) kiyimlariga bo‘linadi.

Erkaklar va ayollar yoshiga qarab uch xil guruhda - kichik o‘rta katta yoshdagilar uchun kiyim ishlab chiqariladi. Ayollar gavdasining bo‘ksa aylanasining o‘lchamiga binoan va qorin qanchalik chiqanini hisobiga olib va erkaklar gavdasining bel aylanasiga ko‘ra (ko‘krak aylanasini bir xil bo‘lgan) kattalar kiyimi xil: 1-, 2-, 3-, 4- to‘lalikda ishlab chiqariladi.

Davlatlararo katta miqdorda kiyim tovarlari almashtirilishi munosabati bilan UIEK nima ekanini tushuntirish kerak a’zolari erkaklar, ayollar qiz bolalar va o‘g‘il bolalarning o‘lchamlariga binoan YIEK ning standarti ishlab chiqariladi.

Ayollar va erkaklar kiyimining tovar yorlig‘ida o‘lcham ko‘rsatkichlari ayyollar kiyimi uchun bu ko‘krak aylanasi bo‘ksa aylanasi o‘lcham larining to‘liq miqdordagi va erkaklar kiyimi uchun ko‘krak aylanasi bel aylanasi o‘lchamlarinig to‘liq miqdaorida ko‘rsatadi. Masalan bo‘yi 158 sm ko‘krak aylanasi 100 sm bo‘ksa aylanasi 108 sm bo‘lgan tipik gavdaga tiqilgan ayollar kiyimi uchun tovar yorlig‘idagi “o‘lcham” qatorida: 158 -, 100-, 108-, deb yozilgan bo‘ladi erkaklar ko‘ylagi uchun bu va ko‘krak alanasidan tappiri bo‘yin aylanasi ham o‘lcham belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib bo‘yi 150 sm va 164 sm ko‘krak aylanasi 100 sm bel aylanasi 88 sm bo‘yin aylanasi 41 sm bo‘lgan erkaklar uchun tikilgan kiyimning tovar yorlig‘idagi “o‘lcham” qatorida: 158 – 164 – 100 – 88 – 41 – deb yozilgan bo‘ladi.

## 1.2. KIYIMLARNI BICHISH VA TIKISH HAQIDA

**Bichish va tikish.** Kiyim uchun fason tanlaganda kiyimning qulay, xushbichim, yosh va jussaga munosib, shu bilan birga, modaga mos bo‘lishi hisobga olinishi lozim. Kiyim nam ta’siridai ham, yuvganda ham kirishmasligi uchun, tanlangan gazlamaga bug‘ yoki qaynoq suvda ishlov beriladi, ya’ni gazlama dekatirovka qilinadi. Gazlamalarning ba’zi turlari (kren, baxmal, chiy duxoba) ip dekatirovka qilish tavsiya etilmaydi.

Uy sharoitida kiyim bichish va tikish uchun quyidagi narsalar kerak bo‘ladi: santimetrli tasma, qog‘oz, qalam, chizg‘ich va go‘niya (ugolnik), lekalo, qaychi, igna-to‘g‘nag‘ichlar, bo‘r, angishvona, har yo‘g‘onlikdagi (har xil nomerli) igna va iplar. Andazaning konturlarini qog‘ozga (bu maqsadda gazetadan yoki chaqaloqlarga mo‘ljallangan kleyonkadan foydalansa ham bo‘ladi) chizg‘ich, lekalo yordamida rangli qalam bilan chizish kerak. Kiyim bichishda andazaning konturlari gazlamaga bo‘r yoki sovun parchasi bilan chiziladi. Gazlamani bichish uchun oddiy qaychidan foydalaniladi, qalin materiallarni bichish uchun tikuvchilar ishlatadigan maxsus katta qaychi ishlatiladi. Bir taxta qog‘ozga bir necha andaza chizilgan va har andazaga muayyan shartli chiziq – belgi (punktir chiziq, nuqtalar va hokazo) ishlatilgan bo‘ladi. Andazani boshqa qog‘ozga maxsus keskich yordamida ko‘chirgan ma’qul. Buning uchun andaza tagiga unnng hamma chiziqlari sig‘adigan

bir taxta qog‘oz qo‘yiladi. So‘ngra andazadagi chiziqlar va belgilar izidan keskich yurgizib chiqiladi, andaza yupqa qog‘oz (xitoy qog‘oz yoki kalka)ga ko‘chirilsa ham bo‘ladi. Andazalar shu tarzda ko‘chirilib kontur bo‘ylab kesiladi. Shundan keyin har bir andazani belgilangan model rasmi yonida belgilab kichkina chizmaga solishtirib tekshirish lozim, andazaning chiziq va belgilaridan birontasi tushib qolgan - qolmaganligini aniqlash maqsadida shunday qilinadi. O‘zingiz chizgan andaza ancha aniq chiqishi uchun, chizmada ko‘rsatilganidek, gavdaning zarur o‘lchovlarini olish kerak.

*Bichishga qo‘yiladigan talablar:* Bichishdan oldin gazlama yaxshilab dazmollanadi va taxlab qo‘yiladi. Gazlamaning bo‘ylama ipini, gullarini, sirtidagi nuqsonlarini hisobga olib andaza qismlarini gazlamaga ketma-ket joylashtiriladi. Andaza qismlarining atrofini bur, sovun yoki oddiy qalam bilan chizib chiqiladi. Gazlamadagi qoldirilgan chok haqi andaza qismlarida qoldirilgan chok haqi bilan bir xil bo‘lishi kerak. Andaza qismlarini aniq chizilgani bo‘yicha qirqiladi. Bichish vaqtida andazani gazlamaga tejamkorlik bilan joylashtirish, mumkin qadar chiqindini kam chiqarish kerak.

*Tikilayotgan kiyim qismlarining sifatiga qo‘yiladigan talablar:* Qo‘l choklari bir xil uzunlikda tikiladi. Mashina choklari belgilangan joydan va chetidan bir xil masofada o‘tishi, burchaklari tekis chiqishi kerak. Salqi qaviqqator va tug‘nag‘ich, ko‘klangan qaviqqatordan keyin olib tashlanadi, bu ko‘klash choki solingandan keyin esa baxyaqatordan keyin olib tashlanadi. Xamma moklari va qismlari dazmollanadi.

## 1.3. KIYIMLARNI MODELLASHTIRISH ASOSLARI.

Moda yaratish uchun asosiy andaza chizmasiga har xil chiziqlar kiritiladi. Ishni bajarishda avval tanlangan bo‘yicha asosiy chizma chiziladi. Shu chizmaga biror chiziqni qo‘shib yoki undan biror chiziqni olib tashlab, qismlar shaklini o‘zgartirishni **modellashtirish** deyiladi (147-rasm). Kiyimning qismlari sha klini o‘zgartirmay, ularni bezatish yo‘li bilan ham modellashtirish mumkin (1-2-rasm). Bir xil andaza bilan tikilgan uy fartugi 3-rasmda berilgan. Bu fartuklar turli ko‘rinishda va har xil bezaklar bilan tikilgan. Bezak materiallariga jiyak, tur, kashta, bulardan tashqari applikatsiyalar kiradi.

**Model yasash –** ayollar ko‘ylagining har xil fasondagi andazasini tayyorlash. Ko‘ylakning asosiy andaza chizmasi oddiy fasondagi kiyimlar (bluzka, yubka, jaket, ko‘ylak va shu kabilar)ni bichish uchungina yaraydi. Murakkab fasondagi kiyimlarni tikish uchun andaza detallaridagi chiziqlar yo‘nalishini o‘zgartira bilish kerak. Masalan, yelka vitachkasi ayollar ko‘ylagi, bluzka va shu kabi kiyimlarning zarur chizig‘i hisoblanadi. Asosiy andaza chizmasida bu vitachka yelka chizig‘ida joylashgan bo‘ladi; tanlangan fason bo‘yicha model yasashda yelka vitachkasi bel chizig‘i, yoqa o‘mizi, kiyimning oldingi o‘rta chizig‘i, yon chizig‘i, koketka tagiga, shuningdek, bo‘rtma chizig‘i va boshqa joylarga ko‘chirilishi mumkin.



1-rasm.



2-rasm.



3-rasm.

**Vitachka quyidagicha ko‘chiriladi:** asosiy andazadagi yelka vitachkasi bekitiladi; vitachka qaysi yerga ko‘chiriladigan bo‘lsa, ko‘krakning eng baland qismidan (ya’ni yelka vitachkasining uchidan) shu tomonga chiziq tortiladi. Andaza chiziq izidan kesiladi. Shunday qilib, yelka vitachkasi kesik joyga ko‘chiriladi.



4-rasm. Bluzkalar modeleni yasash sxemasi.

Bluzka, jaket, yubka, ko‘ylak va shu kabi kiyimlarning bel chizig‘idagi vitachkalarni ham tanlangan fasondagi chiziqlarga (masalan, bo‘rtma chiziqlariga) ko‘chirish mumkin. Bluzka, yubka yoki ko‘ylakni bichayotgan vaqtda skladka, burma yoki klyosh uchun en qo‘shish talab qilinsa, bu holda andazani kesib, kesikni kerish yoki gazlama ustiga qo‘yilgan andazani gazlamaning eni bo‘yicha zarur kenglikda surish lozim. (4-rasm.)

Yelka vitachkasini yoqa o‘mizidan tushiriladigan bo‘rtma chiziqqa ko‘chirish (5-rasm). Bluzka orqasi va oldining andazalariga fasonning chiziqlari chiziladi.

Bluzkaning orqasi (6-rasm, a). T nuqtadan o‘ngga bel chizig‘i bo‘yicha 1 sm o‘lchab, 1 nuqtasi qo‘yiladi.

A, 1, B nuqtalar orqali pastki chiziqqacha to‘g‘ri chiziq tushiriladi; bu bluzka orqasining o‘rta chizig‘i bo‘ladi.



5-rasm. Elka vitachkasini yoqa o‘mizidan tushiriladigan bo‘rtma chiziqqa ko‘chirish.

Bluzkaning oldi (6-rasm, b). Yelka vitachkasi bekitiladi. Yelkadan pastga yeng o‘mizi bo‘yicha 9 sm o‘lchab, 9 raqami qo‘yiladi. 9 nuqtasidan o‘ngga yelka vitachkasining uchi (V nuqta) gacha rasmdagidek bo‘rtma chizig‘i chiziladi, bu chiziq bel chizig‘idagi vitachka orqali bluzkaning etagigacha davom ettiriladi. Andaza shu chiziq izidan kesiladi. Bel chizig‘idagi vitachka o‘yib olinadi.

Andazani ustiga gazlama qo‘yish

Andazaning o‘rta chizig‘i gazlama taxiga to‘g‘ri kelishi lozim. Choklar haqi chizmada ko‘rsatilgan. Vitachka yon tomondan oldinga qarab tikiladi, baxyaning uchi V nuqtaga 3 sm yetkazilmaydi (rasmda punktir chiziq bilan ko‘rsatilgan).

Yelka vitachkasini koketka tagiga ko‘chirish. Bluzka oldi va orqasiming asosiy andazasiga fasonning chiziqlari chiziladi.



6-rasm. Bluzka orqasi va oldining andazalari.

Bluzkaning orqasi A nuqtadan pastga 10 sm o‘lchab, 10 raqami qo‘yiladi. 10 nuqtasidan o‘ngga yeng o‘mizigacha gorizontal chiziq tortiladi, chiziqlar kesishgan nuqta K bilan belgilanadi. K nuqtadan 1 sm pastga 1 raqami qo‘yiladi. 1 nuqtasi 10 nuqtasiga yordamchi chiziq vositasida tutashtiriladi. T nuqtadan pastga ham o‘rta chiziq, ham yon chiziq bo‘yicha 15 sm dan o‘lchab, 15 raqamlari qo‘yiladi, 15 nuqtasi 15 nuqtasiga tutashtiriladi. Andazaning shtrixlangan qismi kesib tashlanadi.

Bluzkaning oldi yelka vitachkasi bekitiladi. So‘ngra $SH_3$ nuqtadan pastga yoqa

o‘mizi bo‘yicha 4 sm o‘lchab, 4 raqami qo‘yiladi; yelkadan pastga yeng o‘mizi bo‘yicha 5 sm o‘lchab, 5 raqami qo‘yiladi. 5 nuqtasi 4 nuqtasiga tutashtiriladi. Bel chizig‘idan pastga o‘rta chiziq va yon chiziq bo‘yicha 15 sm o‘lchab, 15 raqami qo‘yiladi. 15 nuqtasi 15 nuqtasiga tutashtiriladi. Oldiigi o‘rta chiziq, yoqa o‘mizidagi $SH_4$ nuqta va 15 nuqtasiniig har birndan o‘ngga 2 sm dan o‘lchab, 2 raqamlari qo‘yiladi. 2 nuq-tasi 2 nuqtasiga tutashtiriladi. Andazaning shtrixlangan qismi kesib tashlanadi.

## 1.4.ODAM GAVDASIDAN O‘LCHOV OLISH

**Tayyor kiyimning sifatiga qo‘yiladigan talablar:** 1.Tayyor kiyimning tashqi ko‘rinishi tanlangan moda bilan bir xil bo‘lishi kerak. 2. Kiyimning o‘xshash qismlari o‘zaro teng va simmetrik joylashgan bulishi shart. 3. Tayyorlangan kiyim yaxshi dazmollanishi lozim.

O‘lchov olish tartibi (7-rasm). Kiyimni to‘g‘ri tikish uchun o‘lchovlarni to‘g‘ri olish lozim. O‘lchovi olinayotgan kishi qo‘llarini tushirib; to‘g‘ri turishi va o‘zviy erkin tutishi lozim. O‘lchov olishda kiyimning to‘g‘ri va fasoni nazarda tutilishi kerak. O‘lchov santimetrli lenta yordamida olinadi, bunda lentani tarang tortish ham, juda bo‘shatib yuborish ham yaramaydi. O‘lchov olishga kirishishdan oldin bel chizig‘ini aniq belgilab olish kerak, buning uchun belga santimetrli tasma yoki belbog‘ bog‘lanadi. Uzunlikni (bo‘yni) ko‘rsatuvchi o‘lchovlarning hammasi to‘la (yaxlitlab, ya’ni butun santimetrlar hisobida) yoziladi, andazalarni ko‘rsatuvchi o‘lchovlar esa yarmi yoziladi.

Bichish va tikishni tuliq bajarish uchun konstruktsiyalash ishini amalgan oshirish kerak.



7-rasm.

**Konstruktsiyalash –** tikilayotgan kiyim qismlarining chizmasini, ya’ni loyixasini tayyorlashdir. Chizmani chizish uchun avval o‘lchov olinadi. O‘lchov kishining gavdasidan olinadi va shu o‘lchov bo‘yicha asosiy chizma chizilib, andaza tayyorlanadi. Konstruktsiyalash uchun asbob va moslamalar: masshtabli chizg‘ich,

burchakli chizg‘ich, 3° sm li chizg‘ich, qora va rangli qalam, albom.

*Bichish va tikish uchun o‘lchov olishda o‘lchash asoslari qo‘yidagicha bo‘ladi.*

Orqaning belgacha uzunligi – bo‘yining yettinchi umurtqasidan boshlab belgacha (umurtqa pog‘onasi bo‘ylab) o‘lchanadi.

Kiyimning umumiy uzunligi – bo‘yining ko‘pincha umurtqasidan boshlab zarur uzunlikkacha o‘lchanadi.

Yelka kengligi (uzunligi) – bo‘yinning asosidan o‘mrov suyagining uchigacha yelka bo‘yicha o‘lchanadi.

Bo‘yinning aylanasi – bo‘yin asosi bo‘yicha bo‘yin chuqurchasining o‘rtasigacha o‘lchanadi. Bunda boshni orqaga salgina tashlab turish kerak.

Ko‘krak aylanasi – santimetrli lenta ikkala qo‘ltiq tagidan o‘tkazilib, ko‘krak gir aylantirilib o‘lchanadi, bunda lenta orqada kuraklarning turtib chiqib turgan joyidan, oldinda esa ko‘krakning baland qismidan o‘tishi lozim.

Ko‘krak markaz oralig‘i - ko‘krakning baland nuqtalari orasi o‘lchab aniqlanadi.

Ko‘krak osti aylanasi – ko‘krak osti gir aylantirib o‘lchanadi.

Bel aylanasi – bel gir aylantirib o‘lchanadi.

Son aylanasi – ikkala sonning eng baland joyidan, beldan 18-20 sm pastroqdan gir aylantirib o‘lchanadi.

Tirsak aylanasi – tirsak chizig‘i bo‘yicha o‘lchanadi.

Bilak aylanasi – kaftining asosidan o‘lchanadi.

Yengning uzunligi. Bu o‘lchovni olishda qo‘l pastga tushirilgan bo‘lishi ham, tirsakdan sal bukilgan bo‘lishi ham mumkin. Qo‘l pastga tushirilgan bo‘lsa – qo‘lning yelka bug‘inidan bosh barmoqning katta bo‘g‘inigacha o‘lchanadi, uni tirsakdan bukib turganda esa – yelka bug‘inidan kaftning asosigacha o‘lchanadi.

Yengning tirsakkacha uzunligi – qo‘lning yelka bo‘g‘inidan tirsakkacha o‘lchanadi.

Yubkaning uzunligi – bel chizig‘idan boshlab zarur uzunlikkacha o‘lchanadi.

Shimning umumiy uzunligi – beldan zarur uzunlikkacha (yon tomondan) o‘lchanadi.

Shimning tizzagacha uzunligi – beldan oyoq bo‘yicha tizzagacha o‘lchanadi.

Og‘ chizig‘ini (qadamining uzunligi) pochaning pastki chizig‘idan (poshnadan) chovgacha oyoqning ichki tomoni bo‘yicha o‘lchanadi.

O‘tirish chizig‘i. O‘lchovi olinadigan kishi stulga o‘tqaziladida, beldan stulgacha bo‘lgan uzunlik o‘lchanadi. Zarur o‘lchovlar olinib bo‘lgach, andaza chizishga kirishiladi. Kiyimning har bir qismi (detali) alohida chiziladi, shu bilan birga, ko‘krak aylanasi chizmani chizish uchun asosiy o‘lchov bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘krak aylanasining yarim o‘lchovi kiyimning o‘lcham qilib qabul etilgan (masalan, ko‘krak aylanasi 104 sm ni tashkil etsa, kiyimning o‘lchami 52 bo‘ladi). Kiyimning orqasi, oldi va boshqa simmetrni detallari chizmasining kengligi kiyimning yarim kengligiga teng bo‘ladi, lekin andazaning bo‘yi (uzunligi) buyumning o‘lchab aniqlangan to‘la uzunligi bilan baravar qilib olinadi. Yeng va boshqa nosimmetrik detallar andazasi shu detallarning to‘la kengligi (eni) va uzunligiga teng qilib chiziladi.

# 1.5 KIYIMNI LOUIHALASHDA UNING KONSTRUKSIYASIDA ISHLATILADIGAN DETALLARI (YENGI, YOQA, CHO‘NTAK VA BOSHQALAR)

**Yeng.** Kiyimning qulayligi, umuman ko‘rinishi, shuningdek kiyim shaklining xarakteri yengning shakli, bichimi va tikilishiga bog‘liq. Yengning shakli va bichimi modaga qarab o‘zgaradi.



8-rasm. Bir chokli engning andaza chizmasi.

*Bir **chokli yeng*** (8-rasm). Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Ko‘krakning yarim aylanasi – 46 sm**.**

2. Yengning uzunligi – 60 sm.

3. Bilak aylanasi – 10 sm.

*Andaza chizmasini chizish.*

To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A harfi qo‘yiladi.

Yengning kengligi. A nuqtadan o‘ngga 36,7 sm ko‘krak yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 3 sm qo‘shiladi va 2 ga ko‘payti-riladi, ya’ni (46:3+3)X2=36,7 sm) uzunlikda chiziq chizib, uchiga R nuqta qo‘yiladi. R nuqtadan pastga ixtiyoriy uzunlikda vertikal chiziq tushiriladi.

Yordamchi chiziqlar. AR chizig‘i teng to‘rt qismga bo‘linadi; bo‘lish nuqtalari $R_1$ $R_2$, $R_3$ bilan belgilanadi. Bu nuqtalar orqali ixtiyoriy uzunlikda vertikal chiziqlar chiziladi.

Yeng boshi (okat)ning balandligi. $R_2$ nuqtadan yuqoriga 14,3 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_3$ qismidan barcha o‘lchamlar uchun 1 sm ayiriladi, ya’ni 46:3-1 = 14,3 sm) o‘lchab, O nuqta qo‘yiladi.

Yengning uzunligi. O nuqtadan pastga $R_2$ nuqta orqali 60 sm uzunlikda (yengning uzunligi) to‘g‘rn chiziq chizib, uchiga N harfi qo‘yiladi. N nuqta orqali gorizontal chiziq tortiladi va bu chiziqning vertikal chiziqlar bilan kesishgan nuqtalari $H_1$, $N_2$, $N_3$ va $N_4$ harflari bilan belgilanadi.

Yeng boshi (okat). A nuqta O nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, punktir chiziqning yordamchi chiziq bilan kesishgan nuqtasi $O_1$ bilan belgilanadi. $R_3$ nuqtadan yuqoriga 5,5 sm o‘lchab, $O_2$ nuqta qo‘yiladi. O nuqta $O_2$ nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, punktir chiziq, AR chiziq bilan kesishguncha davom ettirilib, chiziqlar kesishgan nuqtadan 1 sm yuqoriga o‘lchab 1 raqami qo‘yiladi. $AO_1$, $O_1O$ va $OO_2$ punktir chiziqlarining har biri teng ikki qismga bo‘linadi va bo‘lish nuqtalari $O_3$, $O_4$, $O_5$ bilan belgilanadi. $O_3$ nuqtadan pastga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib 1,5 sm o‘lchanadi va 1,5 raqami

qo‘yiladi. $O_4$ nuqtadan 2 sm yuqoriga o‘lchab 2-raqami qo‘yiladi; $O_5$ nuqtadan yuqoriga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib, 2,5 sm o‘lchab, 2,5 raqami qo‘yiladi. A nuqta R nuqtaga 1,5, O1, 2, O, 2,5 va O2, 1 nuqtalari orqali tutashtiriladi, natijada yeng boshi (okat) hosil bo‘ladi. Bu chiziqdagi O nuqta yenging eng baland nuqtasi hisoblanadi.

Yon chiziqlar. $N_2$ nuqtadan o‘ngga, $H_1$ nuqtadan esa chapga 3 sm dan o‘lchab, 3 raqamlari qo‘yiladi. 3 nuqtalaridan yuqoriga 1,5 sm dan o‘lchab, $N_5$ va $N_6$ nuqtalar qo‘yiladi. A va $N_5$ nuqtalar, shuningdek R va $N_6$ nuqtalar ham o‘zaro tutashtiriladi.

Kalta yengniig uchi. O nuqtadan pastga 25 sm o‘lchab, K harfi qo‘yiladi. K nuqta orqali gorizontal chiznq chizilib, uning yon chiziqlar bilan kesishgan nuqtalari $K_1$ va $K_2$ harflar bilan, yordamchi chiziqlar bilan kesishgan nuqtalari esa $K_3$ va $K_4$ bilan belgilanadi. $K_3$ nuqtadan 1 sm pastga, $K_4$ nuqtadan esa 1 sm yuqoriga o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi, $K_1$, 1, K, 1 va $K_2$ nuqtalar orqali chiziq tortiladi, natijada yeng uchi hosil bo‘ladi. Agar yeng boshi o‘mizdan katta bo‘lsa, o‘mizni chuqurroq o‘yish yoki yengni choki bo‘yicha toraytirish kerak.

Chok haqi (sm hisobida): yon chiziqlarda – 2; yeng uchida 0,5-1 tashlanadi; yeng boshida esa chok haqi tashlab ketilmaydi.

***Bir chokli tor** yeng*. Andazani chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Ko‘kraknnng yarim aylanasi – 46 sm.
**2.** Yengning uzunligi – 60 sm.
3. Yengning tirsakkacha uzunligi – 34 sm.
4. Bilakning yarim aylanasi – 9 sm.



9-rasm. Yeng boshi burilgan yoki skladkalar solingan yengning andaza chizmasi.

**Yeng boshi burilgan yoki skladkalar solingan yeng** (9-rasm). Bir chokli yengning asosiy andazasiga kesish chiziqlari chizilib (9-rasm, a), andaza shu chiziqlar izidan rasmdagidek kesiladi, har kesik izidan 2 sm kerilib (9-rasm, b), yeng boshi yuqoriga 2 sm ko‘tariladi. Chok haqi rasmda ko‘rsatilgan. Yengni o‘mizga o‘tkazishda burmalar yeng boshida bir tekis taqsimlanishi uchun yengni sirma qaviqlar orasidan tepchib chiqish kerak.

Yeng o‘mizga avvalo ko‘klab qo‘yiladi, so‘ngra mashinada baxyalanadi, bunda yeng ustda, o‘miz ostki tomonda bo‘lishi, baxya esa sirma qaviqdan sal teparoqdan yoki pastroqdan o‘tishi lozim, shunda qaviqni so‘kish paytida baxya ipiga putur yetmaydi. Yeng boshining qirqilgan chetlari gazlamaning sitiluvchanligiga yoki qalinligiga, shuningdek kiyimning bajaradigan vazifasiga qarab yo yo‘rmab, yoki bostirib, yo bo‘lmasa ko‘rinmaydigan qaviq solib tikiladi. Ko‘rinmaydigan chok hosil bo‘lishi uchun yeng chokining va o‘mizning qirqilgan chetlari 0,5 sm qayriladi, so‘ngra ko‘rinmaydigan qaviq solib tikiladi.

Qalin yoki sitiluvchan gazlamadan tikilgan kiyimlarda o‘miz va yeng boshining qirqilgan chetlariga mag‘iz solinadi. Mag‘iz astarbop gazlamadan 3-3,5 sm kenglikda, qiyasiga kesib olinadi; mag‘izning uzunligi yeng boshi chizig‘ining va o‘mizning uzunligiga teng bo‘ladi.

Mag‘izni o‘mizga o‘ng tomoni bilan qo‘yib, avvalo ko‘klab chiqish va mashinada baxyalab tikish, so‘ngra o‘miz va yeng boshining qirqilgan cheti ustiga qayirib, chetini bukish va baxyaning qaviqlaridan qo‘lda nina bilan ilib olib tikish kerak, shunda ko‘rinmaydigan qaviq hosil bo‘ladi va chokning qirqilgan chetlari mag‘iz ichida qoladi.

*Kiyimlarni yoqasi va ularni turlahi hamda loyhalash asoslari. Yoqa.* Yoqalarning fasoni xilma-xil bo‘lishi mumkin. Yoqalar shartli ravishda yelkaga yopishib turadigan yoqa, qaytarma yoqa, tik yoqa, «shalka» yoqa, pidjak yoqa va boshqa turlarga bo‘linadi.

Quyida turli shakldagi yoqalarning andaza chizmalari berilgan. Bundan yoqalarning andazasnni chizish uchun bo‘yin aylanasining yarim o‘lchovi kerak bo‘ladi (quyida keltirilgan misollarda bu o‘lchov 18 yoki 20 sm qilib olingan).




10-rasm.

10-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi (uzunligi). AB va GV gorizontal chnziqlarning uzunligi 25 sm (bo‘yinning yarim aylanasi plyus 5 sm – barcha o‘lchamlar uchun, ya’nn 20 + 5 = 25 sm) ga teng.

To‘g‘ri to‘rt burchakning eni (kengligi). AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 13 sm ga teng (barcha o‘lchamlar uchun).

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. B nuqtadan chapga 5 sm o‘lchab, 5 raqami qo‘yiladi. 5 nuqtasidan 2 sm chapga 2 raqami, A nuqtadan 3 sm pastga 3 raqami qo‘yiladi. 3 nuqtasi 2 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtirilib, punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan pastga punktir chiziqqa npsbatan 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yyladi. 3, 1, 2 va 5 nuqtalari o‘zaro ketma-ket tutashtiriladi, yoqa o‘mizga shu chiziq bo‘yicha tikiladi.

Yoqaning ilgagi va uchi (misik). B nuqtadan pastga 3 sm o‘lchab, D nuqta qo‘yiladi. B nuqta D nuqtaga tutashtiriladi. So‘ngra 5 nuqtasidan pastga 3 sm o‘lchab, Ye nuqta qo‘yiladi. BV chizig‘idagi D nuqtadan 3 sm pastga 3 raqami qo‘yiladi. Ye nuqta 3 nuqtasiga tutashtiriladi.

3 nuqtasidan 1 sm pastga 1 raqami qo‘yiladi. BV chizig‘idagi 3 nuqtasidan D nuqtagacha bo‘lgan oraliq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasi 1 nuqtasiga tutashtiriladi. V nuqtadan 2 sm chapga 2 raqami qo‘yiladi. 2 nuqtasi Ye nuqtaga tutashtiriladi.

Yoqaning pastki chizig‘i (cheti). G nuqtadan 3 sm yuqoriga 3 raqami qo‘yiladi. 3 nuqtasi 2 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi; punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi; bo‘lish nuqtasidan 1 sm yuqoriga 1 raqami ko‘yiladi. 3, 1 va 2 nuqtalari o‘zaro tutashtiriladi.



11-rasm.



12-rasm.

11-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi, AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 22 sm (bo‘yining yarim aylanasi plyus 2 sm – barcha o‘lchamlar uchun, ya’ni 20 + 2 = 22 sm) ga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 14 sm ga teng (barcha o‘lchamlar uchun).

Yoqaning taxi va uchi. AG va BV chiziqlarining har biri teng ikki qismga bo‘linadi; bo‘lish nuqtalari punktir chiziq yordamida o‘zaro tutashtiriladi. So‘ngra A va G nuqtalarning har biridan 1 sm o‘ngga 1 raqami qo‘yiladi. AG chizig‘idagi bo‘lish nuqtasi 1 nuqtalariga o‘zaro tutashtiriladi.

12-rasm. ABGD to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

Yoqaning uzunligi. AB va DG gorizontal chnziklarining uzunligi 26 sm (bo‘yinning yarim aylanasi plyus 6 sm barcha o‘lchamlar uchun, ya’ni 20 + 6 = 26 sm) ga teng.

Yoqaning eni. AD va G vertikal chiziqlarshshng uzunligi 9 sm ga teng (barcha o‘lchamlar uchun).

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. A nuqtadan o‘ngga 7,2 sm (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismi plyus 0,5 sm barcha o‘lchamlar uchun, ya’ni 20:3+0,5=7,2 sm) uzunligida chiziq tortib, uchiga 7,2 raqami qo‘yiladi.

B nuqtadan 2 sm chapga 2 raqami qo‘yiladi. 2 nuqtasidan pastga 4 sm o‘lchab, 4 raqami qo‘yiladi. 7,2 nuqtasi 4 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, chiziq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yiladi. Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i A, 7, 2, 1 va 4 nuqtalari orqali chiziladi.

YOQaning uchi va pastki chizig‘i. 4 nuqtasi G nuqtaga tutashtiriladi. D nuqtadan 2 sm yuqoriga 2 raqami qo‘yiladi. 2 nuqtasi G nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, punktir chiziq teng uch qismga bo‘linadi, o‘ng tomondagi bo‘lish nuqtasidan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yiladi.



13-rasm.

2, 1 va G nuqtalari rasmdagidek bir-biri bilan tutashtiriladi, na-tijada yoqaning cheti (pastki chizig‘i) hosil bo‘ladi.

13-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi. AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 18 sm (bo‘yin yarim aylanasining uzunligi) ga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi barcha o‘lchamlar uchun 4 sm ga teng.

YOQani o‘mizga tikish chizig‘i. GV chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi. V

nuqtadan 1,5 sm yuqoriga 1,5 raqami qo‘yiladi. Tikish chizig‘i GV chizig‘i o‘rtasiga urinib o‘tib, G nuqtani 1,5 nuqtasiga tutashtiradi. Bu chiziq 1,5 nuqtasidan o‘ngga 0,5 sm uzaytiriladi.

Yoqaning ustki chizig‘i. 0,5 nuqtasidan yuqoriga B nuqta orqkali 3,5 sm uzunlikda chiziq chiqariladi va uchiga 3,5 raqami qo‘yiladi. AB chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi. Yoqaning ustki chizig‘i AB chizig‘i o‘rtasiga urinib o‘tib, A nuqtani 3,5 nuqtasiga tutashtiradi.

Yoqa o‘mizining chuqurligi $VV_3$=3,5 sm o‘lchab qo‘yiladi.

Yoqa o‘mizining egriligini chiqarish uchun $V_2V_3$ kesmani ikkiga bo‘lamiz va $O_1$ nuqtadan 1,5 sm li pyerpyendikulyar chiziq chizib $O_2$ nuqta qo‘yamiz. $V_2O_2$ $V_3$ nuqtalar birlashtiriladi.

Yelka qiyaligini chizish. $A_1G_2$ kesmaning yuqoridagi turtdan bir bo‘lagini $A_1$ deb belgilaymiz. $V_2$ nuqtani $A_4$ nuqta bilan birlashtiramiz. $V_2$ nuqtadan chapga doimiy ulchov 4 sm ni o‘lchab $V_4$ harfi bilan belgilaymiz.

Ko‘krak vitochkasini chizish. $G_1$ nuqtadan chapga ko‘krak chizig‘i ustiga KO=9sm o‘lchab $G_5$ nuqtani qo‘yamiz. $G_5$ va $V_4$ nuqtalarni birlashtiramiz. $G_5V_4$ kesma vitochkaning bir tomoni bo‘ladi.

**Yoqa o‘mizi kengligi.**

A nuqtadan o‘ngga bo‘yin aylanasining uchdan bir qismiga 0,5 sm tekislik haki qo‘shib chiziladi.

AR=BAyar:3+0,5=17,5:3+0,5=6 sm. Yoqa o‘mizining balandligi doimiy o‘lchov 2 sm:RR=2 sm. Yelka qiyaligi 1,5 sm dan 2,5 sm gacha yelka tuzilishiga qarab olinadi: $A_1A_3$=2 sm.

Yelkaning uzunligi. $R_1$ nuqtadan yelka qiyaligi. $A_3$ nuqta orqali $P_1$ P=YeU+1,5 sm vitochka chuqurligi qo‘shilib $R_1$ 11=13+1,5=14 sm o‘lchab qo‘yiladi. Bu vitochkaning uzunligi 7 yoki 8 sm qilib olinadi.



15-rasm. Qoplama cho‘ntak.



14-rasm. Ichdan tikiladigan cho‘ntak.

Yeng o‘mizini chizish uchun yordamchi nuqtalardan foydalaniladi. Buning uchun $A_1$ $G_2$ kesma turt bo‘lakka bo‘linadi. $A_1$ $G_2$=AG; $A_1G_2$=19,7:4=5 sm. Pastki bir bo‘lagini X nuqta, yuqoridagi bo‘lagini A nuqta bilan belgilaymiz. $G_2$ nuqtadan doimiy o‘lchov $G_2$ 0=3 sm ulab O nuqta bilan belgilaymiz. P nuqtani X nuqta bilan O va $G_4$ nuqtalar bilan birlashtirsak, ort bo‘lagining yeng o‘mizi chizig‘i hosil bo‘ladi.

*Kiyimlarni cho‘ntaklari va ularni hamda loyhalash asjslari. Cho‘ntak.*

Cho‘ntaklar o‘yma va qoplama xillarga ajratiladi (14-15-rasmlar). Kiyimning yuqori qismi va yon tomonlaridagi o‘yma cho‘ntaklarning shakli turlicha bo‘ladi; ular to‘g‘ri yoki shakldor qilib o‘yilishi, qopqoqlari to‘g‘ri yoki shakldor qilib va boshqacha bichilishi mumkin. Kiyimning fasoniga qarab, o‘yma cho‘ntaklar relyef chizig‘ida, skladkalar tagida yoki choklarda bo‘ladi. Sport kiyimlarining cho‘ntaklariga ko‘pincha «molniya» tikiladi.

Qoplama cho‘ntaklar kiyimning qayerida bo‘lishiga qarab, ustki va ichki cho‘ntaklarga, ko‘krak cho‘ntak, qavatli (birining ichiga biri joylashtirilgan) cho‘ntakka ajratiladi. Qoplama cho‘ntaklar xilma-xil: oddiy shaklda, listochkali to‘g‘ri shaklda, qopqoqli, shakldor listochkali, kesik va qopqoqli, kesik, chetlariga mag‘iz tutilgan, qarama-qarshi skladkali, sirti shakldor baxyali yoki relefli qilib va hokazo tikiladi. Qoplama cho‘ntaklarning qopqoqlari tugmalanadigan (teshikli) va tugmasiz, to‘g‘ri burchak va boshqacha shakllarda bo‘ladi. Qoplama cho‘ntaklarni skladkalar, zashchiplar, bo‘rtma choklar, kashta gullar bilan bezash mumkin.



17-rasm. Yengil kiyimdagi cho‘ntak qopqoqlarni ishlash.

Cho‘ntakni bichayotganda gazlamaning guliga, yo‘l va kataklariga e’tibor berish, ularni bir-biriga to‘g‘ri keltirib bichish kerak. Buning uchun cho‘ntakning tanda ipi kiyimning tanda ipiga mos tushmog‘i lozim.

Yengil kiyimdagi cho‘ntakqopqoqlar.

Qotirmasiz cho‘ntakqopqoq yoki listochkalar. Cho‘ntakqopqoq ikki qismli qilib (qopqoq va ostki qopqoq) yoki yaxlit bichilishi mumkin.

Cho‘ntakqopqoqning ustki qismi yon va past tomonlari bo‘yicha ostki qopqoqqa nisbatan 0,2-0,3 sm kengroq bichiladi. Cho‘ntak qopqoq va ostki qopqoq o‘ngini ichkariga qaratib qo‘yiladi, qirqimlari tekislanadi. Kiyimlarni yakka tartibda tikishda cho‘ntakqopqoq burchaklari va yumaloqlangan joylarida yedirib ko‘klanadi; ag‘darma chok solish cho‘ntakqopqoq tomondan shunday bajariladiki, mashinada tikilgan baxyaqatorlar ko‘klash chokiga to‘g‘ri kelib qolmaydigan bo‘lsin. Chokning eni 0,5-0,7 sm.

Ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi. 0,2-0,3 sm chok haqi qoldirib, cho‘ntakqopqoq burchaklaridagi chok kesiladi (17-rasm, a). Cho‘ntakqopqoqni o‘ngiga ag‘darib, chetlari tekislanadi va 1,0-1,5 sm uzunlikdagi to‘g‘ri qaviqlar

bilan ziylari koʻklanadi. Qaviqlar qopqoq chetidan 0,5-0,7 sm ichkaridan tushiriladi. Koʻklash ostki qopqoq tomondan bajariladi. Shunda eni 0,1-0,2 sm li kant hosil boʻladi. (17-rasm, b). Agar modelda nazarda tutilgan boʻlsa, gazlama oʻngidan qopqoq cheti boʻylab yoʻnaltiruvchi linyeyka yoki yoʻnaltirgachli tepki yordamida bezak baxyaqator tikiladi. Soʻngra tayyor choʻntak qopqoqning enini bildiradigan chiziq belgilab olinadi. Kiyimlarni koʻplab tikishda choʻntakqopqoq

chetlari ostki qopqoq tomondan, qoʻlda koʻklamasdan, mashinada agʻdarma chok bilan tikiladi.

Sintetik tolali gazlamalardan tikiladigan kiyimlar dazmollangandan va iplar soʻkib olingandan keyin ularda qaviq ipining izlari qoladi. Bu izlarni ketkazish qiyin, shuning uchun choʻntakqopqoqlarning ziyini koʻklashda ipak ip ishlatiladi yoki ziy koʻklanmasdan ziy hosil boʻladigan qilib dazmollanadi. Choʻntak qopqoqni ziy koʻklanmay ishlashda vaqt tejaladi. Agar choʻntakqopqoq ostki qopqoq bilan birga bichilgan boʻlsa, u ikki buklanadi, yuqori qirqimi tekislanadi va ikki tomondan mashinada agʻdarma chok bilan tikiladi. Soʻngra oʻngiga agʻdariladi, chetlari goʻgʻrilanadi va agʻdarma choklarini ziyga toʻgʻri keltirib, choklar yotqizilib dazmollanadi.

Agar modelda choʻntakqopqoqda agʻdarma chokli halqalar boʻlishi koʻzda tutilgan boʻlsa, choʻntakqopqoq chetlarini tikищdan oldin halqalar choʻntakqopqoqning yuqori tomonida ishlanadi.

Halqalar maxsus mashinada yoʻrmaladi. Listochkalar choʻntakqopqoqlarga oʻxshab ishlanadi. Bezak choʻntakqopqoq yoki listochkaning ichki cheti ham maxsus mashinada yoʻrmaladi. Shundan keyin choʻntakqopqoq va listochkaning teskarisida ularning tayyor holdagi enini bildiradigan chiziq belgilanadi. Bu chiziq choʻntakqopqoq yoki listochkani asosiy detalga ulash uchun yordamchi belgi vazifasini ham oʻtaydi.

Qotirmali choʻntak qopqoq yoki listochka. Pishiq chiqishi va shaklini uzoq saqlashi uchun yengil kiyimdagi choʻntakqopqoqlar koʻpincha qotirmali qilinadi. Qotirma bir tomoniga yelim qoplangan gazlamadan, xom surp yoki kolenkor tipidagi ip gazlamadan, flizelin tipidagi notoʻqima materiallardan bichilishi mumkin (17-rasm, v).

Bir tomoniga yelim qoplangan gazlamadan tayyorlangan qotirma qopqoqning teskarisiga qoʻyiladi va dazmol yoki pressda bir yoʻla bir nechtasi yopishtiriladi. Agar qotirma xom surp, kolyenkor yoki flizyelindan tayyorlangan boʻlsa, choʻntakqopqoq ostki qopqoq bilan birga oʻngini ichkariga qaratib qoʻyiladi. Qotirma choʻntakqopqoqning teskarisiga qoʻyiladi va ostki qopqoq tomondan mashinada agʻdarma chok bilan tikiladi.

Namlab-isitib ishlash qiyin boʻlgan gazlamalar; lavsanli jun va shoyi gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda qotirma choʻntakqopqoq yoki listochka teskarisiga qoʻyiladi va chetidan 0,6 sm ichkaridan koʻklab, choʻntakqopqoq yoki listochkaning burchaklarida solqi hosil qilib ketiladi. Shundan soʻng qotirmali choʻntakqopqoq ostki qopqoq bilan birga, listochka esa ostki listochka bilan birga oʻngini ichkariga qilib qoʻyiladi va yoʻnaltiruvchi tepki yordamida qotirma tomondan mashinada agʻdarma chok bilan tikiladi. Chokning eni 0,5 sm. Chokning

burchaklari kesiladi, chokdan chiqib qolgan qotirma kesib tashlanadi, cho‘ntakqopqoq yoki listochka o‘ngiga ag‘dariladi va xuddi qotirmasiz cho‘ntakqopqoq hamda listochka kabi ishlanadi (17-rasm, g).

Qo‘yma burmali qopqoq. Oldin qo‘yma burma tayyorlab olinadi, so‘ngra ostki qopqoqning o‘ngiga o‘ngini yuqoriga qilib qo‘yiladi, chetlari tekislanadi va universal mashinada ulanadi. Baxyaqator ikki baxyaqator orasiga yoki burmani hosil qiladigan ikkinchi baxyaqator bo‘yicha tikiladi. Bunda burma detalning butun uzunligi bo‘yicha bir tekis taqsimlanadi (cho‘ntakqopqoq burchaklari bundan mustasno, chunki bu yerda burmalar boshqa joylarga qaraganda ko‘proq bo‘ladi). Yakka tartibda tikiladigan kiyimlarda qo‘yma burma mashinada tikilmaydi, balki 0,3-0,5 sm uzunlikdagi sirma qaviqlar bilan ko‘klanadi. Bunda cho‘ntakqopqoq burchaklaridagi qo‘yma burmaning terilgan joylari qaytma qaviq bilan puxtalanadi.

Mashinada tikilgan yoki ko‘klangan qo‘yma burmali ostki qopqoq cho‘ntakqopqoq bilan birga o‘ngini ichkariga karatib qo‘yiladi, qirqimlari tekislanadi va qo‘yma burmani tikish baxyaqatori yoki ko‘klash qaviqqatori bo‘yicha ostki qopqoq tomondan mashinada ag‘darma chok solinadi. Yakka tartibda tikiladigan buyumlarning ostki qopqog‘i oldin cho‘ntak qopqoqqa ko‘klab olinadi. Bunda qopqoqning burchaklarida bir oz solqi hosil qilib ketiladi. Keyin ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi, choklar kesiladi, cho‘ntakqopqoq o‘ngiga ag‘dariladi va xuddi oddiy cho‘ntakqopqoq kabi ishlanadi. (17-rasm, l).



18-rasm. Yengil kiyimdagi ramkali qirqma cho‘ntak.

Yengil kiyimdagi ramkali qirqma cho‘ntak.

Bunday cho‘ntakni (18-rasm, a) ishlash uchun quyidagi detallar zarur: asosiy material yoki bezak gazlamadan bichilgan mag‘iz (2); asosiy materialdan bichilgan cho‘ntakxalta (1 ta, ikki qismdan iborat bo‘lishi mumkin); bo‘ylama (umuman kerak bo‘lsa - 1 ta).

Cho‘ntak mag‘zi cho‘ntakxalta bilan yaxlit bichilishi mumkin. Bunday cho‘ntakni turli usullarda ishlash mumkin.

Asosiy detalda qo‘shimcha andaza yordamida yoki bichiqchi belgilagan chiziqlar bo‘yicha uchta chiziq: cho‘ntak yo‘nalishini bildiradigan bitta bo‘ylama chiziq va cho‘ntak o‘lchamini cheklaydigan ikkita ko‘ndalang chiziq bilan cho‘ntak o‘rni belgilab olinadi (18-rasm, b). So‘ngra belgilangan o‘rta chiziqdan yuqoriga va pastga har bir kant yoki ramka enidan ikki marta katta masofada ikkita qo‘shimcha

chiziq chiziladi. Kiyimlarni koʻplab tikishda choʻntak detal oʻngiga qoʻshimcha andaza boʻyicha toʻrtta chiziq bilan belgilab olinadi. Ikkita boʻylama chiziq orasidagi masofa choʻntakning ikkita kanti yoki ramkasi enidan ikki marta katta boʻlishi lozim.

Choʻziluvchan gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda asosiy detalning teskarisidan choʻntak chizigʻi tagaga ip gazlamadan 4...5 sm kenglikdagi boʻylama qoʻyiladi. Uning oʻrtasi choʻntak chizigʻiga toʻgʻri kelishi lozim.

Choʻntak yuqori chetining magʻzi oʻrtasidan bukiladi va teskarisini ichkariga qaratib qoʻyiladi, pastki magʻzining bitta boʻylama cheti teskarisita 1...1,5 sm qayriladi va bukilgan joylari dazmollanadi. Tayyorlangan magʻizlarning bukiklari asosiy detaldagi belgilangan qoʻshimcha chiziqlar ustiga qoʻyiladi, qirqimlari esa choʻntak ogʻzi tomonga qaratiladi. Yakka tartibda tikiladigan kiyimlarda magʻizlar oldin koʻklab olinadi, bunda ularning uchlari choʻntak oʻlchamini belgilaydigan koʻndalang chiziqlardan har ikki tomonga 1,5...2 sm chiqib turishi kerak.



19-rasm. Shimdagi qopqoqli qirqma choʻntak.

Koʻplab ishlab chiqariladigan kiyimlarda magʻizlarni oldin koʻklamay turib bukilgan ziylaridan 0,3-0,5 sm ichkaridan mashinada ulanaveradi (19-rasm, v, g). Baxyaqatorlarning uchlari koʻndalang chiziqlarda tugashi kerak. Magʻizlarning asosiy detalga toʻgʻri ulanganligi asosiy detalning teskarisidan tekshiriladi. Magʻizlarning baxyaqatorlari parallel boʻlishi va koʻndalang chiziqlarga yetganda bir joyda tugashi kerak. Choʻntaklarning ogʻzi teskarisidan (baxya qatorlar oʻrtasidan) qirqiladi. Bunda ish uning oʻrtasidan boshlanib, ikki tomonga davom ettiriladi (19-rasm, d) Choʻntakning oxiriga 1...1,5 sm qolganda, baxyaqatorlarga nisbatan qiya qirqimlar qilinadi. Qirqimlar baxyaqatorlarning uchiga 0,1...0,15 sm qolganda toʻxtatiladi. Hosil boʻlgan teshik orqali magʻizlar teskarisiga agʻdariladi, chetlari toʻgʻrilanadi, magʻizlarning uchlarini choʻzib, ziylari bir-biriga taqaladi va choʻntakning uchlari teskarisidan burchaklarning tagi boʻyicha mashinada qaytma baxyaqator bilan puxtalanadi.

Yupqa gazlamalardan tikiladigan shimlardagi orqa choʻntak.

Yupqa hamda sintetik tolalari koʻp gazlamalardan tikiladigan shimlardagi orqa choʻntak konstruktsiyasi va choʻntakxaltani ishlash texnologiyasi boshqacharoq boʻladi. Bunday choʻntak ikki qismdan: ustki (kichik) va pastki (katta) qismdan iborat qilib bichiladi.

Maxsus mashinada cho‘ntakning pastki cheti, mag‘zining qirqimlari yo‘rmaladi, so‘ngra o‘rtasidan bo‘ylamasiga so‘kiladi va bukilgan joyi dazmollanadi. Bukik ichiga cho‘ntak xalta ustki (kichik) qismining qirqimi qo‘yiladi va cho‘ntakxaltaning ishlangan chetlaridan 0,2...0,3 sm masofada bitta baxyaqator bilan mashinada qayirib tikiladi (19-rasm, v, g).

Cho‘ntakxaltaning pastki (katta) qismiga, cho‘ntak qirqimi uchastkasiga, astarli gazlamadan bichilgan ko‘rinma qo‘yiladi. Uning cheti qayriladi va qayrilgan ziyidan 0,1...0,2 sm ichkaridan bostirib tikiladi. So‘ngra cho‘ntakxalta qo‘yilib, pastki va yon qirqimlari to‘g‘rilanadi va eni 1 sm li chok bilan mashinada tikiladi. Tikilgan qirqimlari maxsus mashinada yo‘rmaladi, kiyimlarni ko‘plab ishlab chiqarishda esa tikish bilan bir vaqtda maxsus mashinada yo‘rmab ketiladi.

Shimlarning ort bo‘lagida, cho‘ntak o‘rnini bildiradigan asosiy chiziqlardan tashqari, mag‘izni tikish uchun qo‘shimcha chiziq ham belgilab olinadi. Ramkaning eni 0,5 sm bo‘lganda bu chiziq, cho‘ntak qopqoqni ulash chokidan 1,0 sm ichkaridan chiziladi.

Cho‘ntakqopqoq tikilgandan so‘ng tayyorlangan cho‘ntakxalta ort bo‘lakning o‘ngiga kichik qismini ichkariga qilib qo‘yiladi, mag‘izning bukigi qo‘shimcha chiziqqa to‘g‘ri keltiriladi va chetidan 0,5 sm ichkaridan mashinada ulanadi. Cho‘ntak qirqimi teskarisidan cho‘ntakqopqoqli yon cho‘ntak kabi qirqiladi. Cho‘ntak qirqimi orqali cho‘ntakxalta teskarisiga ag‘dariladi, ramka, cho‘ntak qopqoqni ulash choki va ko‘rinmali cho‘ntakxalta to‘g‘rilanadi. Ko‘rinmali cho‘ntak xaltaning uchi cho‘ntakqopqoqni ulash chokiga qo‘yiladi va mashinada teskarisidan shu chokka tikiladi yoki o‘ngidan qopqoqni tikish chokidan modelda ko‘zda tutilgan masofada yuqoridan bezak baxyaqator bilan tikiladi. Cho‘ntak qopqoqning uchlari teskarisidan mashinada puxtalanadi, o‘ngidan esa maxsus mashinada puxtalamalar qo‘yiladi.

## BOB.II .BOLALAR UCHUN TRIKOTAJ KIYIMLARNI LOYIHALASH

### 2.1. YASLI YOSHIDAGI BOLALAR ICHKI KIYIMLARINI BICHISH VA TIKISH TEXNOLOGIYASI

Bolalar ichkiyimi (kunduzi va kechasi kiyiladigan ko‘ylak, trusik, pijama va boshqalar) yengil, qulay, havoni yaxshi o‘tkazadigan, issiq tutadigan, gigroskopik bo‘lishi lozim. Ichki kiyim bolaning erknn pafas olishiga, badanda qonning harakatlanishiga xalaqit bermaydigan bo‘lishi kerak. Chaqaloqlar kiyimini – yaktakcha, ya’ni raspashonka, ko‘ylak, kofta, chepchik (qalpoqcha)ni mumkin qadar kamroq chok solib tikish kerak. Raspashonkaning yoqa o‘miziga adip tutiladi, adip kiyimniit o‘ng tomoniga qayirib tikiladi. Chaqaloqlar raspashonkasining yo oldi, yo orqasi ochiq bo‘ladi. Raspashonkaga mutlaqo tugma qadalmaydi, uning barlari tasma yoki lentalar bilan boylanadi.

Bolalar kiyimi kunduzi yoki kechasi kiyilishiga, mavsumga hamda bolaning yoshiga qarab, turli gazlamalardan (batist, paxmoq gazlama, bumazeya, surp va shu kabi mayin gazlamalardan) tikiladi. Bolalar kiyimiga ishlatiladigan gazlama miqdori kiyimning kengligi va uzunligiga qarab belgilanadi, bunda gazlamaning ikki buklangan holda bichilishini va chok haqi tashlab ketish zarurligini ham hisobga olish kerak. Trusik, plavka (cho‘milganda kiyiladigan kalta trusik), uzun pochali ishton va pijama shimi uchun gazlama buyum orqa yarmining uzunligiga qarab ikki baravar ko‘proq olinadi. Bichish vaqtida gazlama bo‘yiga ikki buklanishi va andaza detallari gazlamaning taxiga to‘g‘rilab qo‘yilishi lozim.

Bolalar kiyimi, chunonchi: chaqaloqlar uchun konvert shaklida tikilgan yo‘rgak, chepchik, raspashonka, paypoq ishton (polzunki), yubka-trusik, yoqa o‘mizi dumaloq qilib o‘yilgan qizlar ichko‘ylagi, kechasi kiyiladigan qizlar ichko‘ylagi va kechasi kiyiladigan o‘g‘il bolalar ichko‘ylagining chizmalari quyida berilgan.




20-rasm. Chaqoloqlar yo‘rgakning andaza chizmasi.

*Chaqaloqlar uchun konvert shaklida tikilgan yo‘rgak (konvert).*

Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Konvertning uzunligi – 130 sm.
2. Konvertning kengligi – 75 sm.

*Andaza chizmasini chizish.* To‘g‘ri burchak chizib, burchak uchiga K harfi

qo‘yiladi (20-rasm).

*Konvertning uzunligi.* K nuqtadan o‘ngga 130 sm uzunlikda (konvertning uzunligi) chiziq tortib, uchiga $K_1$ nuqta qo‘yiladi. $K_1$ nuqtadan pastga ixtiyoriy uzunlikda tik chiziq tushiriladi.

*Konvertning kengligi.* K nuqtadan pastga 37,5 sm uzunlikda (konvert kengligining $^1/_3$ qismi, ya’ni 75:2 = 37,5 sm) chiziq tushirib, uchiga $K_2$ belgisi qo‘yiladi. $K_2$ nuqtadan o‘ngga gorizontal chiziq chiziladi, uning vertikal chiziq bilan kesishgan nuqtasiga $K_3$ harfi qo‘yiladi.

*Yordamchi chiziqlar.* $K_2$ nuqtadan yuqoriga 20 sm o‘lchab, $K_4$ nuqta qo‘yiladi. $K_4$ nuqtadan o‘ngga gorizontal chiziq chiziladi, bu chiziqning $K_1$ $K_3$ chiziqni kesib o‘tgan nuqtasi $K_5$ bilan belgilanadi. K nuqtadan o‘ngga 25 sm o‘lchab, $K_6$ nuqta qo‘yiladi. $K_6$ nuqtadan pastga tik chiziq tushirilib, uning $K_2$ $K_3$ chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasi $K_7$ harfi bilan, $K_6$ $K_5$ chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasp $K_8$ bilan belgilanadi. $K_6$ $K_1$ chizig‘i teng ikki qismga bo‘linib, bo‘lish nuqtasi $K_9$ bilan belgilanadi. $K_9$ nuqtadan pastga tik chiziq tushirilib, uning $K_2$ $K_3$ chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasi $K_{10}$ bilan, $K_4$ $K_5$ chizig‘ini kesib o‘ttan nuqtasi esa $K_{11}$ bilan belgilanadi.

*Konvertning ustki qismi (qopqog‘i).* $K_4$ nuqtadan burchakni teng o‘rtasidan bo‘ladigan qilib 6 sm uzunlikda chiziq chiqarilib, chiziq uchiga $K_{12}$ harfi qo‘yiladi. $K_4$ $K_8$ chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi. K, $K_{12}$ nuqtalar va $K_4$ $K_8$ chizig‘idagi bo‘lish nuqtasi orqali chiziq o‘tkaziladi, bu ustki chiziq bo‘ladi. Andazaning shtrixlangan qismi kesib tashlanadi.

1- chepchik:

Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Chepchikning uzunligi (pyeshananing o‘rtasidan bo‘yin umurtqasigacha bo‘lgan oraliq o‘lchanadi) – 20 sm.

2. Boshning pyeshana ustidan o‘lchangan yarim aylanasi – 18 sm.

*Andaza chizmasini chizish.* Chepchikning tepa qismi ABVG kvadrati chiziladi (198-rasm, v). Kvadrat tomonlari 12 sm ga teng (bosh yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 3 sm qo‘shiladi, ya’ni 18:2 + 3=12 sm).

*Chok tushadigan chiziq.* A va B nuqtalardan burchakni teng o‘rtasidan bo‘ladigan qilib 2 sm uzunlikda chiziqlar chizilib, chiziqlar uchiga CH hamda $CH_1$ harflari yoziladi; G nuqtadan o‘ngga, V nuqtadan esa chapga 2 sm dan o‘lchab, $CH_2$ va $CH_3$ nuqtalar qo‘yiladi. AG, AB va BV chiziqlarining har biri teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtalari $CH_4$, $CH_5$ va $CH_6$ harflari bilan belgilanadi. $CH_2$, $CH_4$, CH, $CH_5$, $CH_1$, $CH_6$ va $CH_3$ nuqtalar orqali chiziq tortiladi, bu tikish chizig‘i, ya’ni chok tushadigan chiziq bo‘ladi.

*Ensa chizig‘i.* GV chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan yuqoriga to‘g‘ri burchak hosil qilib 0,5 sm o‘lchab, $CH_7$ nuqta qo‘yiladi. $CH_2$ nuqta $CH_7$ nuqta orqali $CH_3$ nuqtaga chiziq yordamida tutashtiriladi.

Chepchikning yon qismi. ABVG to‘g‘ri burchagi chiziladi (198-rasm, g).

*Chepchikning uzunligi.* AB va GV gorizontal chiziqlarining uzunligi 16 sm ga teng (chepchik tepa qismining o‘lchangan uzunligi).

*Chepchikning kengligi.* AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 9 sm ga teng

(bosh yarim aylanasining $^{1}/_{2}$ qismi, ya’ni 18:2 = 9 sm).

*Chok tushadigan chiziq.* A nuqtadan burchakni teng o‘rtasidan bo‘ladigan qilib 1 sm uzunlikda chiziq chiqarib, uchiga CH harfi qo‘yiladi.

AB chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi. B nuqtadan CH nuqtaga AB chizig‘idagi bo‘lish nuqtasi orqali chiziq, tortiladi, bu chok tushadigan chiziq, bo‘ladi.

*Ensa chizig‘i.* G nuqtadan yuqoriga 1 sm o‘lchab, $CH_1$ nuqta qo‘yiladi; $CH_1$ nuqta V hamda CH nuqtalarga tutashtiriladi.

<u>Raspashonka (yaktakcha).</u>

Andaza chizmasinn chizish vaqtida quyidagi jadvaldan foydalanish kerak.

Raspashonkaning taxminiy o‘lchovlari (sm) 1-jadval

| Bolaning yoshi | Raspashonkaning uzunligi | Raspashonkaning kengligi |
|---|---|---|
| 1 – 2 oylik | 24 | 26 |
| 2 – 6 oylik | 26 | 28 |
| 6 oylikdan 1 yoshgacha | 28 | 32 |

Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Raspashonkanpng uzunligi – 26 sm.
2. Raspashonkaning kengligi – 28 sm.

*Andaza chizmasini chizish.*

ABVG to‘rtburchagi chiziladi (21-rasm, a).

*Raspashonkaning uzunligi.* AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 26 sm ga teng (raspashonkaning o‘lchab olingan uzunligi).

*Raspashonkaning kengligi.* AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 14 sm ga teng (raspashonka kengligining $^{1}/_{2}$ qismi, ya’ni 28:2=14 sm).

*Yoqaning orqa o‘mizi.* B nuqtadan chapga 4 sm o‘lchab, SH nuqta qo‘yiladi. B nuqtadan pastga 1 sm o‘lchab (barcha o‘lchamlar uchun) 1 raqami qo‘yiladi. 1 nuqtasi SH nuqtara botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi.




21-rasm. Raspashonkaning andaza chizmasi.

*Yoqaning oldingi umizi.* B nuqtadan pastga 5 sm o‘lchab (barcha o‘lchamlar uchun), $SH_1$ nuqta qo‘yiladi. $SH_1$ nuqta SH nuqtaga botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi.

*Yengning uzunligi.* Gorizontal chiziq A nuqtadan chapga 8-10 sm (barcha o‘lchamlar uchun) uzaytirilib, P nuqta qo‘yiladi.

*Yengning kengligi.* P nuqtadan pastga 10-12 sm uzunlikda tik chiziq tushirib, uchiga $P_1$ harfi qo‘yiladi. $P_1$ nuqtadan o‘ngga gorizontal chiziq chizilib, uning AG chiziq bilan kesishgan nuqtasi $P_2$ bilan belgilanadi.

*Qo‘ltiq choki tushadigan chiziq.* $P_1$ nuqtadan yuqoriga 1 sm (barcha o‘lchamlar uchun) o‘lchab, $P_3$ puqta qo‘yiladi. $P_2$ nuqtadan chapga 2 sm o‘lchab, 2 raqami, pastga 3 sm o‘lchab, 3 raqami qo‘yiladi. $P_3$, 2 va 3 nuqtalar egri chiziq yordamida tutashtiriladi. Bu qo‘ltiq osti chizig‘i bo‘ladi.



22-rasm. Trusikning andaza chizmasi

*Yon chok va raspashonkaning etagi.* Gorizontal chiziq G nuqtadan chapga 2 sm uzaytirilib, chiziq uchiga N harfi qo‘yiladi. N nuqta 3 nuqtasiga chiziq yordamida tutashtiriladi.

*Trusik.* (30-o‘lcham)

Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Trusikning uzunligi – 56 sm.
2. Sonning yarim aylanasi – 32 sm.

Trusikning uzunligi orqadagi bel chizig‘idan boshlab, chov orqali oldingi bel chizig‘igacha o‘lchanadi.

*Andaza chizmasini chizish.* ABVG to‘rt burchagi chiziladi (22-rasm).

*Trusikning uzunligi.* AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 28 sm (trusik uzunligining $^1/_2$ qismi, ya’ni 56:2=28 sm) ga teng.

*Trusikning kengligi.* AB va GV gorizontal chiziqlarining uzunligi 26 sm (son yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 10 sm qo‘shiladi, ya’ni 32:2+10=26 sm) ga teng.

*Etak chizig‘i.* V nuqtadan yuqoriga 6 sm (barcha o‘lchamlar uchun) o‘lchab, N nuqta qo‘yiladi. V nuqtadan chapga 6 sm o‘lchab, $H_1$ nuqta qo‘yiladi. N va $H_1$ nuqtalar chiziq yordamida o‘zaro tutashtiriladi. G nuqtadan yuqoriga 6 sm o‘lchab, $N_2$ nuqta qo‘yiladi. $H_1$ va $N_2$ nuqtalar punktir chiziq yordamida o‘zaro tutashtiriladi, punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan yuqoriga $H_1$ $N_2$ chizig‘iga nisbatan burchak hosil qilib, 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi. 1 nuqta orqali $N_2$ nuqtadan $H_1$ nuqtagacha chiziq tortiladi, bu etak chizig‘i bo‘ladi.

*Trusikning orqa choki tushadigan chiziq.* B nuqtadan chapga 6 sm uzunlikda (barcha o‘lchamlar uchun) chiziq chizib, chiziq uchiga T harfi qo‘yiladi. N nuqtadan yuqoriga T nuqtagacha chiziq chiqariladi, bu chiziq T dan yuqoriga 4 sm (barcha o‘lchamlar uchun) uzaytirilib, $T_1$ nuqta qo‘yiladi.

*Trusikning orqa bel chizig‘i.* $T_1$ va A nuqtalar chiziq yordamida o‘zaro tutashtiriladi.

*Trusikning oldingi choki tushadigan chiziq.* T nuqtadan chapga 2 sm o‘lchab (barcha o‘lchamlar uchun), $T_2$ nuqta qo‘yiladi. $T_2$ kuqta bilan N nuqta punktir chiziq yordamida o‘zaro tutashtiriladi. Punktir chiziq teng uch qismga bo‘linadi. $T_2$N

chizig‘iga nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib chapga, yuqori bo‘lish nuqtasidan 1,5 sm o‘lchab 1,5 raqami, pastki bo‘lish nuqtasidan 2 sm (barcha o‘lchamlar uchun) o‘lchab, 2 raqami qo‘yiladi. $T_2$ nuqtadan N nuqtaga 1,5 va 2 nuqtalari orqali chiziq tortiladi.

*Trusikning oldingi bel chizig‘i* A va $T_2$ nuqtalar orqali o‘tadi.

*Qizchalarning kechasi kiyadigan ko‘ylagi.* (32-o‘lcham)

Andaza chizmasini chizish uchun qo‘yidagi o‘lchovlar kerak:

1. Kechasi kiyiladigan ko‘ylakning uzunligi – 100 sm.
2. Bo‘yinning yarim aylanasi – 14 sm.
3. Ko‘krakning yarim aylanasi – 32 sm.

*Andaza chizmasini chizish.* ABVD to‘g‘ri burchagi chiziladi (23-rasm, a).

*Ko‘ylakniig uzunligi.* AD va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 100 sm (ko‘ylakning o‘lchangan uzunligi) ga teng.

*Ko‘ylakning kengligi.* AB va DV gorizontal chnziqlarining uzunligi 19 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 3 sm qo‘shiladi, ya’ni 32:2+3=19 sm) ga teng.

*Yoqa o‘mizining chuqurligi.* B nuqtadan pastga 17 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 1 sm qo‘shiladi, ya’ni 32:2+1=17 o‘lchab, G nuqta qo‘yiladi. G nuqtadan chapga gorizontal chiziq chiziladi, uning AD chiziqni kesib o‘tgan nuqtasi $G_1$ bilan belgilanadi.

*Orqa yoqa o‘mizi.* B nuqtadan chapga 6,7 sm (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 2 sm qo‘shiladi, ya’ni 14:3+2=6,7 sm) o‘lchab, SH nuqta qo‘yiladi. B nuqtadan pastga 6,7 sm o‘lchab. SH nuqta qo‘yiladi. $SH_1$ nuqta SH nuqtaga botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi.



23-rasm. Qizchalar kechasi kiyadigan ko‘ylagining andaza chizmasi.

*Old yoqa o‘mizi.* $SH_1$ nuqtadan pastga 2 sm (barcha o‘lchamlar uchun) o‘lchab, $SH_2$ nuqta qo‘yiladi. $SH_2$ nuqta orqa o‘miz chizig‘ining o‘rta qismiga ravon tutashtiriladi.

*Yeng chizig'i.* A va G nuqtalardan chapga gorizontal chiziqlar 6-10 sm (barcha o'lchamlar uchun) uzaytiriladi va N hamda $H_1$ nuqtalar qo'yiladi, bu nuqtalar bir-biriga tutashtiriladi. $H_1$ nuqtadan yuqoriga 1 sm o'lchab, $N_2$ nuqta qo'yiladi. $G_1$ nuqtadan chapga va pastga 2 sm dan o'lchab, $N_3$ va $N_4$ nuqtalar qo'yiladi, $N_2$ nuqta $N_3$ nuqta orqaln $N_4$ kuqtaga tutashtiriladi; bu yengning ostki chizig'i bo'ladi.

*Yon chiziq.* D nuqtadan chapga gorizontal chiziq 10 sm (barcha o'lchamlar uchun) uzaytirilib, $N_5$ nuqta qo'yiladi. $H_5$ nuqtadan yuqoriga 2 sm o'lchab, $N_6$ nuqta qo'yiladi. $N_4$ nuqta $N_6$ nuqtaga tutashtiriladi.

*Etak chizig'i.* DV chizig'i teng uch qismga bo'linadi. Etak chizig'i $N_6$ nuqtadan boshlanadi va DV chizig'idagi birinchi bo'lish nuqtasiga urinib o'tib, V nuqtaga tutashadi.

*Koketka chizig'i.* N nuqtadan pastga 6 sm o'lchab, K nuqta qo'yiladi. $SH_2$ nuqtadan pastga 6 sm o'lchab, $K_1$ nuqta qo'yiladi. Koketka chizig'i K nuqtadan boshlanadi va yelka chizig'iga hamda yoqa o'mizi chizig'iga parallel chizilib $K_1$ nuqtaga tutashadi. Kesish chizig'i quyidagicha belgilanadi: DV chizig'idagi bo'lish nuqtalaridan yuqoriga pyerpyendikulyar tik chiziq chiqariladi, pyerpyendikulyarlar koketka chizig'i bilan kesishadi.

*Andazani gazlama ustiga qo'yish* (23-rasm, b). Andaza koketka chizig'i hamda kesish chiziqlari izidan kesiladi; so'ngra andaza detallari bo'yicha ikki buklangan gazlama ustiga qo'yiladi. Ko'ylakning orqa yarmi, oldingi yarmi va koketka andazalarining o'rta chizig'i buklangan gazlamaning taxiga to'g'ri keltiriladi. Kechasi kiyiladigan ko'ylakni orqasidan yoki oldidan tutmalanadigan qilish mumkin. Koketkani yelkasiga chok tushmayditan qilib bichilsa ham bo'ladi. Chok haqlari rasmda ko'rsatilgan. Ko'ylakning oldi va orqasi alohida-alohida bichiladi. Kechasi kiyiladigan ko'ylakni 23-rasm, a da berilgan chizma bo'yicha koketkasiz va kesish chizish izidan kermasdan bichish ham mumkin.

## 2.2. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KIYIMLARINI LOYIHALASH

**Bolalar kiyimi**. Barcha yoshdagi bolalar kiyimi gigiyena qoidalariga mos va qulay bichimda bo'lishi lozim.Maktabgacha bolalarni chiroyli kiyina bilishga, kiyimni avaylab kiyish va toza tutishga yoshligidan o'rgatish kerak.

Bolalar kiyimining andaza chizmalari quyida berilgan.

**Maktabgacha yoshdagi qizchalar ko'ylagi.** (32-o'lcham)

Maktabgacha yoshdagi qizchalar ko'ylagining asosiy andaza chizmasidan foydalanib, turli fasondagi ko'ylaklar bichish va tikish mumkin; buning uchun asosiy andaza chizmasiga fasonnnng chiziqlari chiziladi, xolos.

Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o'lchovlar kerak:

1. Bo'yinning yarim aylanasi – 14 sm.
2. Ko'krakning yarim aylanasi – 32 sm.
3. Orqaning belgacha uzunligi – 28 sm.
4. Ko'ylakning uzunligi – 55 sm.
5. Yelka kengligi – 9 sm.

6. Yeng uzunligi – 40 sm.



24-rasm. Maktabgacha yoshdagi qizchalar ko‘ylagining andaza chizmasi: a - orqa va old qismlari, b - bir chokli eng; v - yoqa.

**Andaza chizmasini chizish.** To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A harfi qo‘yiladi (24-rasm, a).

*Ko‘ylakning uzunligi.* A nuqtadan pastga 55 sm uzunlikda (ko‘ylakning o‘lchab olingan uzunligi) chiziq tushirib, uchiga N nuqta qo‘yiladi. N nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

*Yeng o‘mizining chuqurligi (uzunligi).* A nuqtadan pastga 15,7 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^{1}/_{3}$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 5 sm qo‘shiladi, ya’ni 32:3+5=15,7 sm) o‘lchab, G nuqta qo‘yiladi va G nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizantal chiziq tortiladi.

*Bel chizig‘i.* A nuqtadan pastga 28 sm (orqanipg belgacha uzunligi) o‘lchab, T nuqta qo‘yiladi va T nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

*Orqaning kengligi.* G nuqtadan o‘ngga 14,7 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^{1}/_{3}$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 4 sm qo‘shiladi, ya’ni 32:3+4=14,7 sm) o‘lchab, $G_1$ nuqta qo‘yiladi. $G_1$ nuqtadan yuqoriga to‘g‘ri chiziq, chiqarilib, uning yuqori gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi P harfi bilan belgilanadi.

*Yeng o‘mizining kengligi.* G nuqtadan o‘ngga 10 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^{1}/_{4}$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 2 sm qo‘shiladi, ya’ni 32:4+2=10 sm) o‘lchab, $G_2$ nuqta qo‘yiladi. $G_2$ nuqtadan yuqoriga ixtiyoriy uzunlikda to‘g‘ri chiziq chiqariladi.

*Ko‘ylakning ko‘krak chizig‘i bo‘yicha kengligi.* G nuqtadan o‘ngga 40 sm (ko‘krakning yarim aylanasiga barcha o‘lchamlar uchun 8 sm qo‘shiladi, ya’ni 32+8=40 sm) o‘lchab, $G_3$ nuqta qo‘yiladi. $G_3$ nuqta orqali yuqoriga va pastga tik chiziq chizilib, bu chiziqning bel chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $T_1$ bilan, etak chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $N_1$ bilan belgilanadi.

*Ko‘ylak oldingi lifi (polochkasi)ning balandligi.* $G_3$ nuqtadan yuqoriga

17,7 sm (yeng o‘mizining chuqurligiga barcha o‘lchamlar uchun 2 sm qo‘shiladi, ya’ni 15,7+2=17,7 sm) o‘lchab, SH nuqta qo‘yiladi. SH nuqtadan chapga, $G_2$ nuqtadan chiqqan tik chiziq, bilan kesishadigan qilib, gorizontal chiziq chiziladi va ularning kesishgan nuqtasi $P_1$ bilan belgilanadi.

*Yon chok tushadigan chiziq.* $G_1$ nuqtadan o‘ngga 3 sm o‘lchab, $G_4$ nuqta qo‘yiladi. $G_4$ nuqtadan pastga yordamchi chiziq tushirilib, yordamchi chiziqning etak chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $N_2$ bilan bel chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $T_2$ bilan belgilanadi.

***Ko‘ylakning orqasini chizish.***

*Yoqa o‘mizi.* A nuqtadan o‘ngga 5,2 sm (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 0,5 sm qo‘shiladi, ya’ni 14,3+0,5=5,2 sm) o‘lchab, 5,2 nuqta qo‘yiladi. Bu nuqtadan 1,5 sm yuqoriga $SH_1$ nuqta qo‘yiladi. A nuqta $SH_1$ nuqtaga botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi.

*Yelka qiyaligi.* P nuqtadan pastga 2 sm o‘lchab 2 raqami qo‘yiladi.

*Yelka chizig‘i.* $SH_1$ nuqtadan o‘ngga yelka qiyaligidagi 2 nuqta tomon 10 sm (yelkaning kengligiga barcha o‘lchamlar uchun 1 sm qo‘shiladi, ya’ni 9+1=10 sm) uzunlikda chiziq, tortib, uchiga $P_2$ nuqta qo‘yiladi.

*Yeng o‘mizi.* $G_1$ nuqtadan, burchakni o‘rtasidan bo‘ladigan qilib, 2 sm uzunlikda chiziq chiqariladi. O‘miz chizig‘i $P_2$ nuqtani $G_4$ nuqtaga tutashtiradi, bu chiziq $PG_1$ chizig‘iga urinib 2 nuqtasi orqali o‘tadi.

*Yon chok tushadigan chiziq.* $T_2$ nuqtadan 1 sm o‘ngga 1 raqami qo‘yiladi. $G_4$ va 1 nuqtalari orqali pastga $HH_1$ chizig‘igacha to‘g‘ri chiziq tushirilib, uning $HH_1$ chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $N_3$ bilan belgilanadi.

*Etak chizig‘i.* $N_3$ nuqtadan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yilib, N nuqta 1 nuqtasiga tutashtiriladi.

***Ko‘ylakning oldini chizish.***

*Yoqa umizi.* SH nuqtadan chapga 5,2 sm (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 0,5 sm qo‘shiladi, ya’ni 14:3+0,5=5,2 sm) o‘lchab, $SH_2$ nuqta qo‘yiladi.

SH nuqtadan pastga 6,2 sm (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 1,5 sm ko‘shiladi, ya’ni 14:3+1,5=6,2 sm) o‘lchab, $SH_3$ nuqta qo‘yiladi. $SH_2$ nuqta $SH_3$ nuqtaga punktir chiziq, yordamida tutashtirilib, punktir chiziq, teng ikki qismga bo‘linadi va bo‘lish nuqtasidan 1,5 sm pastga 1,5 nuqtasi qo‘yiladi. Umiz chizig‘i $SH_2$ nuqtani 1,5 nuqtasi orqali $SH_3$ nuqtaga tutashtiradi.

*Yelka chizig‘i va vitachka.* $SH_2$ nuqtadan 3 sm chapga $P_3$ nuqta qo‘yiladi. $G_3$ nuqtadan chapga 7,2 sm (SH nuqta bilan $P_3$ nuqta orasidagi chiziq uzunligidan barcha o‘lchamlar uchun 1 sm ayiriladi, ya’ni 5,2+3-1=7,2 sm) o‘lchab, $G_5$ nuqta qo‘yiladi.

$P_3$ nuqta $G_5$ nuqtaga tutashtiriladi. $G_5$ nuqtadan yuqoriga 4 sm o‘lchab, V nuqta qo‘yiladi. $P_3$ nuqtadan 1 sm pastga $B_1$ nuqta qo‘yilib, $B_1$ nuqta $SH_2$ nuqtaga tutashtiriladi va $P_1$ nuqtadan o‘ngga 2 sm o‘lchab. $P_4$ nuqta qo‘yiladi. $P_4$ nuqta V nuqtaga tutashtirilib, V nuqtadan yuqoriga $P_4$ nuqta tomon $BB_1$ chiziq uzunligiga teng chiziq chiqariladi va uchiga $V_2$ nuqta

qo‘yiladi. Vitachkannng ikkala chizig‘i o‘zaro teng bo‘lishi lozim.

$V_2$ nuqta G nuqtaga chiziq, yordamida tutashtiriladi. $V_2$ nuqtadan chapga 6 sm (yelkaning kengligidan barcha o‘lchamlar uchun 3 sm ayiriladi, ya’ni 9-3=6 sm) o‘lchab, 6 raqami qo‘yiladi. Bu nuqtadan 1 sm pastga 1 raqami qo‘yiladi. 1 nuqtasi $V_2$ nuqtaga tutashtiriladi.

*Yeng o‘mizi.* $G_2$ nuqtadan 3 sm yuqoriga 3 raqami qo‘yiladi. 3 nuqtasi yelka chizig‘idagi 1 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtirilib, puktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi va bo‘lish nuqtasidan 1 sm o‘ngga 1 raqami qo‘yiladi.

$G_2$ nuqtadan, burchakning o‘rtasidan bo‘ladigan qilib, 1,5 sm uzunlikda chiziq, chiqarilib, uchiga 1,5 raqami qo‘yiladi. Yeng o‘mizi chizig‘i 1, 1, 3, 1,5 va $G_4$ nuqtalarini o‘zaro tutashtiradi.

*Yen chok tushadigan chiziq.* $T_2$ nuqtadan 2 sm chapga 2 raqami qo‘yilib, yon chiziq $G_4$ nuqtani 2 nuqtasi orqali $HH_1$ chizig‘iga tutashtiriladi, bu chiziqlar kesishgan nuqta $N_4$ belan belgilanadi.

*Bel chizig‘i.* $T_1$ nuqtadan 2 sm pastga 2 raqami qo‘yiladi. 2 nuqtasi yon chiziqdagi 2 nuqtasiga tutashtiriladi.

*Etak chizig‘i.* Vertikal chiziq $H_1$ nuqtadan pastga 2 sm uzaytirilib, 2 raqami qo‘yiladn. $N_4$ nuqtadan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yilib, 1 2 nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi.

***Yengni chizish.***

To‘g‘ri burchak chizib, burchak uchiga A nuqta qo‘yiladi (24-rasm, b).

*Yongning uzunligi.* A nuqtadan pastga 40 sm uzunlikda (yengning o‘lchab olingan uzunligi) chiziq tushirilib, uchiga N harfi qo‘yiladi N nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq, tortiladi.

*Yeng boshi (okat)ning balandligi.* A nuqtadan pastga 10,7 sm (ko‘krak yarim aylanasinnng $^1/_3$ qismi, ya’ni 32:3=10,7 sm) o‘lchab, R nuqta qo‘yiladi. R nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

Yengning kengligi. R nuqtadan o‘ngga 31,3 sm ko‘krak yarim aylanmasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 5 sm qo‘shib ikkiga ko‘paytiriladi, ya’ni (32:3+5)x2=31,3 sm] o‘lchab, $P_1$ nuqta qo‘yiladi. $P_1$ nuqta opqali yuqoriga va pastga vertikal chiziq chizilib, uning yuqori gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $R_2$ bilan, etak chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $H_1$ bilan belgilanadi.

*Yordamchi chiziqlar.* $AR_2$ chizig‘i teng to‘rt qismga bo‘linib, bo‘lish nuqtalari O (yeng boshining eng baland nuqtasi), $O_1$ va $O_2$ harflari bilan belgilanadi. Bu nuqtalardan pastga etak chizig‘iga yetkazib to‘g‘ri chiziqlar tushirilib, ularning etak chizig‘i bilan uchrashgan nuqtalari $N_2$, $N_3$ va $N_4$ bilan belgilanadi. O nuqta R va $P_1$ nuqtalarga punktir chiziqlar bilap tutashtiriladi. Bu chiziqlarning $O_1$ 2 chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasi $O_3$ harfi bilan, $O_2$ $N_4$ chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasi $O_4$ bilan belgilaladi.

*Yeng boshi.* Yordamchi chiziqlar orasidagi har bir punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linib, $RO_3$ punktir chizig‘idagi bo‘lish nuqtasidan 1 sm pastga, $O_3O$ punktir chizig‘idagi bo‘lish nuqtasidan 1 sm yuqoriga,

shuningdek $OO_4$ punktir chizig‘idagi bo‘lish nuqtasidan 1 sm yuqoriga 1 raqamlari, $O_4$ $P_1$ punktir chizig‘idagi bo‘lish nuqtasidan 1,5 sm pastga 1,5 raqami qo‘yiladi. Keyin R nuqta $P_1$ nuqtaga 1, $O_3$, 1, O, 1, $O_4$ va 1,5 nuqtalari orqali o‘tgan chiziq yordamida tutashtirilib, ana shunda yeng boshini ko‘rsatib turuvchi chiziq hosil bo‘ladi.

*Yengning quyi chizig‘i.* N nuqtasidan yuqoriga 2 sm, $N_3$ nuqtasidan 1 sm, $N_4$ nuqtasidan 3 sm, $N_1$ nuqtasidan 2 sm o‘lchanadi. Quyi chiziq 2, $N_2$, 1, 3, 2 nuqtalar bilan tutashtiriladi.

*Qisqa yeng.* O nuqtadan pastga 15 sm o‘lchab, 15 raqami qo‘yilib, 15 nuqtasi orqali o‘ng va chapga yon chiziqlarga yetkazib gorizontal chiziq tortiladi. Gorizontal chiziqning chap tomondagi yon chiziq, bilan kesishgan nuqtasidan 2 sm o‘ngga, o‘ng tomondagi yon chiziq bilan kesishgan nuqtasidan esa 2 sm chapga 2 raqamlari qo‘yilib, chapdagi 2 nuqtasi R nuqtaga, o‘ngdagi 2 nuqtasi $P_1$ nuqtaga tutashtiriladi.

***Yoqani chizish.***

To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A harfi qo‘yiladi (24-rasm, v).

*Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i.* A nuqtadan 2 sm pastga 2 raqami qo‘yiladi. A nuqtadan o‘ngga 14 sm (bo‘yinning yarim aylana uzunligi) o‘lchab, V nuqta qo‘yiladi. V nuqta 2 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtirilib, punktir chiziq teng ikki qimsga bo‘linadi va bo‘lish nuqtasidan 1 sm pastga 1 raqami qo‘yiladi. Tikish chizig‘i 2, 1 va V nuqtalari orqali chiziladi.

*Yoqaning eni.* 2 nuqtadan pastga 5 sm o‘lchab, 5 raqami qo‘yilib, 5 nuqtasidan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.



25-rasm. Maktabgacha yoshdagi qizchalar sarafani.

*Yoqaning uchi va pastki chizig‘i (cheti).* 5 nuqtasidan o‘ngga 17 sm (bo‘yinning yarim aylanasi uzunligiga barcha o‘lchamlar uchun 3 sm qo‘shiladi, ya’ni 14+3=17 sm) o‘lchab, $B_1$ nuqta qo‘yiladi. $B_1$ nuqta V nuqtaga tutashtiriladi. V nuqtadan 5 sm pastga $V_2$ nuqta qo‘yiladi. 5 nuqtasi $V_2$ nuqtaga rasmda ko‘rsatilganidek tutashtiriladi.

**Maktabgacha yoshdagi qizchalar sarafani.**

Ko‘ylak andazasining asosiy chizmasiga (24-rasm, a) sarafan fasonining chiziqlari chiziladi.

*Sarafanning orqasi* (25-rasm, a). A nuqtadan pastga 6 sm o‘lchab, 6 raqami qo‘yiladi va 6 nuqtasidan o‘ngga gorizontal chiziq tortiladi. $SH_1$ nuqtadan o‘ngga yelka chizig‘i bo‘yicha 3 sm o‘lchab, 3 nuqtasi qo‘yiladi, bu nuqtadan pastga etak chizig‘iga yetkazib to‘g‘ri chiziq tushirilib, andazaning shtrixlangan qismi kesib tashlanadi.

*Sarafanning oldi* (25-rasm, b). Yelka vitachkasi qiyib olinib, $SH_3$ nuqtadan pastga 6 sm o‘lchab, 6 nuqtasi qo‘yiladi; bu nuqtadan chapga, vitachka chizig‘igacha gorizontal chiziq chizilib yoqa o‘mizi shu chiziq izidan o‘yib olinadi.

*Cho‘ntak.* Bel chizig‘idan pastga oldingi o‘rta chiziq bo‘yicha 3 sm o‘lchab, 3 nuqtasi qo‘yiladi, bu nuqtadan chapga 8 sm o‘lchab 8 raqami qo‘yiladi, 8 nuqtasidan chapga 10 sm, pastga esa 11 sm o‘lchab, bu nuqtalar 10 va 11 raqamlari bilan belgilanadi. Cho‘ntakning belgilangan barcha nuqtalari rasmdagidek, o‘zaro tutashtiriladi.

*Cho‘ntak qopqog‘i.* 8 va 10 nuqtalaridan 4 sm pastga 4 raqamlari qo‘yiladi. Chap tomondagi 4 nuqtasidan 2 sm o‘ngga, o‘ng tomondagi 4 nuqtasidan esa 2 sm chapga 2 raqamlari qo‘yiladi 10, 2, 2 va 8 nuqtalari o‘zaro birin-ketin tutashtiriladi.

*Andazani gazlama ustiga qo‘yish* (25-pasm, v, g). Asosiy andaza belgilangan chiziqlar izidan kesilib, gazlama ustiga joylanadi. Bo‘yiga ikki buklangan gazlama taxiga andazaning orqadagi o‘rta chizig‘i to‘g‘ri keltiriladi. Choklar xaqi rasmda ko‘rsatilgan. Andazaning oldingi o‘rta chizig‘i ham gazlama taxiga to‘g‘ri keltiriladi.

**Aylanma skladkali yubka**

Aylanma skladkali yubkaning kengligini hisoblab chiqarish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Belning yarim aylanasi – 30 sm.
2. Sonning yarim aylanasi – 32 sm.
3. YUbkaning uzunligi – 25 sm.

Gazlamaning eni o‘lchab olingan son aylanasini 3 ga ko‘paytirib, unga 4 sm qo‘shgandan keyin hosil bo‘lgan songa [(32x2+4)X3=204 sm ga] teng bo‘lishi lozim.

Yubkaning uzunligi 31 sm (yubkaning o‘lchab olingan uzunligiga etakni qayirib bukish uchun 5 sm va belbog‘dagi chok haki 1 sm qo‘shiladi, ya’ni 25+5+1=31 sm) ga teng. Gazlamaning $^2/_3$ qismini skladkalar chuqurligi tashkil etadi.

Yubkani tikish enlarni bir-biriga ko‘klab ulashdan boshlanadi (eng oxirgi chok vaqtincha ulanmay turishi kerak, shunda yubkani butun eni bo‘yicha yoyib qo‘yish, skladkalar chuqurligi, ya’ni kengligini belgilab chiqish oson bo‘ladi). Keyin yubkaning zarur uzunligi o‘lchanib, etagi qayirib bukiladi. Yubka etagi ko‘rinmaydigan qaviq yoki baxmal qaviq solib tikiladi.

Shundan keyin yubka dazmollanadi va skladkalar solinadi.

**Maktabgacha yoshdagi bolaning kalta shimi.**

Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Belning yarim aylanasi - 28 sm.
2. Sonning yarim aylanasi - 28 sm.
3. Shim uzunligi - 30 sm.

**Andaza chizmasini chizish.** ***Shimning oldingi yarmini chizish.***

To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A harfi qo‘yiladi (26-rasm, a).

*Shimning uzunligi.* A nuqtadan pastga uzunligi 30 sm (shimning o‘lchangan uzunligi) chiziq tushirib uchiga N harfi qo‘yiladi. N nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizantal chiziq chiziladi.

*Og‘ chizig‘i.* A nuqtadan pastga 20 sm (son yarim aylanasiniig $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 6 sm qo‘shiladi, ya’ni 28:2+6 = 20 sm) o‘lchab, SH nuqta qo‘yiladi. SH nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

*Shimning og‘ chizig‘i bo‘yicha kengligi (qadam kengligi).* SH nuqtadan o‘ngga gorizontal chiziq bo‘yicha 19 sm (son yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 5 sm qo‘shiladi, ya’ni 28:2+5=19 sm) o‘lchab, $SH_1$ nuqta qo‘yiladi. $SH_1$ nuqta orqali yuqoriga va pastga vertikal chiziq chizilib, vertikal chiziqning yuqori gorizontal chiziqni kesib o‘tgan nuqtasi T bilan, pastki gorizontal chiziqni kesib o‘tgan nuqtasi $H_1$ bilan belgilanadi. $SH_1$ nuqtadan o‘ngga 2,8 sm (son yarim aylanasiniig $^1/_{10}$ qismi, ya’ni 28:10=2,8 sm) o‘lchab, $SH_2$ nuqta qo‘yiladi.



26-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalar kalta shimining andaza chizmasi: a–oldingi yarmi; b–orqa yarmi.

*Bant (tugma qadaladigan qopqoq) chizig‘i.* $SH_1$ nuqtadan yuqoriga 2,8 sm ($SH_1$ va $SH_2$ nuqtalar oralig‘iga teng masofa) o‘lchab, $SH_3$ nuqta qo‘yiladi. $SH_1$ nuqtadan. burchakni o‘rtasidan bo‘ladigan qilib, 2 sm uzunlikda chiziq chiqarilib, uchiga 2 nuqtasi qo‘yiladi. T, $SH_3$, 2 va $SH_2$ nuqtalar o‘zaro tutashtirilsa, shunda bant chizig‘i hosil bo‘ladi T va $SH_3$ nuqtalardan o‘ngga 3 sm dan o‘lchab, P va $P_1$ nuqtalar qo‘yiladi. T, P, $P_1$, $SH_3$ nuqtalar chiziq yordamida o‘zaro birin-ketin tutashtiriladi.

*Bel chizig‘i.* T nuqtadan chapga 17,5 sm (bel yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 3,5 sm qo‘shiladi, ya’ni 28:2+3,5=17,5 sm) o‘lchab, $T_1$ nuqta qo‘yiladi.

*Yon chiziq va planka.* A nuqtadan pastga 12 sm o‘lchab $P_2$ nuqta ko‘yiladi. $T_1$ va $P_2$ nuqtalardan chapga to‘g‘ri burchak hosil qilib 3 sm dan o‘lchab, $P_3$ va $P_4$ nuqtalar qo‘yiladi. $T_1$, $P_3$, $P_4$ va $P_2$ nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi.

Og‘ choki tushadigan chiziq va shim pochchasi. $SH_2$ nuqtadan $H_1$ nuqtaga chiziq tushirilib, bu chiziq pastga 2 sm uzaytirilib, uchiga $N_2$ nuqta qo‘yiladi. N nuqta $N_2$ nuqtaga tutashtiriladi, natijada og‘ chizig‘i va pocha chizig‘i hosil bo‘ladi.

*Shimning taxi (dazmollash chizig‘i).* SH $SH_1$ chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi. Bo‘lish nuqtasi orqali yuqoriga va pastga gorizontal chiziq bilan kesishguncha to‘g‘ri chiziq chizilib, bu chiziqning yuqori gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $T_2$ bilan belgilanadi.

*Beldagi vitachka.* $T_2$ nuqtadan 2 sm o‘ngga 2 nuqtasi qo‘yiladi. Vitachkaning uzunligi kerak bo‘lishiga qarab belgilanadi.

***Shimning orqa yarmini chizish (26-rasm, b).***

Shimning oldingi yarmini chizib, zarur nuqtalarni joy-joyiga qo‘yish va shu chizmaga asoslanib shimning orqa yarminn chizish kerak. Lekin shimning oldingi yarim andazasini chizganda vitachka va planka chiziqlari ko‘rsatilmaydi.

*Shimning og‘ chizig‘i bo‘yicha kengligi va o‘tirish chizig‘i.* Gorizontal chiziq $SH_2$ nuqtadan o‘ngga 5 sm (son yarim aylanasining $^1/_4$ qismidan barcha o‘lchamlar uchun 2 sm ayiriladi, ya’ni 28:4–2=5 sm) uzaytirilib, chiziq uchiga $SH_4$ nuqta qo‘yiladi.

*Og‘ choki tushadigan chiziq.* Pocha chizig‘i $N_2$ nuqtadan o‘ngga 3 sm uzaytirilib, chiziq uchiga $N_3$ nuqta qo‘yiladi. $N_3$ nuqta $SH_4$ nuqtaga tutashtiriladi. $N_3$ nuqtadan yuqoriga $SH_2$ $N_2$ chizig‘i (oldingi og‘ chizig‘i) ga teng masofani o‘lchab, $SH_5$ nuqta qo‘yiladi. $SH_5$ nuqta $SH_2$ nuqtaga tutashtiriladi.

T nuqtadan 4 sm chapga $T_3$ nuqta qo‘yiladi. $SH_3$ nuqta $T_3$ nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtirilib, punktir chiziq $T_3$ nuqtadan yuqoriga 4 sm uzaytirilib, $T_4$ nuqta qo‘yiladi. Punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linib, bo‘lish nuqtasidan 0,5 sm o‘ngga 0,5 nuqtasi qo‘yiladi. O‘tirish chizig‘i $T_4$, $T_3$, 0,5, $SH_3$, 2 va $SH_2$ nuqtalarini o‘zaro tutashtiradi.

*Bel chizig‘i.* Yuqori gorizontal chiziq A nuqtadan chapga istagancha uzaytiriladi. $T_3$ nuqtadan chapga 19,5 sm o‘lchab, $T_5$ nuqta qo‘yiladi. $T_5$ nuqta $T_4$ nuqtaga tutashtiriladi.

*Yon chiziq va planka.* Pastki gorizontal chiziq N nuqtadan chapga 2 sm uzaytirilib, $N_4$ nuqta qo‘yiladi. $N_4$ nuqta $T_5$ nuqtaga tutashtiriladi. $T_5$ nuqtadan pastga 12 sm o‘lchab, $P_5$ nuqta qo‘yiladi. $T_5$ va $P_5$ nuqtalardan chapga to‘g‘ri burchak hosil qilib 3 sm dan o‘lchab, $P_6$ va $P_7$ nuqtalar qo‘yiladi. $T_5$, $P_6$, $P_7$ va $\boldsymbol{P_5}$ nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi.

*Pocha chizig‘i.* $N_4$ va $N_3$ nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi.

*Beldagi vitachka.* Bel chizig‘ining $T_5$ va $T_4$ nuqtalar oralig‘i teng ikki qismga bo‘linadi. Bo‘lish puqtasi $T_6$ bilan belgilanadi. $T_6$ nuqtadan bel

chizig‘i bo‘yicha 1,5 sm o‘ngga va 1,5 sm chapga 1,5 nuqtalari qo‘yiladi. $T_6$ nuqtadan pastga 7 sm uzunlikda punktir chiziq tushiriladi. 1, 5, 7 va 1,5 nuqtalari o‘zaro tutashtiriladi.

## 2.3.BOLALAR KIYIMLARINI TEXNIK MODELLATIRISh (BOSh KIYIM, FARTUK, RO‘MOL VA BOShQALAR)

## BOLALAR QOLPOQCHALARINI BICHISH VA TIKISH.

### Oshpazlar qalpoqchasi tikish.



27-rasm.

Oshpazlik qalpoqchasi oq sidirg‘a gazlamadan tikiladi (27-rasm). U doimo toza va kraxmallangan, dazmollangan bo‘lishi kerak. Qalpoqchaning asosiy o‘lchovlari 2-jadvalda, hisoblash formulasi 3-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

| № | O‘lchov belgisi | O‘lchov nomi | Standart o‘lchov | Mening o‘lchovim |
|---|---|---|---|---|
| 1 | AA<br>BTA | Bosh aylanasi<br>Boshning to‘liq aylanasi | 54 | |

Har bir o‘quvchi orqa miya orqali peshonasi bilan santimetr lentasini o‘rab o‘z boshining o‘lchovini olishi hamda jadvaldagi mening o‘lchovim bo‘limiga yozib qo‘yishi kerak.

3 - jadval.

| № | Chizmadagi kesmalar | Hisoblash formulasi | Standart o‘lchov | Mening o‘lchovim |
|---|---|---|---|---|
| 1 | NN1 | (BA:2+1) to‘kislik xaqi BTA:2+1 | 28 | |
| 2 | NV | Qalpoqcha balandligi | 20 | 20 |
| 3 | VV1 | Doimiy o‘lchov | | |
| 4 | N1V1 | -NN1<br>-NV | | |

### Qalpoqcha andazasini chizish

1. Daftarga M 1 : 4 kilib chiziladi
2. Andazani bichishga tayyorlash
3. Buyumning nomini andazaga yozib qo‘yish (qalpoqcha).
4. Andaza necha qismdan iborat (1 dona).
5. Andaza o‘lchamini yozib chiqish (BA - 54 sm) BTA - 54 sm.
6. Andazada gazlamaning buklangan joyini aniqlash. (VV chizig‘i bo‘ylab).
7. Andazada gazlamaning bo‘ylama ip yo‘nalishini aniqlash (bo‘ylama ip yo‘nalishi strelka bilan ifodalanadi).
8. Andazada gazlamadan qoldirib bichiladigan chok xaqini yozib chiqish, kalpoqchaning ikkala yonidan I sm, pastki qismidan 2,5-3 sm qoldirib bichiladi.

Tepasi buklanadi.

**Qalpoqchani tikish ishining tartibi:**

1. 1 sm chok kengligidan yon qirqimini ko‘klab chiqish.
2. Ko‘klangan chokdan 0,1 sm kenglikda mashinada baxyaqator tikib chiqish.
3. Qirqimini yo‘rmab tikish. Ko‘klangan qaviqqatorni so‘kib olish.
4. Qalpoqchaning pastki qismini 2,5 sm kenglikda ichiga qayirib 0,1 sm mashinada baxyaqator yurg‘izish. Yuqori qismi buklangan xolicha, ya’ni yaxlitligicha qoladi. Ichiga bukib 0,1 sm mashinada baxyaqator tikiladi.

**Kashshof qalpoqchasi.**

Bunday qalpoqchaning asosiy o‘lchovlari 4-jadvalda; uning andazasi berilgan.

4-jadval.

| № | O‘lchovning belgisi | O‘lchovning nomi | Standart o‘lchov | Mening o‘lchovim |
|---|---|---|---|---|
| 1 | BA | Bosh aylanasi | 54 | |
| | BTA | Boshning to‘liq aylanasi. | | |

Har bir o‘quvchi bir-birining boshini o‘lchab, o‘z boshi aylanasi qanchaligini asosiy o‘lchovlar jadvalidan mening o‘lchovim bo‘limiga yozib qo‘yadi.

Xisoblash formulasi jadvalidagi formulaga qo‘yib, o‘zining qiymatini xisoblab chiqaradi va xisoblash jadvalidagi mening o‘lchovim bo‘limini to‘ldiradi.

Kashshof qalpoqchasining andazasini chizish. Daftaringizga M 1:4 qilib xisoblash jadvalidagi qiymat masshtabidan foydalanib chiziladi.



28-rasm. Fartukning andaza chizmasi: a–yuqori qismi; b–pastki qismi.

**Fartuk va andoza tayyorlash. Fartuk.** Andaza chizmasini chizish uchun bel yarim aylanasining o‘lchovini olish kerak (misolimizda bu o‘lchov 38 sm ga teng); fartuk bog‘ichlairining uzunligini aniqlash uchun ham shu o‘lchov kerak bo‘ladi.

Andaza chizmasini chizish. *Fartukning yuqori qismi.* To‘g‘ri burchak chizilib,

burchak uchiga A harfi qo‘yiladi (28-rasm, a). A nuqtadan o‘ngga 29 sm uzunlikda chiziq tortib, P nuqta qo‘yiladi. Undan pastga ixtiyoriy uzunlikda to‘g‘ri chiziq tushiriladi va A nuqtadan pastga shu chiziq bo‘yicha 41 sm o‘lchab, $P_1$ nuqta qo‘yiladi. $P_1$ nuqtadan o‘ngga gorizontal chiziq chizilib, uning vertikal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $P_2$ bilan belgilanadi. So‘ngra A nuqtadan pastga 11 sm o‘lchab, $P_3$ nuqta qo‘yiladi. $P_2$ nuqtadan chapga 8 sm o‘lchab, $G_4$ nuqta qo‘yilib, $P_3$ nuqta $P_4$ nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi va punktir chiziq teng uch qismga bo‘linadi; yuqori bo‘lish nuqtasidan o‘ngga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib, 3,5 sm o‘lchab, 3,5 raqami, pastki bo‘lish nuqtasidan o‘ngga 2 sm o‘lchab, 2 raqami qo‘yiladi. $P_3$ nuqta $P_4$ nuqtaga 3,5 va 2 nuqtalari orqali egri chiziq chiziladi.

$P_2$ nuqtadan yuqoriga 5 sm o‘lchab. $P_5$ nuqtasi qo‘yiladi. $P_4$ nuqta $P_5$ nuqtaga tutashtirilib, P nuqtadan chapga 8 sm o‘lchanadi va $P_6$ nuqtasi qo‘yiladi. $P_6$ nuqtadan pastga 3 sm o‘lchab, $P_7$ nuqta qo‘yiladi. A nuqta $P_7$ nuqtaga rasmdagidek, egri chiziq yordamida tutashtiriladi. $P_7$ nuqta $P_5$ nuqtaga punktir chiziq bilan tutashtirilib, punktir chiziq teng uch qismga bo‘linadi, yuqori bo‘lish nuqtasidan chapga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib, 2,5 sm o‘lchanadi va 2,5 raqami qo‘yiladi, pastki bo‘lish nuqtasidan chapga 2 sm o‘lchab, 2 raqami qo‘yiladi. P7 nuqta P5 nuqtaga 2,5 va 2 nuqtalari orqali botiq egri chiziq yordamida rasmdagidek tutashtiriladi.



29-rasm.

Fartukning pastki (etak) qismi. To‘g‘ri burchak chizib, burchak uchiga A harfi qo‘yiladi (28-rasm, b). A nuqtadan o‘ngga 39 sm uzunlikda gorizontal chiziq chizib, chiziq uchiga P nuqta qo‘yiladi. P nuqtadan pastga nxtiyoriy uzunlikda va A nuqtadan pastga 55 sm uzunlikda to‘g‘ri chiziq tushirilib, chiziq uchiga P1 nuqta qo‘yiladi. P1 nuqtadan o‘ngga gorizontal chiziq chizilib, uning vertikal chiziq bilan kesishgan nuqtasi P2 bilan belgilanadi.

A nuqtadan o‘ngga chiziq bo‘yicha 12 sm o‘lchab, P3 nuqta qo‘yiladi. P nuqtadan pastga 12 sm o‘lchab, P4 nuqta, P4 nuqtadan chapga 11 sm o‘lchab, P5 nuqta qo‘yiladi. P3 nuqta P5 nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtirilib, punktir chiziq teng uch qismga bo‘linadi, yuqori bo‘lish nuqtasidan pastga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib 5 sm o‘lchanadi va 5 raqami bilan belgilanadi. Pastki bo‘lish nuqtasidan pastga esa 4 sm o‘lchab, 4 raqami qo‘yiladi. P3 nukta P5 nuqtaga 5 va 4 nuqtalari orqali botiq egri chiziq yordamida ulanadi.

P2 nuqtadan yuqoriga 10 sm o‘lchangach, P6 nuqta qo‘yilib, P5 nuqta P6 nuqtaga tutashtiriladi. P1 nuqta bilan P6 nuqta ham egri chiziq yordamida o‘zaro tutashtiriladi.

Cho‘ntak. P6 nuqtadan yuqoriga P5P6 chizig‘i bo‘yicha 15 sm o‘lchab, 15 raqami qo‘yiladi va P6 nuqtadan chapga P6P1 chizig‘i bo‘yicha 19 sm o‘lchab, 19 raqami yoziladi; 19 nuqtasidan yuqoriga 15 sm o‘lchab, 15 raqami yoziladi, 15 va 15 nuqtalari o‘zaro, ulanadi. Ikkala cho‘ntakni ham rasmda ko‘rsatilganidek, jiyak (tesyomka) bilan bezash mumkin.

**Andazani bichish va tayyorlash.**

1. Kiyim nomini andazaga yozib qo‘yish.
2. Andazaga kiyim o‘lchamini yozib chiqish.
3. Andazagi qismlar sonini ko‘rsatish.
4. Andazada gazlamaning bo‘ylama ip yo‘nalishini aniqlash.
5. Andazaga fason chiziqlarini tushirish.
6. Andazada gazlamadan qoldirib bichiladigan chok miqdorini yozib chiqish.

**Fartuk chizmasi uchun o‘lchov olish (5-jadval, 29-rasm).**

5-jadval.

| O‘lchov nomi | O‘lchov belgisi | O‘lchov olish | O‘lchovni belgilash |
|---|---|---|---|
| Ko‘krak qismning uzunligi | KQU | Beldan yuqoriga xohlagancha uzunlikda | Fartuk ko‘krak qismining uzunligini aniqlash |
| Fartuk (kiyim) uzunligi | KU | Beldan pastga xohlagancha uzunlikda | Fartuk etagining uzunligini aniqlash |
| Bel aylanasi | Bel A yarmi | Belning eng ixcham joyi | Belbog‘ uzunligini aniqlash |
| Bo‘ksa aylanasi | BA yarmi | Bo‘ksa aylanasi gorizontalda | Fartukning etak qismi kengligini aniqlash |

O‘lchovni to‘g‘ri olish uchun gavdaning asosiy chiziqlari o‘rinlari, bo‘yin chizig‘i, ko‘krak chizig‘i, bel chizig‘i, bo‘ksa chizig‘i, etak chizig‘i aniqlanadi. Bu chiziqlarning ustiga kenglik va aylana o‘lchovlarining yarimi qo‘yiladi. Chunki andazaning yarmi chiziladi. Bu chiziqlar gorizontal yo‘nalishda bo‘ladi uzunlik o‘lchovlari vertikal ko‘rinishdagi chiziqlar ustiga qo‘yiladi.



30-rasm.

**Bu o‘lchovlar esa to‘liq o‘lchab qo‘yiladi.**

1. O‘lchov olishda quyidagilarga amal qilinadi.
2. O‘lchov gavdaning o‘ng tomonidan belgilanadi.
3. Belning ixcham joyidan bolbog‘ bilan bog‘lanadi.
4. O‘lchov olinayotganda gavdani to‘g‘ri bush tutib turish kerak, aks holda o‘lchov noto‘g‘ri chiqadi.


31-rasm.

O‘lchov santimetr lentasi bilan amalga oshiriladi, uni tortib yoki bo‘sh qilib o‘lchash mumkin emas. Uzunlikda o‘lchovlari to‘liq yoziladi. Kenglik va aylana o‘lchovlarining esa yarmi yoziladi. O‘lchov olish 30-rasmda ko‘rsatilgan.

**Fartuk chizmasini chizish.**

Fartuk bir necha kismlardan, ya’ni ko‘krak qismi, bog‘ichi, belbog‘i, etagi va cho‘ntagidan iborat bo‘lib, bular alohida-alohida tayyorlanib, so‘ngra o‘zaro biriktiriladi. Quyida ko‘krak qismli va ko‘krak qismsiz, fartuk chizmalarini chizish bilai tanishasiz. Har ikkala fartukning ham o‘lchami 36, bo‘yi 134 sm.

**Ko‘krak qismli fartuk chizmasini chizish.**

***Asbob va moslamalar:*** masshtabli chizg‘ich, burchakli chizg‘ich, qalam – TM va 2 M, o‘chirg‘ich, albom.

Fartukning chizmasi 31-rasmda, o‘lchovi 6-javdalda, fartuk qismlarining o‘lchovlari 7-javdalda berilgan.

6-jadval.

| № | O‘lchovlar belgism | O‘lchov nomlari | Standart o‘lchov | Mening o‘lchovim |
|---|---|---|---|---|
| 1 | KQU | Ko‘krak qismining uzunligi | 15 sm | |
| 2 | KU | Fartukning uzunligi | 35 sm | |
| 3 | Bel A yarmi | Bel aylanasining yarmi | 31 sm | |
| 4 | BA yarmi | Bo‘ksa aylanasining yarmi | 40 sm | |

7-jadval.

| № | Chizmadagi kesma | Chizish tartibi kesmaning nomi | Hisoblash formulasi | Sonli |
|---|---|---|---|---|
| To‘rning o‘lchovlari | | | | |
| 1 | V | Nuqta V da burchak chizish | - | - |
| 2 | VT | Ko‘krak qismining uzunligi KQU | 15 | |
| 3 | TN | Fartukning etagining uzunligi - KU | 35 | |
| 4 | - | T va N nuqtasidan yotiq chiziqlar o‘tkaziladi | | |
| 5 | VV1 | Fartukning kengligi | BA yar:2+6 | 40:2+6-26 |
| 6 | V1N1 | Nuqta V dan etakkacha tik chiziq tushiramiz | - | - |
| Ko‘krak qismining o‘lchovlari | | | | |
| 7 | VV2 | Yuqorisining kengligi | | 7 |
| 8 | TT2 | Pastining kengligi | VV2+1,5 | 7+1,5-8,5 |
| 9 | V2T2 | Nuqta V2 va T2 birlashtiriladi | - | - |
| Cho‘ntakning o‘lchovlari | | | | |
| 10 | TK | Bel chizig‘idan cho‘ntakkacha | - | 7 |
| 11 | - | Nuqta K dan yotiq chiziq o‘tkaziladi | - | - |
| 12 | KK1 | Oldi o‘rtasidan cho‘ntakkacha | | - |
| 13 | K1K2-K1K3 | Cho‘ntakning kengligi | | 7 |
| 14 | K3K4-K2K4 | Cho‘ntakni chizib tugatish | | 14 |
| 15 | - | Chizmaning asosiy chiziqlarini ustidan yurgizish | | – |
| Belbog‘ chizmasini chizish | | | | |
| 16 | PP1 | Belbog‘ kengligi | | 5 |
| 17 | PP2 | Belbog‘ uzunligi | | 31+30-61 |
| 18 | PP2P3P1 | Chizmani tugatish va ustidan asosiy chiziq o‘tkazish | | |
| Bog‘ich chizmasini chizish | | | | |
| 19 | BB1 | Bog‘ichning eni | | 5 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 20 | BB2 | Bog‘ichning uzunligi | | 50 |
| 21 | BB2B3B1 | Chizmani tugatish va ustidan asosiy chiziq o‘tkazish | | |

**Ko‘krak qismsiz fartuk chizmasini chizish.**



32-rasm.

***Asbob va moslamalar:*** masshtabli chizg‘ich, burchakli chizg‘ich, qalam – TM va 2 M, o‘chirg‘ich, albom.

Ko‘krak qismsiz fartukning o‘lchovlari: 1. KU – 35 sm. 2. Bel A yarmi – 31 sm. 3. BAyarmi – 40 sm.

Bu fartukning chizmasi 32-rasmda, fartuk qismlarining o‘lchovlari 8-jadvalda berilgan.

8-jadval

| № | Chizmadagi kesma | Chizish tartibi kesmaning nomi | Hisoblash formulasi | Sonli |
|---|---|---|---|---|
| | | Turning o‘lchovlari | | |
| 1 | T | Nuqta T da burchak chizish | - | - |
| 2 | TN | Fartukming uzunligi - KU | | 35 |
| 3 | TT1 | Fartukning kengligi | | 40:2+6-26 |
| 4 | THH1T1 | To‘g‘ri to‘rtburchak chizish | | - |
| | | Cho‘ntak chizmasining o‘lchamlari | | |
| 5 | TK | Bel chizig‘idan cho‘ntakkacha | | 7 |
| 6 | - | Nuqta K dan yotiq chiziq o‘tkazish | | 7 |
| 7 | KK1 | Old o‘rtasidan cho‘ntakkacha | | 7 |
| 8 | K1K2-K1K3 | Cho‘ntakni chizib tugatiщ, ustidan asosiy chiziq o‘tkazish | | |
| | | Belbog‘ chizmasining o‘lchovlari | | |
| 9 | PP1 | Belbog‘ning eni | | 5 |
| 10 | PP2 | Belbog‘ning uzunligi | Bel Ayar+30 | 31+30-61 |
| 11 | PP2P3P1 | Chizib tugatish va ustidan asosiy chiziq o‘tkazish | | |

**Fartuk uchun gazlama tanlash.** Kiyimlar qaysi vaqtda kiyilishiga qarab har xil gazlamardan tikiladi. Umuman fartuk va ro‘molni tikishda ochiq rangli yoki mayda gulli zig‘ir yoki paxta tolasidan to‘qilgan gazlamalar tanlanadi. Bunday gazlamalarning tashqi ko‘rinishi bo‘lishidan tashqari, ular oson yuviladi, yaxshi dazmollanadi. Shuning uchun gazlamani tanlashda uning texnologik xususiyatlariga ham e’tibor berish kerak. To‘qimachilik sanoatida eni har xil (eni 60 santimetrdan bo‘yi 60 santimetrgacha) gazlamalar ishlab chiqarilmoqda. Shuning uchun kiyimga ketadigan gazlama miqdorini aniqlashda uning eni hisobga olinadi.

**Fartuk uchun fason tanlash.** Fason gazlamaga, uning bajaradigan ishiga, rangiga faslga, yoshga qarab tanlanadi. Fartuk va ro‘molni tayyorlashda ularga turli

usulda ishlov berish va tikish mumkin.

***Fartuk 1***. Ko‘krak qismli, jiyak bilan bezatilgan. Ko‘krak qismiga cho‘ntak va etak qismiga jiyak tikilgan.

***Fartuk 2***. Ko‘krak qismli, kashta bilan bezatilgan. Yon qismi, etagi, yopiq buklov chokida tikilib, ustidan bezak baxya qatori berilgan.

***Fartuk 3.*** Ko‘krak qismsiz, katta cho‘ntagi applikatsiya bilan bezatilgan. Cho‘ntak usti, yoni, etak qismi yopiq buklov baxyaqatorda tikiladi, ustidan bezak baxyaqator beriladi.

Fartukni tayyorlash texnologiyasi (ish rejasi): Bichish. Bichilgan buyumning qismlarini tikishga tayyorlash. Fartukning qismlarini tikish. Fartukning qismlarini birlashtirish va bezash. Fartukka oxirgi ishlov berish.

**Fartukni bichish.** ***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, bur, to‘g‘nag‘ich, fartuk va ro‘mol andazasi, gazlama, sm lenta, dazmol, qaychi.

***Gazlamani bichishga tayyorlash.*** Gazlamaning sifatini: dog‘lari, ipi uzilgan (yirtiq teshik) joylari va boshqa kamchiliklari bor - yo‘qligini tekshirish; gazlamaning enini va bo‘yini o‘lchash (andazani tejamkorlik bilan joylashtirish uchun; gazlamaning guliga, bo‘ylama ipining yunalishiga qarab o‘ngi va teskarisini aniqlash; gazlamani dazmollash; uzunligi bo‘yicha milkini qirqib olib tashlash; belbog‘ning kengligini qo‘yib (7 sm) bo‘ylama ipi bo‘yicha va gazlamani o‘ng tomonidan bur bilan chizib chiqish; gazlamaning o‘ngini o‘ngiga qaratib, bur bilan chizilgan joyiga tushiriladi va tug‘nag‘ich bilan qadab qo‘yish; gazlamaning ko‘ndalang (en) tomonini tekislab qirqish chizg‘ich yordamida bur bilan chizish va ortiqchasini qirqib tashlash).

**Bichish.**

1. Fartukning etak qismi andazasini gazlamaning buklangan joyiga ko‘rsatilgan chok haqini hisobga olib joylashtirish. Andaza atrofini chizib chiqish.
2. Etak qismidan, yon choki va bel qismiga ishlov berish (tikish) uchun chok xakini qoldirib bur bilan chizib chiqish.
3. Fartuk andazasining qolgan hamma qismlarini gazlamaga ketma-ket joylashtiriladi. Ularning chetidan chiziladi va chok hakini qoldirib bur bilan chizib chiqish.
4. Andaza qismlarining gazlamaga to‘g‘ri joylashtirilganini tekshirish: bo‘ylama ipning yo‘nalishi, gullari va andaza qismidagi chok hakini to‘g‘ri tushirish.
5. Gazlamaning bir qavatini buklangan joyigacha qirqish va to‘g‘rilab, ustiga ro‘mol andazasini qo‘yish. Chok xaqlarini qoldirib andazaning atrofidan chizib chiqish.
6. Qoldirilgan chok haqi bo‘yicha andazaning qismlarini qirqish, ya’ni bichish, fartukning etagi, ko‘krak qismi, chuntak, boshchi ikki qavatli, belbog‘i bilan ro‘mol esa bir qavatli.
7. Andazani bichiq bilan birlashtirib turgan tug‘nag‘ichlarni sug‘urib andazani ajratib olish va to‘g‘nag‘ichlarni bichilgan ikki qavatli qismlarga qadab qo‘yish.

**Fartukning qismlarini tikishga tayyorlash:**

***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, bichiq.

***Ishni bajarish tartibi:*** Hamma qismlarning oʻrtasiga koʻklab, qaviqqator solish. Fartukning etak qismiga choʻntak oʻrnini belgilash uchun salqi qaviqqator solish. Salqi chokning oʻrtasini qirqish - choʻntak oʻrnini belgilash. Belbogʻning oʻrtasidan ikki tomonga nazorat chiziq oʻtkazish. Belgi va salqi choklarining toʻgʻriligini tekshirish.

Nazorat chiziq aniqligini tekshirish.

**Oʻgʻil bolalar fartugi.** Oʻgʻil bolalar taxta va temirlar bilan ishlaydilar. Shuni hisobga olib, fartuk zich toʻqilgan (qalin), toʻq rangli gazlamadan tikilsa, yaxshiroq boʻladi. Uning asosiy oʻlchovlari 9-jadvalda, hisoblash formulasi 10-jadvalda va andazasi 33-rasmda berilgan.

9-jadval.

| № | Oʻlchov belgisi | Oʻlchovning nomi | Standart oʻlchov | Mening oʻlchovim |
|---|---|---|---|---|
| 1. | KKU | Fartukning koʻkrakdan etakkacha uzunligi | 60 | |
| 2. | KB | Koʻkrakdan belgacha uzunligi | 25 | |
| 3. | KAyar | Koʻkrak aylanasining yarmi | 42 | |

10-jadval

| Chizmadagi kesmalar | Hisoblash formulasi | Standart oʻlchov | Mening oʻlchovim |
|---|---|---|---|
| AN | KU | 60 | |
| AT | KB koʻkrakdan belgacha uzunligi | 25 | |
| AV | Doimiy oʻlchov | 9 | 9 |
| NN1-N2N3 | Doimiy oʻlchov (choʻntak uzunligi) | 18 | 18 |
| TT1-NN2<br>V1O | KA yarmi: 4+20<br>Doimiy oʻlchov (burchak bissektrissasi) | 30,5 42 | 8 |

**Andazani bichishga tayyorlash:**



33-rasm.




34-rasm.




35-rasm.

1. Andazaning nomini yozish (ish fartugi).

2. Andaza necha qismdan iboratligini yozish (1 dona).
3. Andazada gazlamaning buklangan joyini belgilash (buklovi).
4. Andazada gazlamadagi bo‘y iplar yo‘nalshshni aniqlash.
5. Andazada gazlamadan qoldirib bichiladigan chok haqini yozib (etagi, yon chizig‘i, ko‘krak qismidan 2,5 sm, ko‘krakdan belgacha bo‘lgani yig‘indisida 1sm) (34-rasm).

**Ish fartugini bichish**.

Bog‘ich va ko‘krakdan o‘yig‘igacha jiyak qo‘yib tikiladi, 2,5 metr jiyak (35-rasm). 11-jadvalda o‘g‘il bolalar fartugini tikish bo‘yicha bajariladigan ishlar qoidasi ifodalangan.

11-jadval

| № | Bajarilgan ishlar | Qo‘llanadigan choklar | Bajariladigan ishga qo‘yidagi talablar |
|---|---|---|---|
| 1. | Ko‘klab tikish | Ko‘klash qaviqqatorlari | Uzunligi 0,7....1sm |
| 2. | Tepasini tikish | Bostirma chok | Tepa qismi qiyqimining o‘ng tomonini 2,5 sm kenglikda qayirib ko‘klab chiqish. Ichiga 1sm qayirib 0,1...0,2sm kenglikda baxyaqator bilan bostirib chiqish |
| 3. | Etagini ishlash | Bostirma chok | Fartukning etagini qiyqimini teskarisiga 2,5sm qayirib ko‘klab chiqish Ichiga1sm qayirib 0,1....0,2 sm kenglikda mashinada bostirib tikish 18sm kenglikda cho‘ntakni o‘ng tomonga qayirib ko‘klangan qaviqqatorni ustiga to‘g‘irlab qo‘yish. Markazdan o‘ng va chap tomonga 10 sm dan belgilab mashinada bahyaqator tikib chiqish chokni tepa va pastki qismini puxtalash. |
| 4. | Yon tomonini ishlash | Bostirma chok | Yon tomonlarini qiyvimini 2,5 sm kenglikda teskari tomonga qayirib ko‘klab chiqish 1 sm ichiga qayirib 0,1 -0,2 sm kenglikda mashinada bostirib tikish. Pastki burchagini puxtalash. |
| 5. | Belgacha yon tomonida ishlash | Ustidan brstirib tikish | Qiyqimini o‘ng tomonga 0,5 - 0,7 sm qayirib tikish ustiga jiyak bog‘ichini bostirib chiqish 0,1 – 0,2 sm kengligida mashinada bostirib tikish. Jiyak uchini boylash uchun 40 sm qoldirib tikish. |
| 6. | Pardozlash | | Qo‘l chokidan qolgan iplarni olib tashlash va dazmollash. |

**O‘zingiz bajaring.**

Sidirg‘a gazlamadan tikilgan fartukka gulli gazlamadan bezaklar tiking. Gulli gazlamadan cho‘ntak, belbog‘, bog‘ich tayyorlang. Ko‘krak qismiga ikki qavatli baxyaqator tiking. Cho‘ntakni gulli gazlamadan fartukning etak qismiga tikiladi. Etakning teskari tomoniga cho‘ntakning o‘ng tomonini qo‘yib 1 sm li chokda tikiladi, chokning etak tomoniga qaratib dazmollanadi va o‘ng tomonga aylantiriladi. Gulli gazlamaning ikkinchi tomoniga 1sm kenglikda yopiq buklov choklari tikiladi. Etakning kengligi teng 3 qismga bo‘lib, mashina chokida ikki qayta tikiladi. Choklari tikilib dazmollanadi. Bel qismiga bo‘rmalar o‘rniga mayda tahlama qilinadi.

**Bezak jiyak bilan tikiladigan fartuklar**. Variant yon choki, ko‘krakpechi, etak qismi bostirma choki bilan tikiladi. Ko‘krak qismining yuqorisi va cho‘ntagi bezak jiyak bilan tikiladi. Fartuk etak qismi yuqorisi ko‘krak qismining pasti jiyak yordamida biriktiriladi. Belbog‘ ham jiyakdan olinadi. Bog‘ichi ham shu jiyakdan qilinadi. 36-rasm.

Variant ko‘krak qismining ustki tomoni yopiq buklov choki bilan tikiladi. 2,5 sm teskari tomonga qaytariladi. Ko‘krak qismini yon tomoni bog‘ich bilan birgalikda bezak jiyagiga tikiladi. Belbog‘i ham bezak jiyagidan tikilib tayyorlanadi. 37-rasm

Variant ko‘krak qismi butun bichilgan, cho‘ntakli, bog‘ichi belbog‘i bezak jiyagidan 38-rasm.



36-rasm.



37-rasm.



38-rasm.

**Fartuk tikish. (Amaliy ish)**

***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, bog‘ichning bichig‘i, nina, ip, qaychi, angishvona.

***Ishni bajarish tartibi:***

1. Gazlamaning o‘ngini o‘ngiga qaratib, bo‘ylamasiga ikkita buklanadi va to‘g‘nag‘ichlar qadab qo‘yiladi.
2. Bog‘ichning ikki tomoni chetlaridan 0,8 sm qoldirib ko‘klab chiqiladi va to‘g‘nag‘ichlar olinadi.
3. Bog‘ichning chetidan 0,7 sm qoldirib baxyaqator tikiladi. Burchagini chokdan 0,2 sm qoldirib qirqib tashlanadi va ko‘klash qaviqqatori olib tashlanadi.
4. Bog‘ichni o‘ng tomonga ag‘dariladi, choklari tekislanadi va chetidan 0,2 sm qoldirib ko‘klab chiqiladi.
5. Bog‘ichni dazmollanadi, qo‘l choklari so‘kib tashlanadi.

***O‘z-o‘zini tekshirish:***

1. Bog‘ichning bo‘yi barobar enini tekshirish.
2. Burchaklarining yaxshi o‘chirilganini aniqlash.
3. Bog‘ichning yaxshi dazmol qilinganini ko‘zdan kechirish.

**Belbog‘ni tikish (39-40-rasm).**

***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, belbog‘ning bichig‘i.

***Ishni bajarish tartibi:***

Gazlamaning o‘ngini o‘ngiga qaratib, bo‘ylamasiga bukiladi va ikki tomoni bo‘yiga 35 sm dan ko‘klab tikiladi.

Belbog‘ning ikki tomoni chetidan 1 sm qoldirib baxyaqator tikiladi.

Burchagini chokdan 0,2 sm qoldirib qirqib tashlanadi va ko‘klangan choki so‘kib olinadi.

Belbog‘i o‘ngiga ag‘darilib, choklari tekislanadi va chetdan 0,2sm qoldirib

ko‘klab qaviqator tikib chiqiladi.

Iplarni sukib bostirib dazmollanadi.




39-rasm.




40-rasm.

***O‘z-o‘zini tekshirish.***

1. Belbog‘ni ikki tomonini ening bir xilligi aniqlanadi.
2. Burchaklarning to‘g‘ri chiqarilganligi tekshiriladi.
3. Sifati, dazmollanganligi ko‘riladi.

**Amaliy ish.**

**Fartuk ko‘krak qismini tikish. Ko‘krak qismini tikish.**

***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, ko‘krak qismining bichig‘i, tayyor bog‘ich, bezash uchun jiyak.

***Ishni bajarish tartibi:*** Ko‘krak qismining yonlari bukilash - ichiga 0,5 sm buklab va yana 1 sm ichiga qayirib, qo‘lda ko‘klanadi va baxyaqatorda tikiladi. Ko‘klash qaviqqatori so‘kib olinib, bostirib dazmollanadi. Teskari tomoni chetidan 1sm qoldirib bur bilan chiziladi. Tayyorlangan bog‘ichni ko‘krak qismning teskari tomoniga qo‘yib to‘g‘nag‘ich bilan qadab qo‘yiladi va tikiladi (41-rasm).

Teskari tomondan belgalangan chiziqning ustiga jiyakning chetini quyib, to‘g‘nag‘ich qadaladi va ko‘klab qaviqqator tikiladi. To‘g‘nag‘ichni olib, tasmaning chetidan 0,1-0,2 sm qoldirib mashinada baxyaqator bostirib tikiladi. Chokning oxiri mustahkamlanadi. Ko‘klangan qaviqqatorni so‘kib, jiyakning chetlari to‘g‘rilinadi. Jiyakni o‘ng tomoniga ag‘darib, ko‘klab qaviqqator qo‘yiladi mustahkamlanadi. Ko‘klangan choki so‘kib tashlanadi. Jiyakning oxirini mayda qiyalama chok bilan tikib chiqiladi va tayyor ko‘krak qismni bostirib dazmollanadi (42-rasm).




41-rasm.



42-rasm.

**Fartukning etagini tikish.**

***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, fartukning etak qismi, bezash jiyagi, igna, ip, angishvona, tikuv mashinasi.

***Ishni bajarish tartibi:***

1. Fartukning yon qiyqimlarini bukib tikiladi. Chokning kengligi 1 sm.
2. Fartuk etagining pastiga teskari tomondan bezak jiyak qo‘yiladi.
3. Fartuk etak kismining yuqori tomoniga qo‘lda qaviqqator yoki mashinada baxyaqator chokida burma uchun ikki qator parallel choklar solinadi. (43-rasm)

**Qoplama cho‘ntakni tikish.**

***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, cho‘ntakning bichig‘i, bezash jiyagi.




43-rasm.

***Ishni bajarish tartibi:***

1. Chuntak teskarisining yuqori tomoniga 1sm qoldirib bur bilan chiziladi.
2. Belgilangan joyga jiyakni to‘g‘nag‘ich bilan qadab qo‘yiladi va ko‘klab qaviqqator tikiladi.
3. To‘g‘nag‘ichni olib, chetidan 0,1-0,2 qoldirib mashinada baxyaqator bostirib tikiladi.
4. Ko‘klash qaviqqatori so‘kib tashlanadi. Jiyakni o‘ng tomonga o‘giriladi va ko‘klab chiqiladi (44-rasm).
5. Jiyakni chetidan 0,1-0,2 sm qoldirib mashinada baxyaqator bostirib tikiladi. Ko‘klash qavikkatori sukib tashlanadi. Dazmollanadi.
6. Cho‘ntakning qiyqimlaridan 1 sm teskari tomonga buklanadi. Bostirib dazmollanadi va ochib qo‘yiladi.
7. Burchaklariga rasmda ko‘rsatilgandek ishlov beriladi. Chetlari qayiriladi va ko‘klab qaviqqator tikib chiqiladi.
8. Cho‘ntak dazmollanadi (45-rasm).




44-rasm.



45-rasm.

**O‘z-o‘zini tekshirish:**

1. Kengligi va buklov chokining sifatini ko‘rib chiqish.
2. Choklarning tekisligini aniqlash.
3. Burma choki tekis, to‘g‘ri solinganini aniqlash.
4. Dazmollash sifatini tekshirish.

**Savol va topshiriqlar**:

1. Fartukning qaysi qismlariga buklov choki solish mumkin?
2. Yon choklari qanday bajariladi?
3. Nima uchun xamma chokdan keyin dazmollanadi?

## Amaliy ish.

**Fartuka oxirgi ishlov berish**.

**Fartukning qismlarini birlashtirish.**

***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, fartukning tayyor bo‘lgan qismlari. ***Ishni bajarish tartibi:***

1. Tayyor cho‘ntakni belgilangan joyiga qo‘yib, to‘g‘nag‘ich bilan qadab qo‘yiladi.
2. Cho‘ntakni ko‘klab chiqib, to‘g‘nag‘ichni va salqi qaviqqatorni so‘kib olinadi.
3. Cho‘ntakning chetidan 0,1-0,2 sm qoldirib mashinada baxyaqator bostirib tikiladi, yuqori burchagini uchburchak shaklida mustahkamlab tikiladi.
4. Cho‘ntakning ustidan bostirib dazmollanadi (46-rasm).
5. Fartukning etak qismini teskari tomoniga, ko‘krak qismining teskari tomonini o‘rtadagi qo‘l choklarini bir-biriga tushirib, chetlarini tekislab to‘g‘nag‘ich qadaladi (47-rasm).
6. Ko‘krak qismining ustiga belbog‘ni o‘ng tomonining o‘rtadagi qo‘l choklarini bir-biriga tushirib, chetlarini to‘g‘rilab qo‘yiladi.
7. Etak qismining yon tomonini, belbog‘iga belgilangan joyiga to‘g‘nag‘ich bilan hamma qismlarini qo‘shib qadab qo‘yiladi. Etak qismini belgilangan joyiga qarab qilinadi va hamma qismlarini qo‘shib, burmaga solingan chokni o‘rtasidan ko‘klab qaviqqator tikib chiqiladi va to‘g‘nag‘ichlar olinadi.
8. Ko‘klash qaviqqatori ustidan fartukning etak tomoni chetidan 1sm qoldirib, bostirma baxyaqator tikiladi.
9. Ko‘klash qaviqqatori so‘kib tashlanadi. Belbog‘ni aylantirib, o‘ng tomondan choklari tekislanadi.
10. Belbog‘ning ochiq tomoni chetidan 1sm ichiga buklanadi, to‘g‘nag‘ich qadab chiqiladi. Buklangan joyining chetidan 0,1-0,2 sm qoldirib ko‘klab chiqiladi va mashina baxyaqatorida bostirib tikiladi. Ko‘klash qaviqqatori olib tashlanadi.


46-rasm.


47-rasm.

**Fartukka oxirgi ishlov berish**

1. Vaqtinchalik ko‘klash qaviqqatori so‘kib tashlanadi.
2. Tayyor fartuk yaxshilab dazmollanadi va taxlanadi.

**O‘z-o‘zini tekshirish:**

1. Tayyor fartukning tashqi ko‘rinishi tanlangan modaga mosligi.
2. Bir xil qismlarining simmetrik tushishi.
3. Bezak jiyaklarining bir xil bo‘lishi.
4. Dazmollashning sifati.

**Savol va topshiriqlar**:

1. Fartukning qaysi qismlariga bir xil ishlov beriladi?
2. Qaysi choklar qismlarni vaqtincha birlashtirish uchun ishlatiladi?


48-rasm.

3. Fartukning qismlari qaysi chok bilan tikiladi?
4. Fartukning maketini rangli qog‘ozdan yasang.
5. Fartuk uchun ishlatiladigan bezak turlarini yozing.

**Ro‘mol andazasini tayyorlash.**

**Ro‘mol chizmasini chizish.**

***Asbob va moslamalar:*** masshtabli chizg‘ich, burchakli chizg‘ich, kalam TM va 2 M, o‘chirg‘ich, albom.

Ro‘molning chizmasi 48-rasmda ko‘rsatilgan, uning o‘lchamlari 12-jadvalda berilgan.

12-jadval

| № | Chizmadagi belgi harflari | Chizish tartibi, kesmaning nomi | Standart o‘lchov | Mening o‘lchovim |
|---|---|---|---|---|
| 1.<br>2.<br>3.<br>4. | V<br>BB1 - VV2<br>B1 VV2<br>- | Nuqta V da burchak<br>Ro‘molning to‘g‘ri tomoni<br>Uchburchak chizish<br>Ustidan chizish | 35-40 | 40 |

## Savol va topshiriqlar:

1. Ro‘molning ikki tomoni nima uchun bir xil bo‘ladi?
2. Ro‘molning to‘g‘ri tomoni nimaga asoslangan?
3. Ro‘mol andazasini tayyorlang.

**Ro‘mol tikish. (Amaliy ish)**

**Ro‘molni tikish.**

***Asbob va moslamalar:*** ish qutichasi, ro‘molning bichig‘i, bir metr jiyak.

***Ishni bajarish tartibi:*** Ro‘molning to‘g‘ri tomonini 0,5 sm ichiga olib, keyin 1sm teskarisiga qayirib, bostirib dazmollanadi va ochib qo‘yiladi. Ro‘molning burchagiga 49-rasmda ko‘rsatilgandek ishlov beriladi. Bukib ko‘klash va chetidan 0,1sm da bostirib baxyaqator tikiladi va ko‘klash ipi olib tashlanadi. Choklari dazmollanadi. Burchaklaridagi ortiqcha qismlari qirqib tashlanadi. Teskari tomonining chetidan 1sm qoldirib bur bilan chiziladi, jiyakning o‘rtasidan buklab qalam bilan belgilanadi. Ro‘molning teskari tomonidagi belgilangan chiziq ustiga jiyakning o‘rtasini, ro‘mol o‘rtasiga tushirib ko‘klab qaviqqator tikiladi. Jiyakning chetidan 0,1sm qoldirib, baxyaqator tikiladi, chokning oxiri puxtalanadi. Ko‘klangan ip olib tashlanadi. Jiyakni o‘ng tomonga bukib, ko‘klab chiqiladi, bostirib tikiladi va mustahkamlanadi. Ko‘klangan ipi olinadi. Choklarning usti dazmollanadi. Jiyakning oxirini bukib, baxyaqator tikiladi.




49-rasm.




50-rasm.

Ro‘molga oxirgi ishlov beriladi: ko‘klash iplari olinadi, ortiqcha iplari olib tashlanadi, so‘ng dazmollanadi.

Tayyor ro‘molning sifati tekshiriladi: Ro‘molning ko‘rinishi tanlangan modelga mos bo‘lishi, choklari to‘g‘ri, chetlari bir-biriga simmetrik holda turishi, sifatli dazmollanishi, yaxshi taxlanishi kerak (50- rasm).

## *Savol va topshiriqlar:*

1. Jiyak qanday tikiladi?
2. Ro‘molni tikishda qanday qo‘l choklari ishlatiladi?
3. Nima uchun qiyiq tomonining oxiri tikiladi?

## 2.4. MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR KIYIMLARINI MODAELLASHTIRISH VA TAYYORLASH (KO‘YLAK, SHIM VA BOSHQALAR)

Maktab yoshidagi qizlar ko‘ylagi (34-o‘lcham)

Maktab yoshidagi qizlar ko‘ylagining andazasiga asoslanib har xil fasondagi ko‘ylaklar chizmasini chizish mumkin. Bu andazadan foydalanib tik yoqali yoki qaytarma yoqali maktab formasidagi ko‘ylak, shuningdek, bluzka tiksa ham bo‘ladi, bluzka chizmasini hosil qilish uchun ko‘ylak asosiy andazasining bel chizig‘idan 15 sm pastroqdagi qismini kesib tashlash kerak.

Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1.Bo‘yinning yarim aylanasi - 15 sm
2.Ko‘krakning yarim aylanasi - 34 sm
3.Belning yarim aylanasi -32 sm
4.Sonning yarim aylanasi-36 sm
5.Orqaning belgacha uzunligi - 30 sm
6.Ko‘ylakning uzunligi -70 sm
7.Yengning uzunligi -45 sm
8.Yelka kengligi-10 sm

Andaza chizmasini chizish.






51- rasm. Maktab yoshidagi qizlar ko`ylagining andaza chizmasi:
a-orqa va old qismlari, b- yengi,
v- uchi dumaloq qaytarma yoqa,
g- uchli qaytarma yoqa,
e- yelka qismi

To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A harfi qo‘yiladi (51-rasm, a).

Ko‘ylakning uzunligi. A nuqtadan pastga 70 sm uzunlikda (ko‘ylakning o‘lchab olingan uzunligi) chiziq chizilib, uchiga N nuqta qo‘yiladi. N nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

Yeng o‘mizining chuqurligi (uzunligi). A nuqtadan pastga 15,3 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 4 sm qo‘shiladi, ya’ni 34:3+4=15,3 sm) o‘lchab, chiziq uchiga G nuqta qo‘yiladi, G nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Bel chizig‘i. A nuqtadan pastga 30 sm (orqaning belgacha uzunligi) o‘lchab, T nuqta qo‘yiladi. T nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

Soy chizig‘i. T nuqtadan pastga 15 sm o‘lchab, B nuqta qo‘yiladi. B nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

Orqaning kengligi. G nuqtadan o‘ngga 15,3 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 4 sm qo‘shiladi, ya’ni 34:3+4=15,3 sm) o‘lchab, $G_1$ nuqta qo‘yiladi. $G_1$ nuqtadan yuqoriga gorizontal chiziq bilan kesishguncha vertikal chiziq chiqarilib, chiziqlar kesishgan nuqta P bilan belgilanadi.

Yeng o‘mizining kengligi. $G_1$ nuqtadan o‘ngga 9,5 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_4$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 1 sm qo‘shiladi, ya’ni 34:4+1=9,5 sm) o‘lchab, $G_2$ nuqta qo‘yiladi. $G_2$ nuqtadan yuqoriga istagan uzunlikda tik chiziq chiqariladi.

Ko‘ylakning ko‘krak chizig‘i bo‘yicha kengligi. G nuqtadan o‘ngga 40 sm (ko‘krakning yarim aylanasiga barcha o‘lchamlar uchun 6 sm qo‘shiladi, ya’ni 34+6=40 sm) o‘lchab, $G_3$ nuqta qo‘yiladi.

$G_3$ nuqtadan yuqoriga ixtiyoriy uzunlikda tik chiziq chiqarilib, pastga esa gorizontal chiziq bilan kesishguncha tik chiziq tushiriladi va uning pastki gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $H_1$ bilan, bel chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $T_1$ bilan, son chizig‘n bilan kesishgan nuqtasi esa $B_1$ bilan belgilanadi.

Ko‘ylak oldi (polochka)ning balandligi. $G_3$ nuqtadan yuqoriga 18 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 1 sm qo‘shiladi, ya’ni 34:2+1=18 sm) o‘lchab, Sh nuqta qo‘yiladi. Sh nuqtadan chapga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

Yordamchi yon chiziqlar. $G_1$ nuqtadan 3 sm o‘ngga $G_4$ nuqta qo‘yiladi. $G_4$ nuqtadan pastga etak chizig‘igacha to‘g‘ri chiziq tushirilib, uning etak chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $N_2$ bilan, son chizig‘i bilan kesishgan kuqtasi $B_2$ bilan, bel chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $T_2$ bilan belgilanadi.

Yeng o‘mizining tubi. Vertikal chiziqlar $G_1$ va $G_2$ nuqtalardan pastga 1 sm dan uzaytirilib, S va $C_1$ nuqtalar qo‘yiladi. Bu nuqtalar bir-biriga tutashtiriladi.

Yelka va yeng o‘mizining yordamchi chiiziqlari. $PG_1$ chizig‘i teng to‘rt qismga bo‘linadi.

Ko‘ylakning orqasini chizish

Orqadagi yoqa nuqtadan o‘ngga 5,5 sm yarim aylanasiga barcha uchun 0,5 sm qo‘shiladi, yani 15:3+0,5=5,5 sm) o‘lchab, 5,5 nuqtasi qo‘yiladi. Bu nuqtadan 1,5 sm yuqoriga 1,5 nuqtasi, 1,5 nuqtasidan 0,5 yuqoriga $Sh_1$ nuqta qo‘yiladi. A va $SH_1$ nuqtalar botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi.

Yelka qiyaligi. P nuqtadan 2 sm pastga 2 nuqtasi qo‘yiladi.

Yelka chizig‘i. $SH_1$ nuqtadan o‘ngga yelka qiyaligidagi 2 nuqtasi orqali 11,5 sm (yelka kengligiga 1,5 sm qo‘shiladi - yelka chokiga vitachka solish yoki uni salgina burib tikish uchun - ya’ni 10+1,5=11,5 sm) uzunligida chiziq chizib, chiziq uchiga $P_1$ nuqta qo‘yiladi.

Yelka chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi. Bo‘lish nuqtasi $Sh_1$ nuqtaga tutashtiriladi. $P_1$ nuqtadan 1 sm pastga $P_2$ nuqta qo‘yiladi. $Sh_1$ nuqtadan o‘ngga yelka chizig‘i bo‘yicha 3 sm o‘lchab, 3 nuqtasi qo‘yilib, bu nuqtadan 1,5 sm o‘ngga 1,5 nuqtasi qo‘yiladi. 3 nuqtasidan pastga 5 sm uzunlikda chiziq tushirib, uchiga 5 raqami qo‘yiladi. 5 nuqtasidan yuqoriga 1,5 nuqtasi orqali 5 sm uzunlikda chiziq chiqarib, uning uchiga ham 5 raqami qo‘yiladi. 5 nuqtasi $P_2$ nuqtaga tutashtiriladi. Vitachkaning ikkala chizig‘i o‘zaro teng bo‘lishi lozim.

Orqadagi yeng o‘mizi. S nuqtadan, burchakni o‘rtasidan bo‘ladigan qilib, 2,5 sm uzunlikda chiziq chiqarilib, uchiga 2,5 nuqtasi qo‘yiladi. $G_4$ nuqtadan 0,5 sm pastga 0,5 nuqtasi qo‘yiladi. $P_2$ nuqtadan chiqib, $PG_1$ chizig‘iga urinib 2,5 nuqtasi orqali o‘tgan va 0,5 nuqtasiga kelib tutashgan chiziq yeng o‘mizi bo‘ladi.

Yon chok tushadigan chiziq. $T_2$ nuqtadan 1 sm chapga 1 nuqtasi qo‘yiladi. 0,5 nuqtasi 1 nuqtasiga tutashtiriladi. Yon chiziq 1 nuqtasidan pastga $B_1$ nuqta orqali pastki gorizontal chiziqqacha uzaytirilib, pastda chiziqlar kesishgan nuqtadan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yiladi.

Etak chizig‘i. N nuqta yon chokdagi 1 nuqtasiga tutashtiriladi.

Orqadagi o‘rta chiziq. T nuqtadan 1 sm o‘ngga 1 raqami qo‘yiladi. 1 nuqtasi G, B nuqtalariga tutashtiriladi.

Ko‘ylakning oldingi yarmini chizish

Oldingi yoqa o‘mizi. Sh nuqtadan chapga 5,5 sm (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 0,5 sm qo‘shiladi, ya’ni 15:3+0,5=5,5 sm) o‘lchab, $Sh_2$ nuqta qo‘yiladi. Sh nuqtadan pastga 6,5 sm (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 1,5 sm qo‘shiladi, ya’ni 15:3+1,5=6,5 sm) o‘lchab, $Sh_3$ nuqta qo‘yiladi.

$Sh_2$ nuqta $Sh_3$ nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi. Punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linib, bo‘lish nuqtasidan 2 sm pastga 2 raqami qo‘yiladi. $Sh_2$, 2 va $Sh_3$ nuqtalar botiq egri chiziq yordamida uzaro tutashtiriladi.

Yoqa o‘mizi bilan yelka vitachkasi oralig‘idagi yordamchi yelka chizig‘i. $Sh_2$ nuqtadan 3 sm chapga $P_3$ nuqtasi qo‘yiladi.

Yelka vitachkasi va yoqa o‘mizi bilan vitachka oralig‘idagi yelka chizig‘i. $G_3$ nuqtadan chapga 7,5 sm ($ShP_3$ chizig‘i uzunligidan barcha o‘lchamlar uchun 1 sm ayiriladi. ya’ni 5,5+3-1=7,5 sm) o‘lchab, V nuqta qo‘yiladi. V nuqta $P_3$ nuqtaga tutashtiriladi. $P_3$ nuqta $PG_1$ chizig‘idagi yuqori bo‘lish nuqtasiga tutashtiriladi. $P_3$ nuqtadan punktir chiziq bo‘yicha 3 sm chapga $B_1$ nuqta qo‘yiladi. $B_1$ nuqta V nuqtaga tutashtiriladi. V nuqtadan yuqoriga $P_3$ nuqta yo‘nalishida $B_1$ V chizig‘i uzunligida chiziq chiqarilib, chiziq uchiga $V_2$ nuqta qo‘yiladi. $V_2$ nuqta $Sh_2$ nuqtaga tutashtiriladi.

Yelka vitachkasi bilan yeng o‘mizi oralig‘idagi yelka chizig‘i. $B_1$ nuqtadan chapga punktir chiziq bo‘yicha 7 sm (yelka kengligidan 3 sm ayiriladi, ya’ni 10-3=7 sm) o‘lchab, 7 raqami qo‘yiladi. $G_2$ nuqtadan yuqoriga 3,8 sm (yeng o‘mizining $^1/_4$

chuqurligi, ya’ni 15,3:4=3,8 sm) o‘lchab, $P_4$ nuqta qo‘yiladi.

7 nuqtasi $P_4$ nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi. 7 nuqtasidan pastga punktir chiziq bo‘yicha 3 sm o‘lchab, 3 raqami qo‘yiladi. 3 nuqtasi $V_1$ nuqtaga tutashtiriladi. $B_1$ nuqtadan chapga qiya chiziq bo‘yicha 7 sm o‘lchab, 7 nuqtasi qo‘yiladi.

Yeng o‘mizi. 3 nuqtasi bilan P nuqta oralig‘idagi punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi. Bo‘lish nuqtasidan 1 sm o‘ngga 1 raqami qo‘yiladi. $S_1$ nuqtadan, burchakni o‘rtasidan bo‘ladigan qilib, 2 sm uzunlikda chiziq chiqarilib, uchiga 2 raqami qo‘yiladi. Yeng o‘mizi chizig‘i 7, 1, $P_4$, 2 nuqtalari orqali chizilib, rasmdagidek 0,5 nuqtasiga tutashtiriladi.

Yon chok tushadigan chiziq. $T_2$ nuqtadan 1 sm o‘ngga 1 raqami qo‘yiladi. 0,5 nuqta 1 nuqtasiga tutashtiriladi. Yon chiziq 1 nuqtasidan pastga uzaytirilib, $B_2$ nuqta orqali etak chizig‘iga tutashtiriladi. Chiziqlar kesishgan nuqtadan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yiladi.

Etak chizig‘i. Vertikal chiziq $H_1$ nuqtadan pastga 1 sm uzaytirilib, chiziq uchiga 1 nuqta qo‘yiladi. Bu nuqta yon chiziqdagi 1 nuqtasiga tutashtiriladi.

Bel chizig‘i. $T_1$ nuqtadan 1 sm pastga 1 nuqtasi qoo‘ilib, 1 va 1 nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi.

Son chizig‘i. $B_1$ nuqtadan 1 sm. pastga 1 nuqtasi qo‘yiladi. 1 nuqtasi $B_2$ nuqtaga tutashtiriladi.

Yon tomondagi vitachka. $C_1$ nuqtadan son chizig‘iga punktir chiziq tushirilib, bu chiziqning son chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $B_3$ bilan, bel chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $T_3$ bilan belgilanadi, $C_1$ nuqtadan pastga 6 sm o‘lchab, 6 nuqtasi qo‘yiladi. $B_3$ nuqtadan yuqoriga esa 5 sm o‘lchab, 5 raqami qo‘yiladi. $T_3$ nuqtadan 1 sm o‘ngga va 1 sm chapga 1 nuqtalari qo‘yiladi. Bu nuqtalar 5 va 6 nuqtalariga tutashtiriladi.

Bir chokli yengnnng chizmasini chizish

To‘g‘ri burchak chizib, burchak uchiga A nuqta qo‘yiladi (51-rasm, b).

Yengning uzunligi. A nuqtadan pastga 45 sm uzunlikda (yengning uzunligi) chiziq tushirilib, chiziq uchiga N nuqta qo‘yiladi. N nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Yeng boshining balandligi. A nuqtadan pastga 11,3 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_3$ qismi, ya’ni 34:3=11,3 sm) o‘lchab, R nuqta qo‘yiladi. R nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Yengning kengligi. R nuqtadan o‘ngga 30,7 sm [ko‘krak yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 5 sm qo‘shib 2 ga ko‘paytiriladi, ya’ni ($^{34}/_3$+5)x2=30,7 sm] o‘lchab, $P_1$ nuqta qo‘yiladi. $P_1$ nuqta orqali yuqoriga gorizontal chiziq bilan kesishguncha, pastga esa etak chizig‘i bilan kesishguncha vertikal chiziq chizilib, uning yuqori gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $R_2$ harfi bilan, pastki gorizontal chiziq (etak chizig‘i) bilan kesishgan nuqtasi esa, $N_1$ harfi bilan belgilanadi.

Yordamchi chiziqlar. $AR_2$ chizig‘i teng to‘rt qismga bo‘linib, bo‘lish nuqtalari $O_1$, O, $O_2$ bilan belgilanadi. Bu nuqtalarning har biridan pastga etak chizig‘i kesishguncha vertikal chiziqlar tushirilib, ularning kesishgan nuqtalari $N_2$, $N_3$ va $N_4$

bilan belgilanadi.

Yeng boshi chizig‘i. R, O va $P_1$ nuqtalar bir-biriga punktir chiziqlar yordamida tutashtiriladi. Punktir chiziqlarning yordamchi chiziqlar bilan kesishgan nuqtalari $O_3$ va $O_4$ bilan belgilanadi. Yordamchi punktir chiziqlarning har biri teng ikki qismga bo‘linadi. $RO_3$ punktir chizig‘idagi bo‘lish nuqtasidan 0,5 sm pastga 0,5 raqami qoo‘iladp, $O_3O$ punktir chizig‘idagi bo‘lish nuqtasidan 2 sm yuqoriga 2 raqami, $OO_4$ punktir chizig‘idan 1,5 sm yuqoriga 1,5 raqami, $O_4P_1$ punktir chizig‘idan 2 sm pastga 2 raqami qo‘yiladi. $O_3$ nuqtadan yuqoriga yordamchi chnziq bo‘yicha 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi. R, 0,5, 1, 2, O, 1,5, $O_4$, 2, $R_1$, O nuqtalarini ketma-ket tutashtiruvchi chiziq yeng boshi (yengning eng yuqori nuqtasi) bo‘ladi.

Yon chiziqlar. N nuqtadan 2 sm o‘ngga $H_5$ nuqta qo‘yiladi. $H_5$ va R nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi, $H_1$ nuqtadan 2 sm chapga $N_6$ nuqta qoo‘ilib, $N_6$ nuqta $P_1$ nuqtaga tutashtiriladi.

Yeng uchi chizig‘i. $H_5$, $N_3$, $N_6$ nuqtalarning har biridan 1 sm yuqoriga 1-raqamlari qo‘yiladi. $N_6$ nuqtadan 2 sm yuqoriga 2 raqami qo‘yiladi.

Yeng uchi chizig‘i 1, $H_2$, 1, 2, 1 nuqtalarini o‘zaro tutashtirishi lozim.

Kalta yeng chizig‘i. O nuqtadan pastga 16 sm o‘lchab, 16 qo‘yiladi. Bu nuqtadan har ikkala tomonga, yon chiziqlar bilan kesishadigan qilib, gorizontal chiziq chiziladi.

Uchi dumaloq qaytarma yoqa

To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A harfi qo‘yiladi (51-rasm, v).

Yoqaning eni. A nuqtadan pastga 5 sm o‘lchab, V nuqta qoo‘ilib, V nuqtadan pastga 6 sm o‘lchab, $B_1$ nuqta qo‘yiladi.

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. A nuqtadan o‘ngga 15 sm (bo‘yinning yarim aylanasi uzunligi) o‘lchab, $V_2$ nuqta qo‘yiladi. $V_2$ nuqta V nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi. Punktir chiziq teng uch qismga bo‘linadi. Bo‘lish nuqtalaridan pastga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri chiziq hosil qilib, 1 sm dan o‘lchab, 1 nuqtalarn qo‘yiladi. V, 1, 1, $V_2$ nuqtalari rasmdagidek, egri chiziq yordamida birin-ketin tutashtiriladi.

Yoqaning uchi va pastki chizig‘i (cheti). 1 nuqtalaridan pastga yordamchi chiziqlar bo‘yicha 6 sm o‘lchab, 6 raqamlari qo‘yiladi. $B_1$, 6, 6 va $V_2$ nuqtalari rasmda ko‘rsatilganidek, birin-ketin tutashtiriladi, natijada yoqaning pastki chizig‘i (cheti) va uchi xosil bo‘ladi.

Uchli qaytarma yoqa

To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A nuqta qo‘yiladi (51-rasm, g).

Yoqaning eni. A nuqtadan 3 sm pastga V nuqta qoo‘ilib, V nuqtadan pastga. 6 sm o‘lchay, $B_1$ nuqta qo‘yiladi.

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. A nuqtadan o‘nggga 20 sm (bo‘yining yarim aylanasiga barcha o‘lchamlar uchun 5 sm qo‘shiladi, ya’ni 15+5=20 sm) o‘lchab, $V_2$ nuqta qo‘yiladi.

$V_2$ nuqtadan chapga 5 sm o‘lchab, $V_3$ nuqta qo‘yiladi. V nuqta $V_3$ nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi. Punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linib, bo‘lish nuqtasidan pastga ixtiyoriy uzunlikda yordamchi chiziq tushiriladi.

Bo‘lish nuqtasidan pastga shu chiziq bo‘yicha 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi. V, 1, $V_3$ nuqtalar bir-biriga ketma-ket tutashtirilgach, yoqani o‘mizga tikish chizig‘i hosil bo‘ladi.

Yoqaning pastki chizig‘i (cheti) va uchi. 1 nuqtasidan lastga yordamchi chiziq bo‘yicha 6 sm o‘lchab, 6 nuqtasi qo‘yiladi. V2 nuqtadan pastga 5 sm o‘lchab, 5 raqami qo‘yiladi. $V_3$, 5, 6 va $B_1$ nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi.

Tik yoqa

To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A harfi qo‘yiladi (51-rasm, d).

Yoqaning eni. A nuqtadan 3 sm pastga V nuqta qoo‘ilib, V nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. A nuqtadan o‘ngga 15 sm (bo‘yinning yarim aylanasi uzunligi) o‘lchab, $B_1$ nuqta qo‘yiladi. $B_1$ nukdadan pastga pastki gorizontal chiziq bilan kesishguncha to‘g‘ri chiziq tushirilib, chiziqlar kesishgan nuqta $V_2$ bilan belgilanadi.

Yoqaning pastki chizig‘i (cheti). $BB_1$ chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi. $B_2$ nuqtadan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yiladi. V nuqta 1 nuqtasiga $BB_2$ chizig‘ining o‘rtasiga urinib o‘tadigan chiziq yordamida tutashtiriladi, chiziq $V_2$ nuqtadan o‘ngra 0,5 sm uzaytirilib, 0,5 nuqta qo‘yiladi.

Shu 0,5 nuqtadan yuqoriga $V_1$ nuqta orqali 3 sm uzunlikda chiziq chiqarib uchiga 3 raqami qo‘yiladi. AV, chizig‘i teng ikki qismga bo‘linib bo‘lish nuqtasi 3 nuqtasiga rasmdagidek tutashtiriladi.

Maktab yoshidagi qizlar kiyadigan yozgi ko‘ylak

Maktab yoshidagi qizlar ko‘ylagining asosiy andazasiga (51-rasm, a) fasonning chiziqlari chiziladi.

Ko‘ylakning orqasi (52-rasm, a). Bel chizig‘idan pastga orqadagi o‘rta chiziq va bel chizig‘i bo‘yicha 5 sm dan o‘lchab, 5 raqamlari qoo‘ilib, 5 nuqta 5 nuqtasiga tutashtiriladi. Bu – kesish chizig‘idir. Kesish chizig‘i teng uch qismga bo‘linadi. Har bir bo‘lish nuqtisidan pastga vertikal kesish chiziqlari tushiriladi.



52-rasm. Yozlik ko`ylak.

Ko‘ylakning oldi (52-rasm, b). Yeng o‘mizdan pastga yon chiziq bo‘yicha 5

sm oʻlchab, 5 nuqtasi qoʻyiladi. 5 nuqtasi V nuqtaga tutashtiriladi. Bu vitachka chizigʻi boʻladi. Yelka vitachkasi bekitilib, andaza vitachka chizigʻi izidan kesiladi. Bel chizigʻidan pastga oldingi oʻrta chiziq va yon chiziq boʻyicha 5 sm dan oʻlchab, 5 nuqtalari qoʻyiladi. 5 nuqtalar bir-biriga tutashtiriladi. Hosil boʻlgan koʻndalang kesish chizigʻi teng uch qismga boʻlinadi. Boʻlish nuqtalaridan pastga yubkaning kesish chiziqlari tushiriladi.

Yoqa. $SH_2$ nuqtadan chapga yelka chizigʻi boʻyicha 4 sm oʻlchab. 4 raqami qoʻyiladi. $Sh_3$ nuqtadan pastga 4 sm oʻlchab, bu yerga ham 4 nuqtasi qoʻyiladi. Hosil boʻlgan nuqtadan 3 sm chapga 3 nuqtasi qoʻyiladi. $SH_3$ hamda 3 nuqtalar 4 nuqtasiga tugashtiriladi.

Andazani gazlama ustiga qoʻyish (52-rasm, v, g, d, y). Boʻyiga ikki buklangan gazlama taxiga andazaning oʻrta chizigʻi toʻgʻrilab qoʻyiladi. Yubka andazasi belgilangan chiziqlar izidan kesilib, 6-10 sm keriladi. Choklar haqi rasmda koʻrsatilgan. Yubka andazasining oʻrta chizigʻi ham gazlama taxiga qoʻyiladi. Lif oldining oʻrta chizigʻiga 2 sm ilgak haqi qoʻshiladi. Yubka andazasi kesilgan chiziqlar boʻyicha 6-10 sm keriladi.

Yoqa (52-rasm, j) fasonning belgilangan chiziqlari izidan kesib olinadi. Old va orqa andazalari yelka chiziqlari boʻyicha juftlashtiriladi (bir-biriga taqab qoʻyiladi). Andazalarning oʻrta chiziqlari boʻyiga ikki buklangan gazlama taxida yotadi.

Maktab yoshidagi qizlarning yelkadan boʻrtma chiziq tushirilgan koʻylagi

Maktab yoshidagi qizlar koʻylagining asosiy andazasi chizmasiga (51-rasm, a) fasonning chiziqlari chiziladi.

Koʻylakniag orqasi (53-rasm, a). Yelka vitachkasidan pastga etak chizigʻiga yetkazib boʻrtma chizigʻi tushiriladi.

Koʻylakning oldi (53-rasm b). Yelka vitachkasi qiyib olinadi. Vitachkaning uchidan pastga etak chizigʻiga yetkazib boʻrtma chizigʻi tushiriladi, boʻrtma chizigʻi oʻrta chiziqdan bir xil masofada oʻtishi lozim.




53-rasm. Maktab yoshidagi qizlarning yelkadan bo`rtma chiziqtushirilgan ko`ylagi.

Andazani gazlama ustiga qo‘yish (53-rasm, v, g, d, e) Asosiy vitachka belgilangan chiziqlar izidan kesilib, gazlamaning har detali gazlama ustiga qo‘yiladi. Ko‘ylakning oldida ham, orqasida ham bo‘rtma chiziqlarining pastki qismi 2 sm dan qiyalantiriladi. Choklar haqi chizmalarda ko‘rsatilgan.



54-rasm. Maktab yoshidagi qizlarning to`g`ri koketkali ko`ylagi.

Maktab yoshidagi qizlarning tug‘ri koketkali ko‘ylagi

Maktabgacha yoshdagi qizlar ko‘ylagining asosiy andaza chizmasiga fason chiziqlari chiziladi. Ko‘ylakning orqasi (54-rasm, a). A nuqtadan pastga 15 sm o‘lchab, 15 raqami qo‘yiladi. Hosil bo‘lgan nuqtadan o‘ngga yeng o‘miziga yetkazib koketka chnzig‘i chiziladi.

Ko‘ylakning oldi (54-rasm, b). $Sh_3$ nuqtadan pastga 15 sm o‘lchab, 15 raqami qo‘yiladi. Hosil bo‘lgan nuqtadan chapga yeng o‘miziga yetkazib koketka chizng‘i chiziladi. Skladkalar hosil qilish uchun kesish chiziqlari belgilanadi. 12 nuqtayesdan chapga 6 sm o‘lchab, 6 nuqtasi, 6 nuqtasndan chapga 3-4 sm o‘lchab, 3-4 raqami qo‘yiladi. Bu puqtalardan ham chapga 3-4 sm o‘lchab, shu raqamlar qo‘yiladi. Yelka vitachkayei bekitilib, koketga belgilangan chnziqlar izidan kesib olinadi.

Andazani gazlama ustiga qo‘yish (54-rasm, v, g, d, e). Asosiy andaza belgilangan chiziqlar izidan kesilib, andaza detallari gazlama ustiga joylashtiriladi. Oldingi va orqa andazalarning o‘rta chiziqlari gazlama taxida yotadi. Choklar haqi chpzmalarda ko‘rsatilgan. Andaza kesilgan chiziqlar izi – 6-8 sm kerib gazlama ustiga joylanadi. Ko‘ylakni kiyganda skladkalar qirrasi bilan turib qolmaslig uchun skladkalar tagiga qatlami 1,5 sm chiqarib dazmollanadi. Yengning tuzilishi 51-rasm, b da ko‘rsatiltan.

Maktab yoshidagi qizlar kostumi (36- o‘lcham)

Maktab yoshidagi qizlar jaketining andaza chizmasiga asoslanib har xil fasondagi jaket, jelatka andazalarini chizish mumkin (keyingi holda yoqa o‘mizi va yeng o‘mizini kattaroq oo‘ish kerak bo‘ladi).

Jaketning andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

1. Bo‘yinning yarim aylanasi - 15 sm;
2. Ko‘krakning yarim aylanasi - 36 sm;

3. Orqaning belgacha uzunligi - 31 sm;

4. Jaketning uzunligi - 46 sm;



55-rasm. Jaketning andaza chizmasi.

5. Yelka kengligi - 11 sm;

6. Yeng uzunligi - 48 sm.

Andaza chizmasini chizish. To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A harfi qo‘yiladi (55-rasm).

Jaketning uzunligi. A nuqtadan pastga 46 sm (jaketning o‘lchangan uzunligi) o‘lchab, N nuqta qo‘yiladi. N nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Yeng o‘mizining chuqurligi. A nuqtadan pastga 16 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 4 sm qo‘shiladi, ya’ni 36:3+4=16 sm) o‘lchab, G nuqta qo‘yiladi. G nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Bel chizig‘i. A nuqtadan pastga 31 sm (orqaning belgacha uzunligi) o‘lchab, T nuqta qo‘yiladi. T nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Orqaning kengligi. G nuqtadan o‘ngga 16 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 4 sm qo‘shiladi, ya’ni 36:3+4=16 sm) o‘lchab, $G_1$ nuqta qo‘yiladi. $G_1$ nuqtadan yuqoriga, gorizontal chiziqqa yetkazib tik chiziq chiqarilib, chiziqlar uchrashgan nuqta P bilan belgilanadi.

Yeng o‘mizining kengligi. $G_1$ nuqtadan o‘ngga 10 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_4$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 1 sm qo‘shiladi, ya’ni 36:4+1=10 sm) o‘lchab, $G_2$ nuqta qo‘yiladi. $G_2$ nuqtadan ixtiyoriy uzunlikda tik chiziq chiqariladi.

Jaketning ko‘krak chizig‘i bo‘yicha kengligi. G nuqtadan o‘ngga 43 sm (ko‘krakning yarim aylanasiga barcha o‘lchamlar uchun 7-8 sm qo‘shiladi, ya’ni 36+7=43 sm) o‘lchab, $G_3$ nuqta qo‘yiladi.

$G_3$ nuqtadan yuqoriga ixtiyoriy uzunlikda, pastga esa etak chizig‘i bilan kesishguncha to‘g‘ri chiziq chizilib, uning pastki gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $H_1$ bilan, bel chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi $T_1$ bilan belgilanadi.

Polochka (lif)ning balandligi. $G_3$ nuqtadan yuqoriga 19 sm (ko‘krak yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 1 sm qo‘shiladi, ya’ni 36:2+1=19 sm) o‘lchab, Sh nuqta qo‘yiladi. Sh nuqtada o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Yordamchi yon chiziq. $G_1$ nuqtadan o‘ngga 4 sm o‘lchab, $G_4$ nuqta qo‘yiladi. $G_4$ nuqtadan pastga gorizontal chiziq bilan kesishadigan qilib tik chiziq tushirilib, ularning kesishgan nuqtasi $N_2$ bilan belgilanadi. Tik chiziqning bel chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasi esa $T_2$ bilan belgilanadi.

Yeng o‘mizining qo‘ltiq qismi. $G_1$ va $G_2$ tik chiziqlari pastga 1 sm uzaytirilib, S va $S_1$ nuqtalar qo‘yiladi. S nuqta $S_1$ nuqtaga tutashtiriladi.

Yelkaning va yeng o‘mizining yordamchi chiziqlari. $PG_1$ chizig‘i teng to‘rt qismga bo‘linadi.

Jaketning orqasini chizish.

Orqadagi yoqa o‘mizi. A nuqtadan o‘ngga 5,5 sm (bo‘yin yarim ylanasining $^1/_3$ qismiga barcha raz-merlar uchun 0,5 sm ko‘shiladi, ya’ni 15:3 + 0,5 = 5,5 sm) o‘lchab, 5,5 raqami qo‘yiladi. 5,5 nuqtasidan 1,5 sm yuqoriga 1,5 raqami koo‘iladi. Hosil bo‘lgan nuqtadan 0,5 sm yuqoriga $Sh_i$ nuqta qo‘yiladi. A nuqta LUi nuqtasiga botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi.

Yelka qiyaligi, P nuqtadan 2 sm pastga 2 raqami qo‘yiladi.

Yelka ch i z i g‘ i. 1,5 nuqtasidan o‘ngga 2 nuqtasi orqali 12,5 sm (yelka kengligiga 1,5 sm qo‘shiladi - vitachka solish yoki chokni yig‘ib tikish uchun, ya’ni 11 + 1,5= 12,5 sm) uzunlikda yelka chizig‘i chizilib, chiziq uchiga $P_1$ nuqta qo‘yiladi.

koketka ag‘dariladi va o‘mizdagi bezak ustiga qayirib, bilinmaydigan qilib qo‘lda yoki mashinada bostirib tikiladi. Ko‘ylakning bo‘yiga solinadigan enlar igna bilan ikki qator qavik solib buriladi, ya’ni ipga yngiladi (qaviq qatorlari orasi 0,5-1 sm bo‘lishi kerak) va koketkaga uning ustidan tepchib qo‘yiladi; yon choklar ulanadi; so‘ngra ko‘ylak kiygizib ko‘riladi. Bunda ko‘ylakning yon boshi osilib tursa, yon tomonini 2 sm cha kirkib qiskartirish kerak. Etak kulda kayirib tikiladi.

Yeng uchini kul sigadigan qilib burib, keyin manjetni kushib tikish kerak. Agar yeng uchi rezinali bo‘lsa, uni mashinada 1 sm ichga kayirib bostirishkerak.

Kalta yengli yozgi ko‘ylak 79-rasmda yupka gazlamadan tikiladigan ko‘ylak ko‘rsatilgan. Ko‘ylakning koketkasi uchli, yoqasi shakldor (shal’ka) va manjeti (yengning uchi) yoqaning fasoniga o‘xshatib bichilgan. Ko‘ylakning eni koketkaga burib o‘tkazilgan. Yoqa va manjetning chetlariga kashta tikish xam mumkin.

Ko‘ylakning asosiy chizmasi

Ko‘ylakning andazasini chizish uchun asosiy chizmani quyidagicha uz-gartiriщkerak.

Koketka nim gorqa yarmi. A nuqtadan pastga 16 sm o‘lchab, shu nuqta K bilan belgilanadi. P nuqtadan 8 sm. pastga Ki nuqta qo‘yiladi. Ki nuqta K nuqtaga egri chiziq bilan tutashtiriladi, natijada j koketka xosil bo‘ladi. Burma xosil qilish uchun ko‘ylakning eni 15 sm kengaytiriladi.

Koketkaning oldingi yarmi. Ye, nuqtadan pastga 10 sm o‘lchab, Kg xarfi qo‘yiladi. Kg nuqta G, nuqtaga rasmda ko‘rsatilgandek tutashtiriladi, natijada koketka xosil bo‘ladi. Burma xosil qilish uchun ko‘ylakning oldingi eni (20 sm) kengaytiriladi.



80-rasm

Oldingi yoqa o‘mizi. B2 nuqtadan pastga 13 sm o‘lchab, B3 nuqta qo‘shiladi. B3 nuqta Bi nuqtaga to‘g‘ri chiziq yordamida tutashtiriladi, natijada yoqa o‘mizi xosil bo‘ladi. Andazaning boshka joylarini qanday chizish kerakligi 18-rasmdan kurib turibdi.

Yeng (80-rasm). Yengning andazasi yengning asosiy chizmasidan fark kilmandi, bu yerda yeng kiskartirilib, uzunligi 23 sm qilib olingan, xolos.

Manjet. To‘g‘ri turtburchak chiziladi, uning uzunligi 20 sm, ya’ni yengning yarim uzunligicha, eni esa 6 sm ga teng bulnshi lozim, manjetning eni ikki teng qismga bo‘linadi va ustki tomoniga rasmda ko‘rsatilganidek, manjetning shakli (chapdan o‘ngga qarab) chiziladi.

Yeng. Yeng aidazasini chizish uchun yoqaning orqa va oldingi uchigzyii Bi nuqtadan B3 nuqtagacha ulchash kerak. Misolimizda bu oralik 29 sm ga teng. Keyin burchak chizib, burchak uchiga A nuqta qo‘yiladi. A nuqtadan o‘ngga 29 sm o‘lchab, A nuqta qo‘yiladi. So‘ngra A nuqtadan 8 sm pastga B nuqta qo‘yiladi. A nuqtadan pastga 2 sm o‘lchab, shu nuqta Ai nuqtaga tutashtiriladi. A nuqta B

nuqtaga punktir 4 chiziq bilan tutashtiriladi. A nuqtadan chapga punktir chiziq bo‘yicha 12 sm o‘lchab, shu yerga belgi qo‘yiladi, keyin yoqa chiziladi.

Ko‘ylakni bichish va tikish. Yuqorida aytib utilgan ko‘ylak qanday bichilsa, bu ko‘ylakni bichish tartibi xam shunday. Bu ko‘ylakning yoqasi xam, yeng manjeti xam kush kavat, ya’ni astarli qilib bichiladi. Ko‘ylakning xamыa qismlari gazlamaning bo‘yiga bichiladi va bichayotganda chok xaki tashlab ketiladi. "Ko‘ylakning eni, yuqorida aytib utilganidsk, ikkita chok solib ipga buriladi va koketkaga burilgan xolida o‘tkaziladi, so‘ngra yelka va choklari ulanadi. Manjetning astarini kuklab chikib, so‘ngra mashinada tikiladi va ag‘darib, chetlarn tekislanadi, gir aylantirib kuklab chiqiladi dazmollanadi.

Yeng ag‘darma chok solib tikiladi, uchiga manjet ulanadi. Manjetni yeng uchiga kiya bichilgan adip bilan birga (eni 2 sm) tikish kerak, keyip adip ichga kayrib, ko‘rinmaydigan qaviq solib kulda tikiladi. Manjetni adipsiz taksa xam bo‘ladi, bunda manjet ung tomoni bilan yengning teskarisiga (yeng ichiga) qo‘yiladi va mashinada tikilganidan keyin yengning ustiga qaytarib qo‘yiladi; shunda chok manjet bilan yeng orasida qoladi. Manjet ag‘darilib tushmasligi uchun cheti xar joydan epga chatib qo‘yiladi.

Yengni tikishda avvalo uningo‘rta joyi o‘mizing o‘rta puktasiga chatib qo‘yiladi, yoqaning uchlari esa oldingi o‘miz o‘rtasiga biriktiriladi; so‘ngra yoqa o‘mizga adip bilan birga tikiladi. Yenglar o‘tkazilgandan keyin ko‘ylak kiyib ko‘riladi.Ko‘ylakning gazlamasi sitilmaydigan bo‘lsa, choklarning cheti bir marta yurmalanadi, gazlama sitiladigan bo‘lsa, choklar ikki qator yurmalanadi. Ko‘ylakni kiyib kurganda yonlari osilib turmasligi uchun etakning yon qismi bir oz kesib olinadi. Etak ko‘rinmaydigan qaviq solib qo‘lda qaytarib tikiladi.

## 4.6. O‘ZBEKCHA DUMALOQ KOKETKALI KO‘YLAK.

Dumalok koketkali ko‘ylak 81-rasmda. ko‘rsatilgan ko‘ylakning koketkasi dumaloq va oldingi tomoni qaytarmali qilib bichilgan. Ko‘ylakning yengi uzun, yengning uchila manjeti bor. Yengni manjetsiz tiksa xam bo‘ladi. Ko‘ylakning bo‘yi koketkaga burib o‘tkaziladi. Bunday ko‘ylakni shoyi, atlas kabi gazlamalardan tikish mumkin.

Ko‘ylakning asosii chizmasi

Ko‘ylak orqasining asosiy chizmasi quyidagicha uzgartiriladi. A nuqtadan pastga 15 sm o‘lchab, K harfi qo‘yiladi. P nuqtadan 7 sm pastga Ki nuqta qo‘yiladi, K nuqta Ki nuqtagada ko‘rsatilganidek, egri chiziq bilan tutashtiriladi. Burma hosil qilish uchun ko‘ylakning eni 15 sm kengaytiriladi (rasmda burma xaqi punktir chiziq bilan ko‘rsatilgan).

Ko‘ylak oddining chizmasi quyidagicha uzgartiriladi: Ai nuqtadan pastga 16 sm o‘lchab, Kg nuqta qo‘yiladi. Ei nuqtadan 10 sm pastga Kz nuqta qo‘yiladi, Kz nuqta Kg nuqtaga to‘g‘ri chiziq bilan tutashtiriladi. So‘ngra Kg nuqtadan 8 sm chapga K, nuqta qo‘yiladi, bu nuqtadan pastga, 4 sm uzunligida tik chiziq tushiriladi, chiziqning uchi Ks xarfi bilan belgilanadi. Kz, Ks va Kg puktalar egri chiziq yordamida uzaro tutashtiriladi.

Koketkaning qaytarmasi quyidagicha chiziladi: AiB2 chizip ikki teng qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasi Bi nuqtaga chiziq yordamida tutashtiriladi, bu chiziq ung tomonga 5 sm uzaytiriladi, chiziq uchiga Bz xarfi qo‘yiladi. B3 nuqta Kg nuqtaga egri chiziq bilan tutashtiriladi.



81- rasm

Ko‘ylakning oldingi eni (17 sm kengaytiriladi). Yeng manjetsiz qilib tikiladigan bo‘lsa, yeng uchini 3 sm kengaytirish va uzunligini (qayirib bukish uchun) 5 sm ga oshprish kerak (81- rasm. 6)

Ko‘ylakni bichish va tikish. Bu ko‘ylak xam yuqorida aytib o‘tilgan boshqa ko‘ylaklar kabi bichiladi.

Orqa koketkaning astari yoqa o‘mizi to‘g‘risidan koketkaga tepchib qo‘yiladi. Orqa enning yuqori tomoni ikki qator qaviq solib ipga buriladi va koketka qaviq qatorlari orayeiga tepchib qo‘yiladi.

Koketka ko‘ylakning eniga o‘ngi bilan quyib tikiladi, so‘ngra koketka yuqoriga qaytariladi, bunda koketkaning yenigga ulangan choki ko‘ylakning ichki tomonida kolishi lozim. Keyin koketkaning astari shu chokka qo‘lda tikiladi.

Oldingi koketkaga astarni angi bilan quyib, pastki tomonidan va qaytarmasi chetidan mashinada tikib chiqiladi. So‘ngra ag‘darib qaytarmaning burchaklari rostlanadi va ko‘ylakning qaviq solib burilgai eniga ulanadi. Koketkaning yelka chokini yoqa uyigidan yeng o‘miziga tomon tepchish kerak. Dastlab koketkaning choklari, keyin astarning choklari tikib ulanadi; bunda yelkaning kesilgan chetlari koketka bilan astar orasida qolishi lozim.

Yengning uchi (maijetsiz bo‘lsa) qayirib bostiryladi; agar qaytarmali, ya’ni manjetli bo‘lsa, manjeti tikilgandan keyin dazmollanadi. Yenglar o‘mizga o‘tkaziladi; shundan keyin ko‘ylak qiyib ko‘riladi.

**Jun gazlamadan tikiladigan ko‘ylaklar.**

82-rasmda ko‘rsatilgan kishki ko‘ylakni jun gazlamadan yoki tuk rang kalin, pishik, gazlamalardan tikish mumkin. Ko‘ylakning yengi uzun. Uning yeng uchiga bilakni sikib turadigan manjet kilsa xam bo‘ladi. Koketka kush qavat (astarli) bo‘lib, uning oldingi yarmi shakldor, ya’ni. ikki burchakli (misnkli) qilib, orqasi esa to‘g‘ri qilib bichilgai. Koketkaning burchaklari to‘g‘risiga bittadan karama-karshi (vstrechnaya) skladka solinadi, enning ikki skladka orasi burilmaydi, skladkalarning yon tomonlaridan qismlarigina buriladi, istagan kishi uning koketkasini dumaloq yoqasini esa ochik kantarma yoqa qilishi mumkin.

Andaza chizilmasini chizish

Ko‘ylakning asosiy chizmasi chizilib, keyin chizmaga quyidagi o‘zgarishlar kiritiladi. Koketka. A nuqtadan pastga 12 sm o‘lchab, K harfi qo‘yiladi, K nuqtadan o‘ngga, yeng o‘miziga yetkazib gorizontal chiziq chortiladi uchiga Ki xarfi qo‘yiladi. Ko‘ylakning orqa eni 15 sm kengaytiriladi (ana shu burma xarfni rasmda punktir chiziq bilan ko‘rsatilgan).A nuqtadan pastga 14 sm o‘lchab, Kg nuqta qo‘yiladi. Kg nuqtadan chapga, yeng o‘mizi chizigiga yetkazib gorizontal chiziq tortiladi, bu chiziqning yon o‘mizi bilan kesishgan nukda-si Kz bilan belgilanadi. Kz. nuqtadan 9 sm chapga K4 nuqta qo‘yiladi. K4 nuqtadan 4 sm pastga K5 nuqta qo‘yiladi. Kg, Ks va Kz nuqtalar 95-rasm, a da ko‘rsatilganidek, uzaro tutashtiriladi. Ko‘ylakning oldiga skladkalar solinadigan bo‘lganligidan oldingi an 25 sm (skladkalar) kengaytiriladi. YOqa qaytarmasi B2 nuqtadan o‘ngga 4 sm uzunligida gorizontal chiziq tortib, chiziq uchiga B2 xarfi qo‘yiladi B3 nuqta Kg nuqtaga to‘g‘ri chiziq bilan tutashtiriladi. Yeng (82- rasm, b). Bu ko‘ylakning yengi acosiy chiziqlardan fark qilmaydi. SHunga ko‘ra rasmda uning chizmasi faqat raqamlar bilan ko‘rsatilgan. YOqa (82- rasm, v). Yekaning uzunligi 18 sm (bo‘yin aylanasiga teng), kengligi 8 sm. To‘g‘ri burchak chiziladi, burchak uchi A bilan belgilanadi.A nuqtadan o‘ngga 18 sm o‘lchab, Ai nuqta qo‘yiladi. A va Ai nuqtalarning hap biridan pastga 8 sm uzunligida chiziq tushiriladi, chiziqlar uchiga B va B, xarflar qo‘yiladi. B nuqta B, nuqtaga tutashtiriladi. B nuqtadan o‘ngga 3 sm uzunligida chiziq tortib, uchiga Bg nuqta qo‘yiladi. Ai nuqta: dan 2 sm pastga Ag nuqta qo‘yiladi. Ag va B2 nuqtaga to‘g‘ri chiziq, yordamida, Ag nuqta A nukdaga esa egri chiziq, yordamida tutashtiriladi.



82- rasm

**Ayollar ko‘ylagini bichish va tikish.** Ko‘ylakni bichish va tikish. Bu ko‘ylakni bichish tartibi yuqorida aytib o‘tilgan targibdan fark qilmaydi. Ko‘ylakning orqasi xam odatdagicha tayyorlanadi.



83- rasm

Koketkaning o‘ngiga astarni o‘ngi bilan quyib, chetlari tikib chiqiladi. Uning qaytarmasiga xam astar tikiladi, so‘ngra o‘ngini ag‘darib, dazmollandi.

Ko‘ylakning oldingi eniga koketkadagi burchaklar to‘g‘risiga skladka-lar solinadi; enning skladkalardai ortib kolgan yon qismlari buriladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ikki tomondagi skladkalar orasi tekis (burmasiz) bo‘ladi. Ko‘ylakning koketka ulanadi, yon va yelka choklari tepchib chiqiladi.

Yenglarning choklari tikiladi, tayyor yenglar o‘mizga ko‘klab o‘tkaziladi; keyin ko‘ylak kiyib ko‘riladi. Yoqaning astari tikiladi va yoqa o‘ngiga ag‘darilib, dazmollanadi. R kaning o‘rta joyi o‘mizning o‘rta nuqtasiga, yoqaning uchlari esa oldingi o‘miz o‘rtasiga chatib qo‘yiladi va yoqa g aylantirib qo‘lda tepchib chiqiladi, keyin mashinada tikiladi. Shundan keyin yoqa qaytariladi va orqa tomonini 0,5 sm qayirib, ko‘rinmaydigan qaviq solib qo‘lda tikiladi. Ko‘ylakning yon tomonlari osilib turmasligi uchun etak yonidan sal qirqiladi. Koketka chetini bostirib tikiladi, etak va uchi (agar manjetsiz bo‘lsa) qo‘lda qaytarib tikiladi.

**Xilma-xil koketkalar.** Ko‘ylakning yelka chizigidan pastga yeng o‘mizi bo‘ylab istagan uzunlikda (misolimizda10 sm uzunligida) o‘lchab, shu yerga nuqta qo‘yiladi va shu nuqtadan ko‘krak chizig‘igacha shakldor chiziq ya’ni koketka chizig‘i chiziladi.

83-rasmda qanotcha yengning chizmasi berilgan. Chizmada bu yengning ham barcha o‘lchamlari ko‘rsatilgan. Shu o‘lchamlar bo‘yicha qanotcha yengning andazasini chizish mumkin.

## 4.7.XALATLARNI BICHISH VA TIKISH TEXNOLOGIYASI

Xalat (uy xalati). Uyga kiyilayadigan xalatlar qishlik va yozlik bo‘lishi mumkin. Qishlik xalatlar pachmoq gazlama (flanel), bumazeya, baykadan tikiladi, qavilgan (porolonli) va hakazo bo‘ladi; yozlik xalatlar esa chit, satin, ipak gazlama va shu kabilarda tikiladi. Xalatlarni uzun yengli, yengi tirsakdan sal pastga tushib turadigan va kalta yengli qilib tikish mumkin.



84-rasm

Yoqasi bo‘yi bilan yaxlit bichilgan xalat (84-rasm). Xalatning andazasini hosil qilish uchun ko‘ylakning asosiy andazasiga fasonning chiziqlarini tushirish kerak.

Xalatning orqasi (84-rasm, a). Yoqa o‘mizining yelkadagi nuqtasidanchapga yelka chizigi yo‘nalishida 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi. 1 nuqtasi yoqa o‘miziga rasmdagidek tutashtiriladi. Xalatning oldi (84-rasm, b). Xalatning barlari ochilib turmasligi uchun son chizigi oldingi o‘rta chiziq o‘ngga 2 sm uzaytirilib, 2 raqami qo‘yiladi; so‘ngra yoqa o‘mizidagi LH3 nuqta etak chizigiga 2 nuqtasi orqali tutashtiriladi. SHuning o‘zi o‘rta chiziq bo‘ladi. SH2 nuqtadan chapga yelka chizigi bo‘yicha 1 sm o‘lchab, t nuqtasi qo‘yiladi. 1 nuqtasidan 9 sm yuqoriga 9 raqami, bu nuqtadan chapga 4 sm o‘lchab, 4 raqami qo‘yiladi. 4 nuqta yekdai 3 sm pastga 3. raqami qo‘yiladi. 3 nuqtasidan 10 sm uzunlikda. 9 nuqtasi orqali chiziq o‘tkaziladi. Z nuqtasi 1 nuqtasiga tutashtiriladi. SH3 nuqtadan o‘ngga 7 sm o‘lchab, 7 raqami qo‘yiladi. 7 nuqtasidan 1 sm yuqoriga nuqtasi qo‘yiladi. 10

nuqtasi 1 nuqtasiga tutashtiriladi. 7 nuqtasidan 3 sm chapga 3 nuqtasi qo‘yiladi. 3 nuqtasi 1 nuqtasiga tutashtiriladi. Etak chizigi o‘ngga 4 sm uzaytirilib, shu chizigning uchi 7 nuqtasiga tutashtiriladi.

Cho‘ntak. Oldingi o‘rta chiziqdan chapga bel chizigi bo‘yicha 12 sm o‘lchab, 12 raqami qo‘yiladi, bu nuqtadan pastga 7 sm, chapga 13 sm o‘lchab, shu nuqtalar tegishlicha 7 va 13 raqamlari bilan belgilanadi. 13 nuqtasidan pastga J 2 sm ulchanib, bu nuqta 7 nuqtasiga tutashtiriladi



85-rasm

Andazani gazlama ustiga qo‘yish. Chok xaki rasmda ko‘rsatilgan.

«Shal’ka» yoqali xalat (85-rasm).

Xalatning orqasi (85-rasm,-a). Yoqa o‘mizining o‘rtasidan yuqoriga 1 sm o‘lchab, 1 nuqtasi qo‘shiladi, bu nuqta yoqa o‘miziga ulanadi.

Xalatning oldi xalatning barlari ochilib turmasligi uchui son chizigi oldingi o‘rta chizigdan o‘ngga 2 sm uzaytirilib, 2 nuqtasi qo‘yiladi, so‘ngra o‘mizidagi SHz nuqtadan 2 nuqtasi etak chizig‘igacha tik chiziq tushiriladi, bu oldingi o‘rta chiziq bo‘ladi. Yelka vitachkasi bekitiladi. YenR pastga yonchiziq bo‘yicha 6 sm o‘lchab, 6 raqami qo‘yiladi. G nuqtasi V nuqtasiga tutashtiriladi. SHz nuqtasidan yuqoriga 9 sm o‘lchab, raqami qo‘yiladi. Bu nuqtadan chapga 4 sm va pastga 3 sm o‘lchab, bu nuqtalar 4 va 3 raqamlari bilan belgilanadi. 3 nuqtasi SH2 nuqtasiga tutashtiriladi. So‘ngra 3 nuqtasidan 9 nuqtasi orqali 12 sm uzunligida chiziq chiqariladi va 12 raqami qo‘yiladi. Etak chizg‘i o‘ngga 10 sm uzaytiriladi, so‘ngra 12 nuqtasi 10 nuqtasiga rasmdagidek tutashtiriladi. Andazani gazlama ust qo‘yish. Chok xaqlari rasmda ko‘rsatilgan yon tomondagi vitachkali tikkanda vitachka uchi V nuqtaga rasmda ko‘rsatilganidek 3 sm yetkazilmaydi.

## 4.8.AYOLLAR JAKETINI MODELLASHTIRISH

Jaket oldining chizmasini chizish.

Yoqa o‘mizi. Sh nuqtadan chapga 6,5 sm uzunlikda (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 0.5 sm qo‘shiladi, ya'ni 18:3+1,5=6,5 sm) chiziq tortib, $Sh_3$ nuqta qo‘yiladi. Shu nuqtadan pastga 7,5 sm uzunlikda (bo‘yin yarim aylanasining $^1/_3$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun,1,5 sm qo‘shiladi, ya'ni 18:3+1,5=7,5 sm) chiziq tortib, $Sh_4$ nuqta qo‘yish 3 nuqtadan pastga 2 sm o‘lachab, shu yerga 2 raqami qo‘yiladi. O‘miz chizig‘i $Sh_3$ nuqtadan boshlanib, 2 nuqtasi

orqali $Sh_4$ nuqtaga tutashtiriladi.



86-rasm. Ayollarning shimli kastyumi. A-jaketning andoza chizmasi,
b-shimning old yarmi andaza chizmasi, v-shimning orqa yarmi andaza chizmasi

Yordamchi yelka chizig‘i**.** $Sh_3$ nuqtadan chapga 4 sm uzunlikda chiziq tortib, $P_3$ nuqta qo‘yiladi.

Ko‘krak vitachkasi va yelka chizig‘i. $G_3$ nuqtadan chapga 9,5 sm uzunlikda (yoqa o‘mizining yuqori chizig‘i uzunligiga yelkaning eni qo‘shiladi va barcha o‘lchamlar uchun 1 sm ayiriladi, ya'ni 6,5+4-1=9,5 sm) chiziq tortib, V nuqta qo‘yiladi. V va $P_3$ nuqtalar tutashtiriladi. $PG_1$ chizig‘i yuqori bo‘lish nuqtasi $P_3$ nuqtaga punktir chiziq bilan tutashtiriladi. $P_3$ nuqtadan chapga punktir chiziq bo‘ylab 5 sm o‘lchab (vitachkaning kengligi) (ko‘k-rangning yarim aylanasidan ko‘krak ostining yarim aylanasi ayiriladi, ya'ni 46-41=5 sm.), $V_1$ nuqta qo‘yiladi. $V_1$ va V nuqtalar tutashtiriladi. V nuqtadan boshlab $VP_3$ chizig‘ining $BB_1$ chizig‘iga teng keladigan qismi o‘lchanib, shu yerga $V_2$ nuqta qo‘yiladi.Vitachkalar chizig‘i o‘zaro teng bo‘lishi kerak. $V_2$ va $Sh_3$ nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi. Solishtirish uchun.

Yelkaning ko‘krak vitachkasidan yeng o‘mizigacha kengligi va oldingi yeng o‘mizi $B_1$ nuqtadan chapga punktir chiziq bo‘ylab 9sm o‘lchab (yelkaning o‘lchangan kengligidan yelkaning yoqa o‘mizidan ko‘krak vitachkasigacha bo‘lgan kengligi - 4sm ayiriladi, ya'ni 13-4=9sm), $P_4$ nuqta qo‘yiladi$G_2$ nuqtadan 5 sm uzunlikda pyerpyendikulyar chiziq chiqariladi va uning uchiga 5 raqami qo‘yiladi. $P_4$ va 5 nuqtalar punktir chiziq yordamida tutashtiriladi. $P_4$ nuqtadan pastga punktir chiziq bo‘ylab 3 sm o‘lchab, 3 raqami qo‘yiladi. 3 nuqtasi bilan $B_1$ nuqta tutashtiriladi. $B_1$ nuqtadan chapga 3 nuqta yo‘nalishida 9 sm o‘lchab, shu yerga 9 raqami qo‘yiladi (hisobi yuqorida berilgan). 3 va 5 nuqtalari orasidagi punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linib, bo‘lish nuqtasidan o‘ngga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib, 1 sm uzunlikda (barcha o‘lchamlar uchun)

chiziqcha tortib, chiziqcha uchiga 1 raqami qo‘yiladi. $G_5$ nuqtadan chiqarilib, burchakni o‘rtasidan bo‘lib o‘tgan chiziq bo‘yicha 2 sm o‘lchab (barcha o‘lchamlar uchun), shu yerga 2 raqami qo‘yiladi. O‘miz chiziq 9, 1, 5, 2 nuqtalari orqali chizilib, $E_7$ nuqtaga tegib o‘tadi.

Yon chok. $T_2$ nuqtadan o‘ngga 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi; yon chok tushadigan chiziq $G_7$,$G_6$, 1, $B_2$, $H_2$ nuqtalar orqa'li o‘tkaziladi.

Bel chizig‘i. $T_1$ nuqtadan pastga 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi. Bu nuqta bilan yon chokdagi 1 nuqtasi tutashtiriladi.

Son chizig‘i. $B_1$ nuqtadan pastga 1 sm o‘lchab, shu nuqta $B_2$ nuqta bilan tutashtiriladi.

Jaketning etagi. $H_1$ nuqtadan pastga 1 sm o‘lchab 1 raqami qo‘yiladi. $N_2$ va 1 nuqtalari o‘zaro tutashtiriladi, chiziq o‘ng tomonga istagancha davom ettiriladi.

Oldining o‘rta chizig‘i. Son chizig‘i bo‘ylab 1 nuqtasidan o‘ngga 2 sm o‘lchab, shu yerga 2 raqami qo‘yiladi. Jaket oldining o‘rta chizig‘i $Sh_4$ va 2 nuqtalari orqali chiziladi, bu chiziqning ko‘krak chizig‘i bilan kesishgan joyiga $G_8$ nuqta, etak chizig‘i bilan kesishgan joyiga esa $N_3$ qo‘yiladi.

Oldingi vitachkasi. V nuqtadan pastga, o‘rta chiziqdan baravar masofada, punktir chiziq tushiriladi; punktir chiziqning son chizig‘ini kesib o‘tgan joyiga $B_4$ nuqta, bel chizig‘ini kesib o‘tgan joyiga $T_4$ nuqta qo‘yiladi. $T_4$ nuqtadan o‘ngga va chapga 1,5 sm dan o‘lchab, shu yerlarga 1,5 raqamlari qoo‘ib chiqiladi; V nuqtadan pastga 5 sm, $B_4$ nuqtadan yuqoriga 5 sm o‘lchab, bu nuqtalarga 5 raqamlari qo‘yiladi. 5 va 5 nuqtalari 1,5 nuqtalariga o‘zaro tutashtiriladi.

Yon vitachkasi**.** $G_5$ nuqtadan pastga punktir chiziq tushirilib, uning son chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasi $B_5$ xarfi bilan, bel chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasi $T_5$ harfi bilan belgilanadi. $T_5$ nuqtadan o‘ngga va chapga 1 sm dan o‘lchab, 1 raqamlari qo‘yiladi. $G_5$ nuqtadan pastga 3 sm o‘lchab 3 raqami, $B_5$ nuqtadan yuqoriga 5 sm o‘lchab, 5 raqami qo‘yiladi. Ana shu 3 va 5 nuqtalari 1 nuqtalariga tutashtiriladi.

Barining kengligi. $Sh_4$ nuqtadan o‘ngga 6 sm o‘lchab, 6 raqami qo‘yiladi; 6 nuqtasidan pastga

1 sm o‘lchab, bu nuqta 1 raqami bilan belgilanadi. $G_8$ nuqtadan o‘ngga 2 sm o‘lchab, shu nuqtaga 2 raqami, $N_3$ nuqtadan o‘ngga 2 sm o‘lchab, bu yerga qam 2 raqami qo‘yiladi. Bar (bort) chizig‘i $Sh_4$, 1, 2 ,2 nuqtalari orqali chizilib, $N_3$ nuqtaga tutashtiriladi

Cho‘ntak**.** $T_1$ nuqtadan pastga 8 sm o‘lchab, 8 raqami qo‘yiladi; shu nuqtadan chapga 8 sm o‘lchab, K nuqta qo‘yiladi. K nuqtadan chapga 16 sm uzunlikda yuqori chiziq tortiladi va chiziq uchiga $K_1$ nuqta qo‘yiladi. K va $K_1$ nuqtalardan pastga 17 sm uzunlikda yon chiziqlar tushiriladi, hosil bo‘lgan nuqtalar tutashtiriladi.

Cho‘ntak qopqog‘i. K va $K_1$ puktalardan pastga 5 sm uzunlikda chiziqlar tushirilib, chiziqlar uchiga 5 raqamlari qo‘yiladi. Cho‘ntakning yuqori chizigi teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan pastga 7 sm uzunlikda punktir chiziq tushiriladi va 7 raqami qo‘yiladi. 5 nuqtalari 7 nuqtaga punktir chiziqlar yordamida tutashtiriladi, har punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtalaridan yuqoriga, punktir chiziqlarga nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib, 1 sm dan o‘lchab, bu nuqtalar 1 raqamlari bilan belgilanadi. So‘ngra 5, 1, 7, 1 va 5 nuqtalari chizmada

ko‘rsatilganidek tutashtiriladi.

**Eslatma**. Son yarim aylanasining o‘lchamiga 2 smni qo‘shganda (barcha o‘lchamlar uchun) bu o‘lcham andaza chizmasidagidan kattaroq bo‘lib chiqsa, bichish vaqtida buyum keragicha kengaytiriladi ya'ni son yarim aylanasining 2 sm qo‘shilgandan keyingi o‘lchami bilan andaza chizmasidagi o‘lcham o‘rtasidagi tafovutning $^{2}/_{3}$ qismi jaketning oldiga va $^{1}/_{3}$ qismi orqasiga son chizig‘i

Shim. Shim andazasi chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar bo‘lishi kerak.

Belning yarim aylanasi-36 sm

Sonning yarim aylanasi -48 sm

Shim yon chizig‘ining uzunligi - 102 sm

O‘tirish chizig‘i (orqa chok)ning uzunligi - 29 sm

Pocha kengligi - 30 sm

Andaza chizmasini chizish

Shimning old yarmini chizish (86- rasm, b)

To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A nuqta qo‘yiladi.

Shimning uzunligi. A nuqtadan pastga 102 sm uzunlikda (shimning o‘lchab olingan uzunligi) chiziq tortilib, chiziq uchiga N xarfi qo‘yiladi. N nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda chiziq tortiladi.

Son chizig‘i. A nuqtadan pastga 18 sm uzunlikda (barcha o‘lchamlar uchun) chiziq tortib, B nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

O‘tirish chizig‘ining uzunligi. A nuqtadan pastga 30 sm uzunlikda chiziq tortib (o‘tirish chizig‘i uzunligiga barcha o‘lchamlar uchun 1 sm qo‘shiladi, ya'ni 29+1=30 sm), S nuqta qo‘yiladi. S nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

Tizza chizig‘i. S nuqta bilan N nuqta oraliqi teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan yuqoriga 6 sm uzunlikda chiziq tortib, K nuqta qo‘yiladi. K nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

Shimning o‘tirish chizig‘i bo‘yicha kengligi**.** S nuqtadan o‘ngga 25 sm uzunlikda chiziq tortib (son yarim aylanasining $^{1}/_{2}$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 1 sm qo‘shiladi, ya'ni 48:2+1=25sm), $S_1$ nuqta qo‘yiladi.

$S_1$ nuqtadan pyerpyendikulyar chiqariladi, pyerpyendikulyarning yuqori gorizontal chiziq, (bel chizigi)ni kesib o‘tgan joyi T nuqta bilan, son chizig‘ini kesib o‘tgan joyi $B_1$ nuqta bilan belgilanadi. $C_1$ nuqtadan o‘ngga 5,5 sm uzunlikda chiziq tortib (son yarim aylanasining $^{1}/_{3}$ qismidan barcha o‘lchamlar uchun 0,5 sm ayiriladi, ya'ni 48:8-0,5=5,5 sm), S2 nuqta qo‘yiladi.

Bant chizig‘i (oldingi chok tushadigan chiziq). T nuqtadan pastga 1 sm o‘lchab, $T_1$ nuqta qoo‘nladi. $C_1$ nuqtadan yuqoriga 5 sm uzunlikda chiziq tortib, 5 raqami qo‘yiladi. $C_1$ nuqtadan, burchakni teng ikkiga bo‘ladigan qilib, 3 sm uzunlikda chiziq tortib, 3 raqami qo‘yiladi. Oldingi chok chizig‘i $T_1$ $B1_1$ 5 va 3 nuqtalar orqali o‘tib, $S_2$ nuqtaga kelib tutashadi.

Bel chizi g‘ i. T nuqtadan chapga 22 sm o‘lchab, $T_2$ nuqta qo‘yiladi (bel yarim aylanasining $^{1}/_{2}$ qismi, yana 4 sm -barcha o‘lchamlar uchun, 36:2 + 4=22 sm), $T_1$ bilan $T_2$ nuqtalari tutashtiriladi.

Dazmol chizig‘i. S nuqta bilan $S_2$ nuqta oralig‘i teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish chizig‘idan yuqoriga va pastga vertikal chiziqning bel chizig‘i bilan kesishgan joyiga $T_3$ nuqta, eng pastki chiziq bilan kesishgan joyiga $N_1$ nuqta qo‘yiladi.

Shim pochasining pastki cheti. $H_1$ nuqtadan o‘ng va chapga 14 sm dan o‘lchab pocha kengligidan 2 sm ayirib 2 ga taqsimlanadi, ya'ni (30-2):2=14 sm $N_2$ va $N_3$ nuqtalar qo‘yiladi.

$H_1$ nuqtadan yuqoriga 1 sm o‘lchab, l raqami qo‘yiladi. Pochaning pastki chizig‘i $N_2$,1,$N_3$ nuqtalar orqali tortiladi.

Yon chok tushadigan chiziq $T_2$, B, S, $N_2$ nuqtalar orqsali tortiladi; bu chiziqning tizza chizig‘i bilan kesishgan joyi $K_1$ nuqta bilan belgilanadi.

Ichki chok (og‘ choki) tushadigan chiziq. $S_2$ nuqta bilan $N_3$ nuqta tutashtiriladi. $S_2N_3$ chiziqning tizza chizig‘ini kesib o‘tgan joyiga $K_2$ nuqta qo‘yiladi.

Beldagi vitachkalar**.** $T_3$ nuqtadan o‘ngga 2 sm o‘lchab, 2 raqami qo‘yiladi va shu nuqtadan pastga ixtiyoriy uzunlikda chiziq tushiriladi. So‘ngra $T_3$ nuqtadan chapga 2 sm o‘lchab, 2 raqami qo‘yiladi; bu nuqtadan chapga yana 2 sm o‘lchab, shu yerga qam 2 raqami qo‘yiladi; hosil bo‘lgan nuqtalardan pastga ixtiyoriy uzunlikda vertikal chiziqlar tushiriladi.

Cho‘ntak. $T_2$ nuqtadan o‘ngga 3 sm o‘lchab 3 raqami, pastga (yon tomondan) 1 sm o‘lchab 1 raqami qo‘yiladi. 16 va 3 nuqtalari chiziq tortib o‘zaro tutashtiriladi. 3 nuqtadan pastga 3 sm o‘lchab, bu yerga ham 3 raqami qo‘yiladi Cho‘ntakkacha bo‘lgan bu masofa baxyalab chiqiladi.

Shimning orqa yarmini chizish (86- rasm, v).

Bu chizma shimning oldingi yarmi chizmasiga asosan chiziladi. Shimning oldingi yarmi chizmasini chizib, barcha belgilar (nuqtalar, xarflar) joy-joyiga qoo‘ib chiqiladi, chunki bu belgilar shimning orqa yarmini chizish vaqtida kerak bo‘lib qoladi.

Shim orqasining o‘tirish chizig‘i bo‘yicha kengligi. $S_1$ nuqtadan o‘ngga 11 sm uzunlikda chiziq tortib (son yarim aylanasining $^1/_4$ qismidan barcha o‘lchamlar uchun 1 sm ayirialadi, ya'ni 48:4-1=11 sm), $S_3$ nuqta qo‘yiladi

Pochaning pastki cheti. $H_1$ nuqtadan o‘ngga va chapga 16 sm o‘lchab [pocha kengligiga 2 sm qo‘shiladi, 2 ga bo‘linadi, ya'ni (30+2):2=16 sm], $N_4$ va $N_5$ nuqtalar qo‘yiladi. $H_1$ nuqtadan pastga 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi. Pochaning pastki chizig‘i $N_5$, 1, $N_4$ nuqtalar orqali o‘tkaziladi.

Yon chok tushadigan chiziq. A nuqtadan chapga 2 sm o‘lchab, $T_4$ nuqta qo‘yiladi. B nuqtadan chapga 3 sm o‘lchab, 3 raqami . qo‘yiladi. S nuqtadan chapga 3 sm o‘lchab, bu yerga ham 3 raqami qo‘yiladi. $T_4$ nuqtadan boshlab, 3, 3 nuqtalari orqali $N_5$ nuqtagacha yon chiziq tortiladi. Yon chiziqning tizza chizig‘ini kesib o‘tgan joyiga $K_3$ nuqta qo‘yiladi.

Bel chizig‘i. $T_3$ nuqtadan yuqoriga 2,5 sm o‘lchab, $T_5$ qo‘yiladi. Bel chizig‘i $T_4$ nuqtadan o‘ngga $T_5$ nuqta orqali 22,5 sm uzunlikda (bel yarim aylanasining $^1/_2$ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 4,5 sm qo‘shiladi, ya'ni 36:2 + 4,5 =22,5 sm) bel chizig‘ini tortib, $T_6$ nuqta qo‘yiladi.




87-rasm. Bo`rtmali jaket



Og‘ choki. $S_3$ va $N_4$ nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi. N4 nuqtadan yuqoriga, shu chiziq bo‘yicha $S_2N_3$ chizig‘iga teng keladigan uzunlikni o‘lchab, $S_4$ nuqta qo‘yiladi. $S_4N_4$ chizig‘ining tizza chizig‘ini kesib o‘tgan nuqtasi $K_4$ xarfi bilan belgilanadi.

O‘tirish chizig‘i (orqa chok). $C_1$ nuqtadan yuqoriga va o‘ngga 2 sm o‘lchab, shu nuqtalar 2 raqamlari bilan belgilanadi. $T_6$ nuqtadan pastga, 2 va 2 nuqtalari orqali chiziq tortib $S_4$ nuqtaga tutashtiriladi.

Bel vitachkalari**.** Bel chizig‘i teng uch qismga bo‘linadi. Bo‘lish nuqtalaridan pastga 9 sm uzunlikda tik chiziq tushiriladi. har bo‘lish nuqtasidan o‘ngga va chapga 1 sm dan o‘lchab (vitachka uchun), shu nuqtalar 1 raqamlari bilan belgilanadi; 1 va 1 nuqtalar 9 nuqtaga tutashtiriladi.

Shimning tizzasini tizza chizig‘i bo‘yicha toraytish mumkin; buning uchun $K_3$ nuqtadan o‘ngga va $K_4$ nuqtadan chapga 3-4 sm dan o‘lchab, shu nuqtalar orqali chizmadagidek punktir chiziqlar o‘tkaziladi.

Shimli kostum modelini yasash.

Bo‘rtmali jaket. Jaket oldi va jaket orqasining asosiy andazasiga (86-rasm, a) fason chiziqlari chiziladi.

Jaket orqasi (87-rasm, a). Yelkadan pastga qarab, yeng o‘mizi chi-ig‘i bo‘yicha 8 sm o‘lchab, shu nuqtaga S raqami qo‘yiladi. 8 nuqtasidan jaket etagigchcha, beldagi vitachka orqali burtma chizig‘i tushiriladi. Bel chizig‘idan vitachka kesiladi.

Old qismi (87-rasm, b). Ko‘krak vitachkasi bekitiladi. Yelkadan o‘miz chizig‘i bo‘ylab quyiga tomon 8 sm o‘lchanadi, 8 raqami qo‘yiladi. Keyin 8 nuqtadan V nuqtasi (ko‘krak vitachkasining oxiri) orqali bo‘rtma chok chizig‘i o‘tkaziladi, vitachka orqali bel chizig‘iga tomon bo‘rtma chok chizig‘i 6 sm uzaytiriladi, bu nuqtaga 6 raqami qo‘yiladi. Cho‘ntak chizig‘i quyidagicha belgilanadi: yon tomondan bel chizig‘idan pastga 10 sm o‘lchanadi, 10 raqami qo‘yiladi. 10 va 6 nuqtalari tutashtiriladi. Shundan so‘ng cho‘ntak qopqogining shakli chiziladi. Buning uchun 6 nuqtasidai chapga 14 sm o‘lchanadi, 14 raqami qo‘yiladi. 14 va 6 nuqtalaridan pastga 5 sm dan o‘lchanadi, o‘lchangan ikkala nuqta tutashtiriladi. Bel chizig‘idan o‘tadigan vitachka kesiladi.

Jaketning bari va yoqasi. $Sh_3$ nuqtadan yuqoriga 9 sm o‘lchab, 9 raqami qo‘yiladi. 9 nuqtasidan chapga 4 sm o‘lchab, bu nuqta 4 raqami bilan belgilanadi. 4 nuqtasidan pastga 3 sm o‘lchab, 3 raqami qo‘yiladi. So‘ngra 3 nuqtasidan 9 nuqtasi orqali 8 sm uzunlikda chiziq. tortib, 8 raqami qo‘yiladi, bu chiziq yoqaning balandligi bo‘ladi. Yoqaning o‘mizga tikiladigan chizig‘i 3 nuqtadan boshlanib, $Sh_3$, 2, $Sh_4$ nuqtalari orqali o‘tadi; bu chiziq o‘ng tomonga 2 sm uzaytirilib, $Sh_5$ nuqta qo‘yiladi. Yoqaning ustki cheti va uchi quyidagicha chiziladi: $Sh_5$ nuqtadan o‘ngga 4 sm o‘lchab, 4 raqami qo‘yiladi, hosil bo‘lgan nuqtadan yuqoriga 2 sm o‘lchab, bu nuqta 2 raqami bilan belgilanadi. $Sh_5$ nuqtadan 6 sm uzunlikda, 2 nuqtasi orqali o‘tadigan qilib, chiziq tortiladi va chiziq, uchiga 6 raqami qo‘yiladi. 6 va 8 nuqtalari punktir chiziq yordamida o‘zaro tutashtiriladi; punktir chiziq teng uch qismga bo‘linadi, pastki bo‘lish nuqtasidan to‘g‘ri burchak hosil qilib pastga 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi. Yoqa chizig‘i 8, 1, 6 nuqtalari orqali tortiladi. So‘ngra $Sh_4$ nuqtadan pastga jaket oldining o‘rta chizig‘i bo‘yicha 16 sm o‘lchab, 16 raqami qo‘yiladi; bu nuqtadan o‘ngga 2 sm o‘lchab, bu nuqta 2 raqami bilan belgilanadi. $Sh_5$, 4, 2, 2, $N_3$ nuqtalari orqali chizmadagidek chiziq o‘tkaziladi. Jaket barining pastki burchagi dumaloqlantiriladi. Buning uchun jaket etagidagi 2 nuqtasidan, burchakni teng o‘rtasidan bo‘ladigan qilib, 5 sm uzunlikda chiziq chiqarib, chiziq uchiga 5 raqami qo‘yiladi. Jaket etagi (barning burchagi)ni dumaloqlovchi chiziq, chizmada ko‘rsatilganidek, 5 nuqtasi orqali o‘tadi.Andazani gazlama ustiga qo‘yish

Jaketning oldi va orqasi (87-rasm, v, g, d, e). qo‘shiladigan chok haqi rasmda ko‘rsatilgan. Yoqa (87-rasm, j). Bort osiani va yoqa astari (podvorotnik)ni bichishda kontur bo‘yicha 1 sm dan chok haqi qo‘shiladi.

## 4.9. KIYIMLARNI YOQASI VA ULARNI BICHISH HAMDA TIKISH TEXNOLOGIYASI

**Yoqa**. Yoqalarning fasoni xilma-xil bo‘lishi mumkin. Yoqalar shartli ravishda yelkaga yopishib turadigan yoqa, qaytarma yoqa, tik yoqa, «shalka» yoqa, pidjak yoqa va boshqa turlarga bo‘linadi.

Quyida turli shakldagi yoqalarning andaza chizmalari berilgan. Bundan yoqalarning andazasnni chizish uchun bo‘yin aylanasining yarim o‘lchovi kerak

bo‘ladi (quyida keltirilgan misollarda bu o‘lchov 18 yoki 20 sm qilib olingan).

88-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi. AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 33 sm (yoqa o‘mizi uzunligining $^{1}/_{2}$ qismi plyus 6 sm – barcha o‘lchamlar uchun, ya’ni 54:2 + 6=33 sm) ga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 9 sm ga teng (barcha o‘lchamlar uchun).

Yoqani umizga tikish (ulash) chizig‘i va yoqa uchi. A nuqtadan 1 sm pastga 1 raqami, B nuqtadan 6 sm chapga esa 6 raqami qo‘yiladi.

Umizga tikish chizig‘i 1 va 6 nuqtalari orqali misik chizig‘i esa 6 va V nuqtalari orqali chiziladi.

Yoqaning pastki chizig‘i (chetı). G nuqtadan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yiladi. 1 nuqtasi V nuqtaga tutashtiriladi.

89-rasm. To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A nuqta qo‘yiladi.




88-rasm.




89-rasm.




90-rasm.

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. A nuqtadan o‘ngga 36 sm uzunligida chiziq chizib, uchiga V nuqta qo‘yiladi. V nuqtadan chapga 5 sm uzunligida chiziq chizib, uchiga 5 nuqta qo‘yiladi. A nuqtadan pastga 9 sm o‘lchab, 9 raqami qo‘yiladi. 5 nuqtasi 9 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtirilib, punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan pastga punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib 2 sm o‘lchab, 2 raqami qo‘yiladi. Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i 9, 2 va 5 V nuqtalari orqali o‘tadi.

Yoqaning taxi (buklash chizig‘i). 9 nuqtasidan pastga 13 sm o‘lchab, 13 raqami qo‘yiladi. Yoqaning taxi 9 va 13 nuqtalari orqali o‘tadi.

Yoqaning pastki chizig‘i (cheti). 13 nuqtasi V nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi. Punktir chiziq teng uch qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtalaridan pastga punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib 6 sm o‘lchab, 6 raqami qo‘yiladi. Yoqaning pastki chizig‘i 13, 6, 6 va V nuqtalari orqali o‘tadi. Yoqani o‘mizga tikish chizig‘ining uzunligi yoqa o‘mizi uzunligiga teng bo‘lishi kerak.

90-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi. AB va VG gorizontal chiziqning uzunligi 22 smga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 29 sm

ga teng.

Yoqani oʻmizga tikish chizigʻi. G nuqtadan yuqoriga 7 sm uzunligida chiziq chiqarib, uchiga 7 raqami qoʻyiladi. Soʻngra B nuqtadan 1 sm chapga D nuqta qoʻyiladi. D nuqta 7 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, punktir chiziq teng uch qismga boʻlinadi. Boʻlish nuqtalarining har biridan pastga, punktir chiziqqa nisbatan toʻgʻri burchak hosil kilib, 3 sm uzunligida chiziqlar tushiriladi va chiziqlar uchiga 3 raqami qoʻyiladi. Yoqani oʻmizga tikish chizigʻi 7, 3, 3 va D nuqtalari orqali oʻtkaziladi.

Yoqaning pastki chizigʻi. V nuqtadan chapga 4-5 sm oʻlchab, 4-5 raqamlari qoʻyiladi. Bu nuqtadan yuqoriga 10 sm uzunligida tik chiziq chiqarilib, uchiga 10 raqami qoʻyiladi. Soʻngra V nuqtadan yuqoriga 12 sm oʻlchab, 12 raqami qoʻyiladi. Bu nuqtadan 5 sm chapga 5 raqami qoʻyiladi.

G nuqta 10 nuqtasiga ravon tutashtiriladi, bu chiziq 10 nuqtasidan oʻngga 1 sm uzaytirilib, shu yerga 1 raqami qoʻyiladi, 1 nuqtasi 5 nuqtasiga tutashtiriladi, BV chizigʻiga urinib oʻtadigan egri chiziq yordamida 5 nuqtasi D nuqtaga rasmdagidek tutashtiriladi.



91-rasm.



92-rasm.

91-rasm. ABVG toʻgʻri toʻrtburchak chiziladi.

Toʻgʻri toʻrtburchakning boʻyi. AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 22,5 sm (boʻyinning yarim aylanasi plyus 2,5 sm – barcha oʻlchamlar uchun, yaʼni 20 + 2,5 = 22,5 sm) ga teng.

Toʻgʻri toʻrtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 9 sm ga teng (barcha oʻlchamlar uchun).

Yoqani oʻmizga tikish chizigʻi. A nuqtadan 1 sm pastga 1 nuqtasi qoʻyiladi. 1 nuqtasi B nuqtasiga tutashtiriladi.

Yoqaning uchi va pastki chizigʻi. B nuqtadan 2 sm pastga 2 raqami qoʻyiladi. 2 nuqtasidan 2 sm chapga ham 2 raqami qoʻyiladi. Soʻngra bu nuqtadan pastga 1 sm oʻlchab, 1 nuqtasi qoʻyiladi, 1 nuqtasi 2 nuqtasiga tutashtiriladi. G nuqtadan 2 sm yuqoriga 2 nuqtasi qoʻyiladi. Bu nuqta V nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, punktir chiziq, teng uch qismga boʻlinadi, chap tomondagi boʻlish nuqtasidan 1 sm yuqoriga 1 raqami qoʻyiladi. 2 nuqtasidan V nuqtaga 1 nuqta orqali chiziq tortiladi, bu – yoqaning pastki chizigʻi boʻladi; pastki chiziq oʻngga 1 sm uzaytiriladi. Soʻngra 2, 1 va 1 nuqtalari oʻzaro tutashtiriladi.

92-rasm. ABVG toʻgʻri toʻrtburchak chiziladi.

Toʻgʻri toʻrtburchakning boʻyi. AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 22 sm (boʻyinning yarim aylanasi plyus 2 sm – barcha oʻlchamlar uchun, yaʼni 20 + 2=22 sm) ga teng.

Toʻgʻri toʻrtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 8 sm ga teng (barcha oʻlchamlar uchun).

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. A nuqtadan pastga 2 sm, B nuqtadan chapga 2 sm o‘lchab, shu nuqtalar 2 raqamlari bilan belgilanadi. 2 nuqtasi 2 nuqtasiga tutashtiriladi.



93-rasm.



94-rasm.

Yekaning uchi va pastki chizig‘i (cheti). V nuqtadan 2 sm yuqoriga 2 raqami qo‘yiladi. G nuqta o‘ng tomondagi 2 nuqtasiga rasmdagidek tutashtiriladi.

93-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi. AB va GV gorizontal chiziqlarining uzunligi 30 sm ga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 13 sm ga teng.

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. A nuqtadan pastga 5 sm o‘lchab, 5 raqami qo‘yiladi. 5 nuqtasi B nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan pastga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib, 3 sm o‘lchab, 3 raqami qo‘yiladi. Pastki chiziq G va 3 nuqtalari orqali chizilib, B nuqtaga tutashtiriladi.

94-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi. AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 19,5 sm (bo‘yinning yarim aylanasi plyus 1,5 sm – barcha o‘lchamlar uchun, ya’ni 18+1,5 = 19,5 sm) ga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi barcha o‘lchamlar uchun 4 sm ga teng.

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i. V nuqtadan 1,5 sm yuqoriga 1,5 raqami qo‘yiladi. GV chizig‘i teng ikki qismga bo‘linadi.

Tikish chizig‘i VG chizig‘iga urinib o‘tib G nuqtani 1,5 nuqtasiga tutashtiradi, so‘ngra bu chiziq 1,5 nuqtasidan o‘ngga 0,5 sm uzaytirilib, chiziq uchiga 0,5 raqami qo‘yiladi.

Yoqaning pastki chizig‘i. 0,5 nuqtasidan yuqoriga B nuqta orqali 4 sm uzunlikda chiziq chiqariladi va uchiga 4 raqami qo‘yiladi, bu chiziq tepaga 5 sm uzaytiriladi.

So‘ngra 5 nuqtadan chapga 10 sm o‘lchab, 10 raqami qo‘yiladi, 10 nuqtasi 4 nuqtasiga tutashtiriladi. 10 nuqtasidan yuqoriga 5 nuqtasi orqali rasmdagidek 15



95-rasm.



96-rasm.



97-rasm.

sm uzunligida punktir chiziq chizilib, uchiga 15 raqami qo‘yiladi, punkttir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi. Bo‘lish nuqtasidan yuqoriga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qilib, 1 sm o‘lchab, 1 raqami qo‘yiladi. Yoqaning pastki chizig‘i 10 nuqtasini 1 nuqta orqali 15 nuqtasiga tutashtiriladi. 15 nuqtasi 4 nuqtasiga ulanadi.

95-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi. AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 20 sm (bo‘yin yarim aylanasining uzunligi) ga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 9 sm ga teng.

YOQani o‘mizga tikish chizig‘i. BV chizig‘i yuqoriga uzaytiriladi, shu chiziq Bo‘yicha yuqoriga 5 sm o‘lchab, 5 raqami qo‘yiladi. A nuqta 5-nuqtasiga punktir chiziq, yordamida tutashtiriladi, punktir chiziq, teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish chizig‘idan pastga 1,5 sm o‘lchab, 1,5 raqami qo‘yiladi. A nuqta 5 nuqtasiga 1,5 nuqtasi orqali botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi, yoqa o‘mizga shu chiziq bo‘yicha tikiladi.

YOQa uchi va yoqani pastki chizig‘i. GV chizig‘i V nuqtadan o‘ngga 7 sm uzaytirilib, chiziq, uchiga 7 raqami qo‘yiladi. 5 nuqtasi 7 nuqtasiga tutashtiriladi, bu chiziq 7 nuqtasidan pastga 1 sm uzaytiralib, chiziq uchiga 1 sm qo‘yiladi. Yoqaning pastki chizig‘i G nuqtani 1 nuqtasiga V nuqta orqali tutashtiradi.

96-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi. AB va VG gorizontal chiziqlarining uzunligi 20 sm ga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 6 sm ga teng.

Yoqani o‘mizga tikish chizig‘i A va B nuqtalari orqali o‘tadi.

Yoqaning pastki chizig‘i. V nuqtadan burchakni o‘rtasidan bo‘ladigan qilib 1 sm uzunlikda chiziq chiqarilib, uchiga 1 raqami qo‘yiladi. Pastki chiziq G nuqtani B nuqgaga 1 nuqtasi orqali tutashtiradi.

97-rasm. ABVG to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi. AB va GV gorizontal chiziqlarining uzunligi 26 sm ga teng.

To‘g‘ri to‘rtburchakning eni. AG va BV vertikal chiziqlarining uzunligi 43 sm ga teng.

YOQani o‘mizga tikish chizig‘i. B nuqtadan pastga 17 sm o‘lchab, 17 raqami qo‘yiladi. G nuqtadan o‘ngga 3,5 sm o‘lchab, 3,5 raqami qo‘yiladi. 17 va 3,5 nuqtalari punktir chiziq yordamida tutashtiriladn, punktir chiziq, teng to‘rt kismga bo‘linadi, yuqori bo‘lish nuqtasidan chapga, punktir chiziqqa nisbatan to‘g‘ri to‘rtburchak hosil *qilib*, 5 sm o‘lchab 5 raqami qo‘yiladi. Tikish chizig‘i 3,5, 5 va 17 iuqtalarini 1 tutashtiradi.

Yoqaning pastki chizig‘i (cheti). G nuqtadan yuqoriga 23 sm o‘lchab, 23 raqami qo‘yiladi, bu nuqtadan o‘ngga 3 sm o‘lchab, 3 raqami qo‘yiladi. 3,5 nuqtasi AG chizig‘iga urinib 3 nuqtasi orqali o‘tadigan shakldor chiziq yordamida B nuqtaga rasmdagidek tutashtiriladi.



98-rasm.



99-rasm.

YAxlit bichiladigan yoqalarning har-xil fasonlarini chizish. Yoqalarning modeli to‘g‘ri yasalsa, ularni ko‘ylak yoki bluzkaning oldingi yarmi (lif) bilan birga, yaxlit qilib bichish mumkin. Yoqani chizish oldingi yoqa o‘mizidan, ba’zan esa asosiy andazaning orqa qismidan (bluzka, jaket, ko‘ylak, palto yoqasi) boshlanadi. Buning uchun andazaning asosiy chizmasini chizayotganda boshlang‘ich nuqtalarni belgilab ketish kerak.

98-rasm. $SH_3$ nuqtadan yuqoriga 9 sm o‘lchab, 9 raqami qo‘yiladi. 9 nuqtasidan chapga 4 sm o‘lchab, 4 raqami qo‘yiladi; bu nuqtadan 3 sm pastga 3 raqami qo‘yiladi. 3 nuqtasi $SH_3$ nuqtaga tutashtiriladi, so‘ngra 3 NUQtasidan 9 nuqtasi orqali 6 sm uzunlikda chiziq chiqarilib, uchiga 6 raqami qo‘yiladi. Shu nuqtadan pastga oldingi o‘rta chiziq bo‘yicha 14 sm o‘lchab, 14 raqami qo‘yiladi, bu oraliq teng ikki qismga bo‘linadi. Bo‘lish nuqtasidan o‘ngga gorizontal yo‘nalishda 8 sm va chapga 6 sm o‘lchab, bu nuqtalar 8 va 6 raqamlari bilan belgilanadi. Bo‘lish nuqtasidan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo‘yiladi. So‘ngra yuqori 6 nuqta 8 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, punktir chiziq teng uchta qismga bo‘linadi, yuqori bo‘lish nuqtasidan 1 sm o‘ngga 1 raqami, pastki bo‘lish nuqtasidan 1,5 sm o‘ngga esa 1,5 raqami qo‘yiladi. Yuqori 6 nuqtasi pastki 6 nuqtasiga, rasmda ko‘rsatilganidek, 1, 1,5, 8 va 1 nuqtalari orqali o‘tadigan chiziq yordamida tutashtiriladi. Bundan keyin 6 nuqtasi 14 nuqtasiga punktir chiziq yordamida ulanib, punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan 1 sm o‘ngga 1 raqami qo‘yiladi, 6, 1 va 14 nuqtalari egri chiziq yordamida o‘zaro tutashtiriladi.

99-rasm. $SH_3$ nuqtadan yuqoriga 9 sm o‘lchab, 9 raqami qo‘yiladi. 9 nuqtasidan 4 sm chapga 4 raqami, 4 nuqtasidan 3 sm pastga 3 raqami qo‘yiladi. 3 nuqtasi $SH_3$ nuqtasiga tutashtiriladi. 3 nuqtasidan 9 nuqta orqali 6 sm uzunlikda chiziq chiqariladi va uchiga 6 raqami qo‘yiladi. $SH_4$ puqtadan o‘ngga 5 sm o‘lchab, 5 raqami, pastga 18 sm o‘lchab, 18 raqami qo‘yiladi. 18 nuqtasidan va oldingi o‘rta chiziqning pastki qismidan o‘ngga 2 sm dan o‘lchab, bu nuqtalar 2 raqamlari bilan belgilanadi. 2, 2,5 va $SH_4$ nuqtalari o‘zaro tutashtiriladi. 5 nuqtasidan 2 sm yuqoriga 2 raqami qo‘iiladi. $SH_4$ nuqtadan o‘ngga 2 nuqta orqali 7 sm uzunligida chiziq tortilib, uchiga 7 raqami qo‘yiladi 6 nuqtasi 7 nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi, punktir chiziq teng ikki qismga bo‘linadi, bo‘lish nuqtasidan 1 sm pastga 1 raqami qo‘yiladi. 6, 1 va 7 nuqtalari rasmdagidek o‘zaro tutashtiriladi.

Yoqani o‘mizga tikish. Yoqani o‘mizga har xil usulda tikish mumkin. Quyidagi usul eng ko‘p qo‘llaniladi: yoqa o‘mizidan pastga, oldingi o‘rta chiziq bo‘yicha gazlama 0,5 – 1 sm chuqurlikda kertiladi; bort osti (ilgak haqini ko‘rsatib turgan chiziq bo‘yicha) kiyimning o‘ng tomoniga qayirib qo‘yiladi, so‘ngra bort ostining bukilgan joyi (taxi)dan oldingi o‘rta chiziqqacha mashinada tikib chiqiladi, bort osti teskarisiga qayirib qo‘yiladi, bortning cheti sirma qaviq solib tikiladi, so‘ngra yoqaning bir qavati o‘mizga ko‘klab chiqiladi, keyin bir tomondagi kertikdan ikkinchi tomondagn kertikkacha mashinada tikiladi; yoqa osti qatlamining qirqilgan cheti ostga 0,5 – 1 sm qayriladi (bukiladi) va o‘mizdagi baxya iplaridan ilib olib, ko‘rinmaydigan qaviq solib tikiladi.

Yoqani qiya adip solib tikish usuli quyidagicha: yoqaning o‘rta chizig‘i o‘mizning o‘rta chizig‘iga to‘g‘ri keltirilgach, yoqa o‘mizga ko‘k-solib tikiladi, bunda yoqaning uchlari tikish chizig‘i bo‘yicha kiyimning oldingi o‘rta chizig‘iga to‘g‘ri kelib turishi, bort osti ilgak chizig‘i bo‘yicha teskarisiga qayirilishi (bukilishi) lozim. Shundan keyin tayyor qiya adip o‘mizga tepchib qo‘yiladi, uning uzunligi bo‘yin aylanasi uzunligiga teig bo‘lishi lozim. So‘ngra yoqa o‘mizi va adip juftlashtirilib, ustidan mashinada baxyalab tikiladi, tepchib qo‘yilgan ip sug‘urib tashlanadi, adip va bort osti kiyimning teskarisiga qayirib bukiladi va baxya chizig‘i bo‘yicha hamda adip chetidan sirmalab tikiladi. Adip ko‘rinmaydigan qaviq solib tikilishi lozim.

**Yoqa o‘mizini tikish.** Yoqa o‘mizining chuqurligi $VV_3$=3,5 sm o‘lchab qo‘yiladi.

Yoqa o‘mizining egriligini chiqarish uchun $V_2V_3$ kesmani ikkiga bo‘lamiz va $O_1$ nuqtadan 1,5 sm li pyerpyendikulyar chiziq chizib $O_2$ nuqta qo‘yamiz. $V_2O_2$ $V_3$ nuqtalar birlashtiriladi.

Yelka qiyaligini chizish. $A_1G_2$ kesmaning yuqoridagi turtdan bir bo‘lagini $A_1$ deb belgilaymiz. $V_2$ nuqtani $A_4$ nuqta bilan birlashtiramiz. $V_2$ nuqtadan chapga doimiy ulchov 4 sm ni o‘lchab $V_4$ harfi bilan belgilaymiz.

Ko‘krak vitochkasini chizish. $G_1$ nuqtadan chapga ko‘krak chizig‘i ustiga KO=9sm o‘lchab $G_5$ nuqtani qo‘yamiz. $G_5$ va $V_4$ nuqtalarni birlashtiramiz. $G_5V_4$ kesma vitochkaning bir tomoni bo‘ladi.

**Yoqa o‘mizi kengligi.**

A nuqtadan o‘ngga bo‘yin aylanasining uchdan bir qismiga 0,5 sm tekislik haki qo‘shib chiziladi.

AR=BAyar:3+0,5=17,5:3+0,5=6 sm. Yoqa o‘mizining balandligi doimiy o‘lchov 2 sm:RR=2 sm. Yelka qiyaligi 1,5 sm dan 2,5 sm gacha yelka tuzilishiga qarab olinadi: $A_1A_3$=2 sm.

Yelkaning uzunligi. $R_1$ nuqtadan yelka qiyaligi. $A_3$ nuqta orqali $P_1$ P=YeU+1,5 sm vitochka chuqurligi qo‘shilib $R_1$ 11=13+1,5=14 sm o‘lchab qo‘yiladi. Bu vitochkaning uzunligi 7 yoki 8 sm qilib olinadi.

Yeng o‘mizini chizish uchun yordamchi nuqtalardan foydalaniladi. Buning uchun $A_1$ $G_2$ kesma turt bo‘lakka bo‘linadi. $A_1$ $G_2$=AG; $A_1G_2$=19,7:4=5 sm. Pastki bir bo‘lagini X nuqta, yuqoridagi bo‘lagini A nuqta bilan belgilaymiz. $G_2$ nuqtadan doimiy o‘lchov $G_2$ 0=3 sm ulab O nuqta bilan belgilaymiz. P nuqtani X nuqta bilan

O va $G_4$ nuqtalar bilan birlashtirsak, ort bo‘lagining yeng o‘mizi chizig‘i hosil bo‘ladi.

**Yoqasiz kiyimlarning yoqa o‘mizini tikish**

Yoqasiz kiyimlarda yoqa o‘mizi qirqimlari ana shu yoqa o‘mizi shaklida bichib olingan mag‘iz qo‘yib ag‘darma chok bilan tikilishi, tanda ipiga nisbatan 45° burchak ostida bichilgan qiya beyka qo‘yib mag‘iz chok bilan tikilishi ham mumkin (100-rasm).

Yoqa o‘mizini uning shaklida bichilgan mag‘iz qo‘yib tikishda, oldin mag‘iz bo‘laklari biriktirib tikib olinadi. Choklar yorib dazmollanadi yoki ikki tomonga yotqiziladi. Mag‘izning ichki qirralari yo‘rmalanadi yoki bukma chok bilan tikiladi (101-rasm).

Agar tikilayotgan kiyimning taqilmasi old bo‘lak yoki orqa bo‘lak, yoqa o‘mizidan boshlansa, mag‘izning uchi taqilma mag‘iziga, adipga yoki taqilmaning ishlov haqiga ulanadi (102-rasm).





101-rasm.




102-rasm.

100-rasm.

Mag‘izni o‘ngini pastga qaratib, tikilayotgan kiyimning o‘ng tomoniga qirqimlarini to‘g‘rilab qo‘yiladi, mag‘izning ulangan choklari kiyim yelka choklariga to‘g‘rilanadi va yoqa o‘mizi ag‘darma chok bilan tikiladi. Chok botiq chiziq bo‘ylab va ichki burchaklarda kertib qo‘yiladi. Mag‘izni qaytarib, chok mag‘iz tomonga bukiladi va mag‘izning o‘ngidan ag‘darma chokdan 0,1-0,3 sm oraliqda chok bostirib tikiladi. Keyin mag‘iz tikilayotgan kiyimning teskarisiga asosiy gazlamadan 0,1-0,2 sm kenglikda qaytariladi va zih hosil qilib dazmollanadi.



103-rasm.



104-rasm.

Mag‘izning ichki qirqimlari yelka choklariga shu choklarga parallyel baxyaqator yuritib mashinada puxtalanadi, orqa va old bo‘lakka esa qo‘lda ularning o‘rtasidan yelka choklariga bo‘lgan oraliqda yashirin qaviqlar solib, yoqa o‘mizi katta qyilgan buyumlarda esa old va orqa bo‘laklar o‘rtasiga yashirin qaviqlar solib

chatib puxtalanadi.

Jun gazlamadan tikiladigan baxya uzunasi bo‘ylab yashirin, baxyali mashinada puxtalab tikiladi. Yoqa o‘mizi mag‘izni tikilayotgan buyumning o‘ngiga qo‘yib tikish xam mumkin.

Yoqa o‘mizini qotirmali mag‘iz qo‘yib tikishda qotirma ag‘darma chok tagiga tushishi kerak, yoqa o‘mizi qo‘yib tikiladigan mag‘iz tanda ipiga nisbatan 45° burchak ostida bichiladi.

Yoqa o‘miziga zih yoki to‘r qo‘yib ag‘darma chok bilan tikishda zih uchun mo‘ljallab qiya bichilgan gazlama parchasi tayyorlanadi (103-rasm). Bunda oldin tikilayotgan buyumga zih yoki to‘r ulab olinadi, keyin esa yoqa o‘miziga mag‘iz qo‘yib kiyim tomondan zih ulangan chok ustidan baxyaqator yuritib tikiladi.

Yoqa o‘mizini mashinada maxsus moslama yordamida bitta baxyaqator yuritib mag‘iz chok bilan tikish, moslama bo‘lmagan taqdirda mag‘izni ikki buklab, ikkita baxyaqator yuritib tikish eng unumli hisoblanadi (104-rasm).

Adip qo‘yib tikiladigan taqilmali kiyimlarda bortlarni ag‘darma chok bilan tikishdan oldin yoqa o‘miziga mag‘iz qo‘yib tikiladi. Adipning yuqori qirqimlari bortni ag‘darma chok bilan tikilgach, yoqa o‘mizi mag‘iz chokini berkitadigan qilib ichkariga bukiladi va bukilgan zihdan 0,1 sm oraliqda tikiladi.

## 4.10. KIYIMLARNI CHO‘NTAKLARINI BICHISH HAMDA TIKISH.

Qopqoq chetlarini mag‘iz choki bilan bezash. Cho‘ntakqopqoq bilan ostki qopqoq teskarisini ichkariga qilib qo‘yiladi, qirqimlari to‘g‘rilanadi va mag‘izning eniga qarab mashinada 0,2-0,4 sm ichkaridan ko‘klanadi yoki mahkamlanadi. Qopqoq chetlarida maxsus jiyaklar bilan mag‘iz chok hosil qilish mumkin. Jiyak cho‘ntakqopqoq shaklida cho‘ziladi va maxsus moslama yordamida bitta baxyaqator bilan mag‘iz qo‘yiladi. Agar maxsus moslama bo‘lsa, jiyak bir cheti 0,1-0,2 sm chiqib turadigan qilib o‘rtasidan bukiladi va dazmollab qayriladi. Shu bo‘lak tagiga tayyorlangan cho‘ntakqopqoq, chetlari shunday qo‘yiladiki, bo‘lakning enli tomoni ostki qopqoq tomonda turadigan bo‘lsin. Shundan so‘ng jiyak ensiz tomonidan ko‘klanadi, bunda uning enli tomoni albatta baxyaqator ostita tushishi lozim. Jiyak cho‘ntak qopqoq, tomondan bitta baxyaqator bilan tikiladi. Ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi. Cho‘ntakqopqoq dazmollanadi.

Jiyak bo‘lmaganda yoki modelga ko‘ra cho‘ntakqopkoq chetlarida bezak gazlama bo‘lagidan mag‘iz chok hosil qilish mumkin. Bezak bo‘lak tanda ipiga 45° burchak ostida bichiladi, uning eni mag‘izning ikkilantirilgan eniga 1,0-1,5 sm qo‘shib topiladi. Bo‘lak cho‘ntakqopqoq shaklida cho‘ziladi, qirqimlari teskarisiga 0,5 sm qayriladi va dazmollanadi. So‘ngra bo‘lak bir cheti ikkinchisidan 0,1-0,2 sm chiqib turadigan qilib o‘rtasidan bo‘ylamasiga qayriladi va dazmollanadi. Dazmollangan bo‘lak orasiga tayyorlangan cho‘ntakqopqoq chetlari qo‘yiladi, shunda bo‘lakning enli tomoni ostki qopqoq tomonda turishi kerak. Oldin bo‘lakning ensiz tomoni ko‘klab olinadi, so‘ngra qayrilgan chetidan 0,1-0,2 sm ichkaridan mashinada ulanadi. Bo‘lakning enli tomoni albatta baxyaqator ostida qolishi kerak. Ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi.

Ba’zi hollarda bezak bo‘lak chetlarini dazmollamasdan turib, mag‘iz chok bilan ishlash yaxshi samara beradi. Cho‘ntakqopqoq ostki qopqoqqa ulangandan so‘ng, tanda ipiga 45° burchak ostida bichilgan mag‘iz bo‘lagi o‘ngi bilan ostki qopqoq o‘ngiga qo‘yiladi va qopqoqning ichki tomonidan mag‘iz enidan 0,1 sm kam masofada ichkaridan mashinada tikiladi. Keyin bo‘lak cho‘ntakqopqoq o‘ngiga ag‘dariladi, chok atrofidan aylantirib detal o‘ngiga o‘tkaziladi, bo‘lak qirqimi ulash baxyaqatorini yopadigan darajada ichkariga qayriladi va qayrilgan chetidan 0,1 sm ichkaridan bostirib tikiladi. Tayyor qopqoq dazmollab yotqiziladi.



104-rasm. Ust kiyimdagi cho‘ntakqopqoqlarni ishlash.

Sezilarliroq, bo‘rtma hosil qilish uchun cho‘ntakqopqoq chetlariga mag‘iz chok tushirish lozim, bunda tanda ipiga 45° burchak ostida bichilib, ikki buklangan gazlama bo‘lagi qo‘yiladi (187-rasm, l). Ko‘pincha bunday bo‘lak asosiy materialdan, kamdan-kam hollarda bezak gazlamadan bichiladi. Bunda oldin cho‘ntakqopqoq ostki qopqoqqa ulab olinadi, mag‘izli bo‘lak cho‘ziladi, so‘ngra teskarisini ichkariga qaratib, o‘rtasidan buklanadi va dazmollanadi. Tayyorlangan bo‘lak qopqoqning o‘ngiga qo‘yiladi, qirqimlari tekislanadi va bo‘lak tomondan mashinada tikib, dumaloqlangan joylarida solqi hosil qilib ketiladi. Chokning eni mag‘iz eniga teng bo‘lishi lozim. So‘ngra bo‘lakni chok atrofidan aylantirib mag‘iz hosil qilinadi. Mag‘iz qopqoqning o‘ngiga, bo‘lak tikilgan chokka mashinada baxyaqator yuritib puxtalanadi. Bunda teskari tomondan baxyaqator bo‘lakning ichki chetidan 0,1-0,2 sm ichkaridan o‘tishi kerak. Tayyor bo‘lgan cho‘ntakqopqoq dazmollanadi.

Ust kiyimdagi cho‘ntakqopqoqlar.

Cho‘ntakqopqoqlar (104-rasm) qirqma cho‘ntaklarning ham, qoplama cho‘ntaklarning ham tarkibiy qismi hisoblanadi. Ba’zi kiyimlarda cho‘ntak qopqoqlar faqat bezak rolini o‘ynaydi.

Cho‘ntakqopqoqlarga noto‘qima material (flizyelin), kolyenkor, xom surpdan, bir tomoniga yelim qoplangan gazlamadan tayyorlangan qotirma qo‘yilishi mumkin. Bir tomoniga yelim qoplangan gazlamadan tayyorlangan qotirma asosiy gazlamadan bichilgan cho‘ntakqopqoqning teskarisiga yelimli tomoni bilan qo‘yiladi, shunda qotirma chetlari cho‘ntakqopqoq, chetida 0,6-0,8 sm ichkarida turishi va ag‘darma choklarning ostiga tushib qolmasligi kerak. Qotirma dazmol yoki press yordamida biriktiriladi.

Cho‘ntakqopqoq bilan ostki qopqoq o‘ngini ichkariga qilib qo‘yiladi, qirqimlari tekislanadi va qirqimlardan 0,3-0,4 sm ichkaridan 0,5-1,0 sm uzunlikdagi to‘g‘ri sirma qaviqlar bilan ko‘klanib, avra gazlamasi burchaklarda va dumaloqlangan joylarida solqi hosil qilib ketiladi. Yupqa gazlamadan tayyorlangan avralarda har qaysi tomondan 1,5 mm, o‘rtacha qalinlikdagilarida 2 mm, qalin avralarda esa 2,5-3,0 mm solqi hosil qilinadi.

Cho‘ntakqopqoqlar yo‘naltiruvchi linyeyka yordamida ostki qopqoq, tomondan ko‘klash chizig‘idan 0,1 sm ichkaridan mashinada ag‘darma choklanadi. Ag‘darma chokning eni 0,5 sm. Agar qotirma sifatida yelimsiz materiallar ishlatiladigan bo‘lsa, cho‘ntakqopqoqlar qotirma bilan birga ag‘darma chok bilan tikiladi.

Ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi. Chok 0,3 sm, burchaklarda esa 0,1-0,2 sm kenglikda qoldirib kesiladi. So‘ngra cho‘ntakqopqoqlar o‘ngiga ag‘dariladi, chetlari va burchak-lari to‘g‘rilanadi hamda ostki qopqoq tomondan chetidan 0,5 sm, ichkaridan 0,6-0,8 sm uzunlikdagi ko‘klash qaviqlari bilan (sidirg‘a gazlamalar qiya, gulli gazlamalar to‘g‘ri qaviqlar bilan) ziylari ko‘klanadi. Bunda maxsus 222 kl. mashinasidan foydalanish ham mumkin. Ziyni ko‘klash paytida avra detalidan 0,1-0,2 sm kenglikda kant chiqarib ketiladi.



105-rasm. Bezak cho‘ntak qopqoqlarni biriktirish.

Agar cho‘ntakqopqoqda enli (1 sm dan keng) bezak baxyaqator ko‘zda tutilgan bo‘lsa, gazlama qiyshaymasligi uchun cho‘ntakqopqoq, bezak baxyaqator eniga 0,2 sm qo‘shilgan masofada ikkinchi qaviqqator yoki baxyaqator bilan ziyni ko‘klanadi. Ziy ko‘klangandan so‘ng cho‘ntakqopqoq ostki qopqoq tomondan dazmolmato orqali dazmollanadi, burchaklari va chetlari tekislanadi hamda bezak baxyaqator tushiriladi.

Ziyni ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi va cho‘ntakqopqoq ikkinchi marta dazmol va press yordamida dazmollanadi. Yakka tartibda kiyim tikishda ham cho‘ntakqopqoq chetlarini yolg‘on qaviq bilan bezash mumkin. Ziy ko‘klangandan so‘ng cho‘ntakqopqoq chetlariga yolg‘on qaviq tushiriladi, so‘ngra dazmollanadi.



106-rasm. Ko‘ylaklar guruhi buyumlaridagi qirqma cho‘ntak.

Cho‘ntakqopqoqlarda ostki qopqoq tomondan tikish chizig‘i belgilab olinadi, bu chiziq tayyor holdagi cho‘ntakqopqoqning enini belgilaydi.

Bezak cho‘ntakqopqoq, quyidagicha ishlanadi va biriktiriladi. Bezak cho‘ntakqopqoq uchun astar cho‘ntakqopqoqdan tikish chizigi bo‘yicha 0,5 sm enliroq bichiladi. Bezak cho‘ntakqopqoq odatdagi usulda ishlanadi. U asosiy detalga ikki kator baxyaqator bilan ulanadi, bunda chok shu ikki baxyaqator orasida qolishi kerak. Oldin cho‘ntakqopqoq asosiy detalga belgilangan chiziq bo‘yicha astarini ichkariga qilib qo‘yiladi va mashinada astar

qo‘yimi bo‘yicha birinchi baxyaqator tushiriladi (189-rasm, a). Chokning eni 0,3-0,4 sm. So‘ngra cho‘ntakqopqoq yuqoriga qayriladi va (bukish chizig‘idan (ulash chokidan) 0,4-0,5 sm ichkaridan ikkinchi baxyaqator tushirilib, ulash choki yopib ketiladi, (105-rasm, b).

Yengil kiyimdagi qopqoqli cho‘ntak.

Qopqoqli qirqma cho‘ntakni ishlash uchun quyidagi detallar zarur: asosiy materialdan yoki bezax gazlamadan bichilgan qopqoq (1); asosiy materialdan bichilgan cho‘ntakning pastki chetidagi mag‘iz (1); asosiy materialdan bichilgan cho‘ntakxalta (1 ta, ikki qismdan iborat bo‘lishi mumkin); ip gazlamadan bichilgan bo‘ylama 1 (1 ta, cho‘ziluvchan gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda). Tayyor qopqoqda asosiy detalga ulash chizig‘i belgilab olinadi va shu bilan tayyor qopqoqning eni aniqlanadi.

Asosiy detal qo‘shimcha andaza bo‘yicha yoki bichikchi belgilagan chiziqlar bo‘yicha uchta chiziq: cho‘ntak yo‘nalishini bildiradigan bitta bo‘ylama chiziq (bu chiziq bo‘yicha qopqoq ulanadi) va cho‘ntak o‘lchamini belgilaydigan ikkita ko‘ndalang chiziq bilan cho‘ntakning o‘rni belgilab olinadi.

Cho‘ntakning pastki chetini mag‘iz bilan ishlashni osonlashtirish uchun asosiy detalning o‘ng tomoniga qo‘shimcha chiziq chizib olinadi; bu chiziq o‘rta chiziqdan kant yoki ramkaning enidan ikki marta katta masofada o‘tkaziladi.

Cho‘ziluvchan gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda teskaridan, cho‘ntak chizig‘i tagiga qirqimlardan 0,5 sm ichkaridan ikkita baxyaqator bilan bo‘ylama ko‘klab olinadi. Uning o‘rtasi cho‘ntakning belgilangan chizig‘iga to‘g‘ri kelishi kerak. Mag‘izning bitta bo‘ylama cheti teskarisiga qayriladi. Qayirish eni kant eniga chok qo‘yimi (taxminan 1,5 sm) qo‘shilgan qiymatga teng. So‘ngra bukilgan joyi dazmollanadi.

Ishlangan cho‘ntak qopqok, asosiy detal o‘ngiga o‘ngini pastga, ishlangan chetini yuqoriga qilib qo‘yiladi, gullarning ayniqsa, cho‘ntak oldidagi gullarning mos tushishiga ahamiyat bergan holda cho‘ntakqopqoq, hamda asosiy detaldagi belgilangan chiziqlar bir-biriga to‘g‘ri keltiriladi va cho‘ntakqopqoq mashinada ulanib, baxyaqator uchlari puxtalanadi. Yakka tartibda tikiladigan shimlarda cho‘ntakqopqoq tikishdan oldin ko‘klab olinadi. Chok cho‘ntak qopqoq tomonga qayriladi (106-rasm, a).

Tayyorlangan mag‘iz asosiy detalning o‘ngiga, bukigini belgilab olingan qo‘shimcha chiziqqa taqab, kichik dazmollangan chetini ichkariga qaratib qo‘yiladi. Yakka tartibda tikiladigan kiyimlarda mag‘iz ko‘klanadi, kiyimlarni ko‘plab tikishda esa ko‘klamasdan turib, modelda ko‘zda tutilgan masofada mashinada ulanadi (192-rasm, b).

Baxyaqatorlarning uchlari cho‘ntaklarning o‘rnini bildiradigan ko‘ndalang chiziqlar oldida to‘xtatiladi. Cho‘ntak va mag‘izning to‘g‘ri tikilganligi asosiy detal teskarisidan tekshiriladi. Cho‘ntakqopqoq va mag‘izni tikish baxyaqatorlari parallyel bo‘lishi hamda cho‘ntaklarning o‘rnini bildiradigan ko‘ndalang chiziqlar yaqinida



107-rasm. Ko‘ylakdagi oddiy qo‘yma cho‘ntak.

bir joyda tugashi zarur. Asosiy detal teskarisidan, baxyaqatorlar orasidan, cho‘ntak o‘rtasidan boshlab ikki tomonga qirqiladi. Cho‘ntak uchlariga 1...1,5 sm qolganda baxyaqatorlarning uchlari tomonga qiya qirqilib, ularga 0,1...0,15 sm qolganda to‘xtatiladi. Hosil bo‘lgan qirqim orqali mag‘izlar va cho‘ntakqopqoqni ulash choki teskarisiga ag‘dariladi, chetlari to‘g‘rilanadi. Mag‘iz uchlarini tortib, mag‘izning dazmollangan cheti cho‘ntakqopqoqni ulash chokiga taqaladi va cho‘ntak uchlari teskarisidan burchaklar asosi bo‘yicha qo‘sh qaytma baxyaqator bilan puxtalanadi. Cho‘ntakxaltaning kichik qismi mag‘izning ichki qismiga eni 1,0 sm li chok bilan ulanadi. Chok cho‘ntakxalta tomonga qayriladi va keyinchalik namlab-isitib ishlashda dazmollanadi. Cho‘ntakxaltani mag‘izga ulash choki maxsus mashinada yo‘rmaladi. Cho‘ntakxaltaning boshqa qismi qopqoqqa ulanadi, bunda baxyaqator detal teskarisidan cho‘ntakqopqoqni asosiy detalga ulash chokiga tushiriladi. Cho‘ntakxalta uch tomonidan tikilib, burchaklardagi baxyaqator dumaloqlab ketiladi. Chokning eni 1,2...1,5 sm (106-rasm, v). Cho‘ntakxaltani tikish choki maxsus mashinada yo‘rmalanadi. Tayyor cho‘ntak teskarisi va o‘nigidan dazmolmato orqali dazmollanadi, chetlari tekislab ketiladi.

Ba’zan cho‘ntakning pastki tomoni mag‘izsiz cho‘ntakxalta bilan ishlanadi. Bu holda cho‘ntakxaltaning kalta qismi mag‘iz qo‘yim bilan bichiladi. Cho‘ntakxaltadagi tanda iplari yuqori qirqimga parallyel tarzda, detalga ko‘ndalang o‘tishi lozim.

Cho‘ntak o‘rni birinchi usuldagidek belgilanadi. Tikishdan oldin cho‘ntakxalta bir qismining yuqori choki kant eniga chok qo‘yimi (taxminan 1,5 sm) qo‘shilgan kattalikda teskari tomonga qayriladi va dazmollanadi. Cho‘ntakqopqoq tikilgandan so‘ng, tayyorlangan cho‘ntakxalta asosiy detalning o‘ngiga o‘ngini yuqoriga qaratib, bukigini cho‘ntakning belgilangan qo‘shimcha chizig‘iga taqab, dazmollangan chetini ichkariga qilib qo‘yiladi va mag‘iz kabi ulanadi (106-rasm, g). Asosiy detal qirqiladi, cho‘ntak uchlari puxtalanadi va cho‘ntakxalta birinchi usuldagidek tikiladi.

Yengil kiyimdagi qoplama cho‘ntak.

Oddiy qoplama cho‘ntak (107-rasm, a) yon va past tomonlaridan qayirish uchun qo‘yim qoldirib bichiladi. Qo‘yim eni cho‘ntak chetidan uni asosiy detalga tikish bezak baxyaqatorigacha bo‘lgan masofaga 1...1,5 sm qo‘shib topiladi. Masalan, cho‘ntakni asosiy detalga tikish bezak baxyaqatori cho‘ntak chetidan 0,5 sm ichkaridan o‘tsa, yon va pastki tomonlardan qayirish uchun 0,5+(1+1,5 sm), ya’ni 1,5-2,0 sm qo‘yim qoldiriladi. Cho‘ntakning yuqori chetidan qayirish uchun 4...5 sm qo‘yim qoldiriladi.

Cho‘ziluvchan gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda cho‘ntak yuqori chetining bekigiga qo‘yim tomondan uqa qo‘yiladi. U cho‘ntak chetini cho‘zilib ketishdan asraydi. Uqa mashinada chetlaridan 0,1 sm ichqaridan ulanadi.

Jun va shoyi gazlamalardan tikiladigan kiyimlar cho‘ntagining yuqori chetini qayirish uchun qoldirilgan qo‘yimning qirqimi teskarisiga 0,5-0,7 sm bukiladi va shu ziyidan 0,1...0,2 sm ichkaridan tikiladi. Ip gazlamadan tikiladigan kiyimlarda cho‘ntakning yuqori chetidagi qo‘yimning qirqimi kertmalar yoki belgilangan chiziq bo‘yicha o‘ngiga qayriladi. Qirqim qo‘yim tomonga 0,5...0,7 sm qayriladi,

burchaklari qo‘yim kattaligida ag‘darma chok bilan tikiladi (107-rasm, b). Chokning eni cho‘ntakning yon tomonlaridagi qo‘yim eniga teng bo‘lishi lozim. Chok qo‘yimlari kertmagacha 0,5...0,7 sm qoldirib kesiladi; burchaklari o‘ngiga ag‘dariladi, to‘g‘rilanadi; ip gazlamadan tikiladigan kiyimlarda qayrilgan ziyga nisbatan 0,1...0,2 sm ichkaridan tikiladi. Cho‘ntakning yuqori cheti dazmollanadi, ayni vaqtda cho‘ntakning yon va pastki chetlari dazmollab qayriladi.

Gazlamani tejash maqsadida cho‘ntakning yuqori chetini uqa bilan ishlash mumkin (107-rasm, v). Uqaning ichki qirqimi teskarisiga 0,5...0,7 sm qayriladi, jun va shoyi gazlamadan tikilgan kiyimlarda qayrilgan ziyidan 0,1...0,2 sm ichkaridan tikiladi. Mag‘iz o‘ngi bilan cho‘ntakning o‘ngiga qo‘yiladi hamda yon tomonlari yuqori cheti bo‘yicha yo‘rmaladi.

Cho‘ntakning yuqori chetidagi chokning eni 0,5...0,7 sm yon tomonlardagi chok yon chetlarini qayirish qo‘yimiga teng bo‘lishi kerak. Burchaklardagi chok qirqiladi. Burchaklar ag‘dariladi, to‘g‘rilanadi, ip gazlamadan tikilgan kiyimlarda cho‘ntakning qayrilgan magiz qirqimi bukib tikiladi. Cho‘ntakning yuqori cheti dazmollanadi, ayni vaqtda yon va past tomonlarining cheti dazmollab qayriladi.

Titiluvchan gazlamalardan tikiladigan buyumlardagi cho‘ntakning yon va pastki qirqimlari maxsus mashinada yo‘rmalishi lozim. Agar cho‘ntakning pastki burchaklari to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lsa, yon va pastki tomonlaridagi qayirish qo‘yimi belgilangan chiziq bo‘yicha (45° burchak ostida) biriktirib tikiladi, chok qirqib qo‘yiladi. Ip gazlamadan tikiladigan kiyimlardagi chok qirqimlari ikki tomonga yotqiziladi, jun va shoyi gazlamalardan tikiladigan kiyimlardagisi yorib dazmollanadi, burchaklari to‘g‘rilanadi va dazmollanadi.

Agar qoplama cho‘ntakning chetlari oval shaklida bo‘lsa hamda asosiy detalga chetidan 0,5 sm dan kattaroq masofada bezak baxyaqator bilan ulansa, cho‘ntakning yon va pastki chetlarida qayirish uchun qo‘yim qoldirilmaydi, balki chetlarini shu cho‘ntak shaklida bichilgan mag‘iz bilan ishlash tavsiya qilinadi. Mag‘izning eni bezak baxyaqatorning eniga qarab taxminan 3....3,5 sm bo‘lishi zarur. Masalan, bezak baxyaqatorning eni 0,8 sm bo‘lsa, mag‘izning eni 2,5...3,0 sm, shu jumladan, 0,7 sm (ag‘darma chokka) plyus 0,8 sm (bezak baxyaqatorning eni), plyus 1,0..1,5 sm.

Titiluvchan gazlamalardan tikiladigan kiyimlar mag‘zining ichki qirqimlari maxsus mashinada yo‘rmaladi. Cho‘ntakning yuqori qirqimidagi qayirish qo‘yimi o‘ngiga qayrilgandan yoki cho‘ntakning yuqori chetiga mag‘iz qo‘yib, ag‘darma chok solgandan so‘ng qoplama cho‘ntak o‘ngiga cho‘ntak yon va pastki chetlarining mag‘izlari o‘ngini ichkariga qilib qo‘yiladi, mag‘izlar qirqimlari cho‘ntak qirqimlariga to‘g‘rilanadi (mag‘izning yuqori uchlari qo‘yim yuqorisida yoki cho‘ntakning yuqori chetidagi mag‘iz yuqorisida yotishi lozim) hamda burchaklarni ag‘darma chok bilan tikish paytida bir yo‘la cho‘ntakning yon va pastki chetlari tikib ketiladi. Ag‘darma chokning eni 0,5...0,7 sm. Burchaklardagi chok kesiladi, Mag‘iz teskar isiga qayriladi, burchak va choklar to‘g‘rilanadi, dazmollanadi, cho‘ntakdan mag‘iz tomonga 0,1....0,2 sm kenglikda kant chiqariladi.

Qoplama cho‘ntakning asosiy detaldagi o‘rni qo‘shimcha andaza bo‘yicha yoki kiyimni buyurtmachiga kiydirib ko‘rish vaqtida uchta iroqisimon chiziqcha yoki

nuqta tarzida bichiqchi qo‘ygan belgilar bo‘yicha aniqlanadi. Bu belgilar cho‘ntakning ikkita yuqori va bitta pastki (old) burchaklarini bildiradi.

Cho‘ntak asosiy detalga belgilar bo‘yicha qo‘yiladi, yakka tartibda tikiladigan kiyimlarda ko‘klab qo‘yiladi. Cho‘ntak yo‘naltirgichli tepki yordamida modelda ko‘rsatilgan masofada bezak baxyaqator bilan bostirib tikiladi. Cho‘ntaklarning yuqori burchaklari qaytma baxyaqator bilan yoki uchburchak shaklidagi baxyaqator bilan puxtalanadi. Jun va shoyi gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda cho‘ntak pishiq chiqishi uchun teskarisidan ip gazlamadan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bichilgan bo‘laklar qo‘yiladi. Agar mag‘iz faqat yuqori cheti bo‘yicha tikiladigan bo‘lsa, cho‘ntak burchaklari cho‘ntakning yon tomonlaridan yuqori chetiga 0,7 sm o‘tadigan baxyaqator bilan puxtalanadi.



108-rasm. Ust kiyimdagi qoplama cho‘ntak

Ust kiyimdagi qoplama cho‘ntak

Oddiy qoplama cho‘ntak (108-rasm) mashinada tikilganda chetlaridan quyidagicha: yuqori chetidan 3,0...3,5 sm, yon va pastki tomonlaridan 0,5 sm qayirish qo‘yimi qoldirib bichiladi.

Cho‘ntakning yuqori chetidan qayirish qo‘yimi aniqlangandan so‘ng qo‘yim teskarisiga uqa yoki qotirma qo‘yiladi va mashinada tikiladi yoki bir tomoniga yelim qoplangan gazlamadan foydalanib yopishtiriladi. Cho‘ntakning astari avraga moslab bichiladi. Uning yon va pastki tomonlari cho‘ntakdan 0,2...0,3 sm, yuqori cheti esa 2,0...2,5 sm kalta bo‘lishi kerak.

Astarning yuqori qirqimi cho‘ntakning yuqori chetiga mashinada ulanadi. Chok astar tomonga kayriladi va dazmollanadi. Keyin cho‘ntakning yuqori qirqimi belgilangan chiziq bo‘yicha o‘ngiga qayriladi va astar cho‘ntak bilan chiziq bo‘yicha o‘ngiga qayriladi va astar cho‘ntak bilan o‘ngini ichkariga qilib qo‘yiladi, shunda astarning qirqimlari cho‘ntakning yon va pastki qirqimlaridan 0,3...0,4 sm ichkarida turishi lozim. Cho‘ntak va astarning yon hamda pastki qirqimlari avra tomondan 0,5...0,6 sm ichkaridan to‘g‘ri sirma qaviqlar bilan ko‘klanadi; bunda pastki burchaklarning dumaloqlanish joylarida avra gazlamasi solqiroq qilib ketiladi. Avra va astar qiyshayib qolmasligi kerak. Cho‘ntakning yon va pastki chetlari 5...7 sm li teshik qoldirib astar tomondan ag‘darma chok bilan tikiladi. Chokning eni 0,5 sm. Ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi. Cho‘ntakning yon chetida qoldirilgan teshik orqali cho‘ntak o‘ngiga ag‘dariladi. Cho‘ntak chetlari to‘g‘rilanadi va astar tomondan chetidan 0,5 sm ichkaridan 0,5...0,7 sm uzunlikdagi to‘g‘ri qaviqlar bilan ziylari ko‘klanadi. Tayyor cho‘ntak dazmollanadi, cho‘ntak yonida qoldirilgan teshik qo‘lda tikib qo‘yiladi. Ziy ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi va cho‘ntakning



109-rasm. Ust kiyimdagi qopqoqli va qirqimli qoplama cho‘ntak

o‘ngiga hamda teskarisiga dazmolmato qo‘yib yana bir marta dazmollanadi.

Qirqmali va qopqoqli qoplama cho‘ntak (109-rasm) uchun quyidagi detallar zarur: cho‘ntakqopqoq (1); qoplama cho‘ntak qopqog‘ining astari (1); avra gazlamasidan bichilgan mag‘iz (1); qoplama cho‘ntak astari (1); bo‘ylama (1).

Qoplama cho‘ntak qopqog‘i qopqoqli qirqma cho‘ntak kabi ishlanadi. Astar tomondan cho‘ntakqopqoqqa tikish chizig‘i belgilanadi. Chok uchun 1 sm qoldirib, ortiqcha gazlama kesib tashlanadi.

Qo‘shimcha andaza yoki bichiqchi belgilangan chiziqlar bo‘yicha tayyor cho‘ntakning chetlari belgilanadi. Cho‘ntakning hamma tomonidan qayirish uchun 1 sm qo‘yim qoldiriladi, ortiqcha gazlama kesib tashlanadi, so‘ngra cho‘ntakqopqoqni tikish chizig‘i va cho‘ntak qirqimining o‘lchami belgilanadi. Qirqim chetlari tayyor cho‘ntak chetlaridan bezak baxyaqator enicha qochib turishi lozim.

Qoplama cho‘ntak teskarisiga belgilangan chiziq bo‘yicha qirqimlardan 0,5 sm ichkaridan ikkita baxyaqator bilan bo‘ylama ko‘klanadi. Bo‘ylamaning o‘rtasi belgilangan chiziqqa to‘g‘ri kelishi kerak. Ko‘klash 3 sm uzunlikdagi to‘g‘ri sirma qaviqlar bilan bajariladi.

Mag‘izning pastki qirqimi astarning yuqori qirqimiga o‘ngini ichkariga qilib qo‘yiladi va eni 0,5 sm li chok bilan ulanadi. Chok astar tomonga dazmollab yotqiziladi.

Qoplama cho‘ntakning o‘ngiga cho‘ntakqopqoq o‘ngini ichkariga, ishlangan chetini yuqoriga qaratib qo‘yiladi, cho‘ntakqopqoq va qoplama cho‘ntakdagi chiziqlarni bir-biriga to‘g‘ri keltirib, 1 sm uzunlikdagi to‘g‘ri sirma qaviqlar bilan ko‘klanadi. Cho‘ntakqopqoq ko‘klash chizig‘idan 1 sm ichkaridan mashinada ulanadi. Chokning boshi va oxiri puxtalanadi. Ko‘klash ipi so‘kib tashlanadi. Chok cho‘ntakqopqoq tomonga qayriladi.

Cho‘ntakqopqoqni tikish chokiga taqab, cho‘ntakning o‘ngiga cho‘ntak xaltali mag‘iz teskarisini pastga qaratib ko‘klanadi va mashinada tikiladi. Chokning boshi va oxiri puxtalanadi. Cho‘ntakqopqoqni va bo‘ylamadagi mag‘izni tikish baxyaqatorlari orasidagi masofa 0,4...0,5 sm bo‘lishi kerak. Ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi. Mag‘izni tikish choki yorib dazmollanadi, bunda qoplama cho‘ntak bir tomonga, mag‘iz ikkinchi tomonga qayriladi.

Qoplama cho‘ntak teskarisiga belgilangan chiziq bo‘yicha qirqimlardan 0,5 sm ichkaridan ikkita baxyaqator bilan bo‘ylama ko‘klanadi. Bo‘ylamaning o‘rtasi belgilangan chiziqqa to‘g‘ri kelishi kerak. Ko‘klash 3 sm uzunlikdagi to‘g‘ri sirma qaviqlar bilan bajariladi.

Mag‘izning pastki qirqimi astarning yuqori qirqimiga o‘ngini ichkariga qilib qo‘yiladi va eni 0,5 sm li chok bilan ulanadi. Chok astar tomonga dazmollab yotqiziladi.

Qoplama cho‘ntakning o‘ngiga cho‘ntakqopqoq o‘ngini ichkariga, ishlangan chetini yuqoriga qaratib qo‘yiladi, cho‘ntakqopqoq va qoplama cho‘ntakdagi chiziqlarni bir-biriga to‘g‘ri keltirib, 1 sm uzunlikdagi to‘g‘ri sirma qaviqlar bilan ko‘klanadi. Cho‘ntakqopqoq ko‘klash chizig‘idan 1 sm ichkaridan mashinada ulanadi. Chokning boshi va oxiri puxtalanadi. Ko‘klash ili so‘kib tashlanadi. Chok

cho‘ntakqopqoq tomonga qayriladi.

Cho‘ntakqopqoqni tikish chokiga taqab, cho‘ntakning o‘ngiga cho‘ntak xaltali mag‘iz teskarisini pastga qaratib ko‘klanadi va mashinada tikiladi. Chokning boshi va oxiri puxtalanadi. Cho‘ntakqopqoqni va bo‘ylamadagi mag‘izni tikish baxyaqatorlari orasidagi masofa 0,4...0,5 sm bo‘lishi kerak. Ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi. Mag‘izni tikish choki yorib dazmollanadi, bunda qoplama cho‘ntak bir tomonga, mag‘iz ikkinchi tomonga qayriladi.

Cho‘ntak qirqimi xuddi qopqoqli qirqma cho‘ntakniki kabi ochiladi. Cho‘ntak qirqimi orqali astarli mag‘iz teskarisiga ag‘dariladi, chetlarini to‘g‘rilab, mag‘izdan eni 0,4...0,5 sm li kant hosil qilinadi (kantning eni mag‘iz va cho‘ntakqopqoqni tikish baxyaqatorlari orasidagi masofaga bog‘liq) va mag‘izning ziyi tikish chokidan 0,1...0,2 sm ichkaridan ko‘klanadi. Cho‘ntak astari tekislanadi va chetlaridan 4 sm ichkaridan 2,5-3 sm li to‘g‘ri sirma qaviqlar bilan ko‘klanib, kant mag‘izni ulash chokiga mashinada puxtalanadi. Cho‘ntak qirqimining pastki cheti modelda ko‘zda tutilgan masofada baxyaqator bilan bezalishi mumkin.

Cho‘ntakqopqoqni tikish choki teskarisiga ag‘dariladi va qayirib ko‘klanadi. Qoplama cho‘ntak astari yon va pastki tomonlarga parallyel ravishda cho‘ntak avrasidan 1,1...1,2 sm ensizroq qilib kesiladi.

Qoplama cho‘ntak qirqimlari bo‘r chiziqlar bo‘yicha teskarisiga qayriladi va chetlaridan 0,5 sm ichkaridan 0,7...1 sm uzunlikdagi to‘g‘ri sirma qaviqlar bilan bukib ko‘klanadi. Bunda cho‘ntakning bukib ko‘klangan yuqori qirqimi cho‘ntakqopqoq qirqimiga taqalib turadigan qilib kesiladi. Bukib ko‘klashdan so‘ng burchaklar va dumaloqlangan joylardagi ortiqcha gazlama qirqib tashlanadi hamda burchaklari qo‘lda yashirin biriktirma qaviqlar bilan tikiladi. Cho‘ntak dazmollanadi, chetlari to‘g‘rilanadi. Kiyimlarni ko‘plab tikishda teskarisidan cho‘ntak chetlari bo‘yicha yelim plyonka qo‘yiladi.

Kiyim old bo‘lagida cho‘ntak o‘rni belgilab olinadi. Kiyim old bo‘lagining teskarisiga cho‘ntak avrasining belgilangan chizig‘i bo‘yicha bo‘ylama ko‘klanadi yoki cho‘ntakning yuqori burchaklari tagiga yelimli yoki yelimsiz gazlama bo‘lagi qo‘yiladi.

Cho‘ntak kiyim oldiga belgilangan chiziqlar yoki nusxalama qaviqqator bo‘yicha qo‘yiladi va to‘g‘ri qaviqlar bilan ko‘klab ulanadi. Cho‘ntak avradan solqiroq bo‘lishi kerak. Qaviqlarning uzunligi 2...4 sm.

Cho‘ntak chetlari kiyim old bo‘lagiga yashirin biriktirma qaviqlar bilan tikiladi. 1 sm ga 3 qaviq to‘g‘ri kelishi lozim. Kiyimlarni ko‘plab tikishda cho‘ntaklarning chetlari yelim plyonka yordamida pressda mahkamlanadi. So‘ngra cho‘ntak kiyim old bo‘lagiga bostirib tikiladi; uning yuqori tomoni cho‘ntakqopqoq ulangan chokka, boshqa tomonlari esa chetdan modelda ko‘zda tutilgan masofada tikiladi.

Cho‘ntak uchlariga qopqokli qirqma cho‘ntakdagidek puxtalamalar qo‘yiladi. Ko‘klash iplari so‘kib tashlanadi. Tayyor cho‘ntakni teskarisidan va o‘ngidan dazmolmato orqali dazmollab, cho‘ntakqopqoq va cho‘ntak chetlari tekislab ketiladi. Cho‘ntak dazmol yoki press bilan dazmollanadi.

Kiyim choklaridagi cho‘ntaklarni ishlash.

Choklardagi cho‘ntaklar listochkali va listochkasiz, bezak baxyaqatorli yoki bezak baxyaqatorsiz bo‘lishi mumkin.

Choklar va taxlamalardagi listochkali cho‘ntak. Bunday cho‘ntakni (100-rasm) ishlash uchun quyidagi detallar zarur: modelga qarab asosiy materialdan yoki bezak gazlamadan bichilgan listochka (1); asosiy materialdan ikki qismli qilib bichilgan cho‘ntakxalta (1). Listochkada uni tikish chizig‘i belgilanadi. Asosiy detalda kertimlar yoki bo‘r chiziqlar bilan cho‘ntak o‘rni belgilanadi.



100-rasm. Chokdagi listochkali cho‘ntak.

Listochka o‘ngi bilan avra detalning o‘ngiga qo‘yiladi, chetlari detal chetiga to‘g‘rilanadi, shunda listochkaning qirqimlari asosiy detal qirqimlari yo‘nalishida yotishi kerak. Shundan keyin, belgilangan chiziq bo‘yicha mashinada ulanadi. Yakka tartibda tikiladigan kiyimlarda mashinada ulashdan oldin ko‘klab olinadi. Asosiy detal tomonda (chokning eni kamida 1-1,5 sm bo‘lishi kerak. So‘ngra listochkaga cho‘ntakxaltaning bir qismi o‘ngini ichkariga qilib qo‘yiladi, shunda uning yuqori cheti listochkaning yuqori chetidan 1-1,5 sm chiqib turishi lozim. Shu holda listochkani ulash baxyaqatoriga yoki undan 0,1 sm qochirib mashinada ulanadi. Cho‘ntakxalta tomonda chokning eni 1 sm.

Ko‘plab ishlab chiqarishda listochka kertimlar bo‘yicha asosiy detalning yuqori qismiga o‘ngini pastga, qirqimlarini asosiy detal qirqimlari tomonga qaratib qo‘yiladi. Listochkaga cho‘ntakxalta o‘ngini pastga qilib qo‘yiladi va bitta baxyaqator bilan tikiladi. Agar cho‘ntak taxlamada joylashgan bo‘lsa, listochkani tikish baxyaqatori taxlamaning tashqi bukigi bo‘yicha o‘tishi zarur.

Cho‘ntakxaltaning ikkinchi qismi asosiy detalning pastki qismigaeni 1,0 sm li chok bilan ulanadi. Cho‘ntakxalta asosiy detal teskarisiga qayriladi. Ip gazlamadan tikiladigan kiyimlardagi choklar to‘g‘rilanadi, shoyi va jun gazlamalardan tikiladigan kiyimlardagi choklar esa dazmollab yotqiziladi. Cho‘ntakxalta uch tomonidan mashinada tikilib, burchaklaridagi baxyaqator dumaloqlab ketiladi. Cho‘ntaklarning uchlari qo‘sh qaytma baxyaqator bilan puxtalanadi. Cho‘ntakxalta qirqimlari va uni asosiy detalga ulash choklari maxsus mashinada yo‘rmaladi. Jun va shoyi gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda listochka to‘g‘rilanadi va o‘rtasidan bitta baxyaqator bilan ko‘klanadi. Listochka uchlari asosiy degalga modelda ko‘zda tutilgan masofada bostirib tikiladi yoki orqasiga ip gazlama bo‘lagi qo‘yib, qo‘lda yashirin biriktirma qaviqlar bilan qayirib tikiladi.

## 4.11. NIMCHALARNI MODELLASHTIRISH, O‘LCHOV OLISH VA GAZLAMA TANLASH.

Nimcha. Ko‘krak vitochkali nimcha xar xil fasondagi nimchalar bichimiga asos bo‘lib, ular asosan zich to‘qilgan yumshoq, gazlamalardan, zamsha va charmdan tikiladi. (111-rasm). Nimchaning asosiy o‘lchovlari 112-rasmda.



111-rasm. 112-rasm.

O‘lchovlarni olish qoidasi

1. BAyar-bo‘yin aylanasi. Ettinchi umurtqa pog‘onasidan bo‘yin chuqurchasigacha o‘lchanadi va uning yarmi yoziladi.

2. KAyar - ko‘krak aylanasining yarmi. Orqa ko‘krak, qo‘ltik tagi, ko‘kraklar usti bilan o‘lchanadi va uning yarmi yoziladi.

3. BkAyar - bo‘ksa aylanasining yarmi. Bo‘ksaning eng katta qismi ustidan aylantirib o‘lchanadi va yarmi yoziladi.




113-rasm. Gorizontal va vertical chiziqlar chiziladi

4. OrBU - ort bo‘lagining belgacha uzunligi. Ettinchi umurtqa pog‘onasidan tug‘ri chiziq bo‘yicha belgacha uzunlik o‘lchanadi va to‘liq yoziladi.

5. KU - kiyimning uzunligi. Ettinchi umurtqa pog‘onasidan bo‘ksagacha o‘lchanadi va to‘lik yoziladi.

6. EU - yelka uzunligi. Bo‘yin bilan yelkaning kesishgan nuqtasi va yelkaning ko‘l bilan ulangan oralig‘i o‘lchanadi.

7. KO - ko‘kraklar oralig‘i o‘lchanadi va yarmi yoziladi.

8. Bel Ayar - bel aylanasining yarmi. Gavdaning eng xipcha joyidan aylantirib o‘lchanadi va uning yarmi yoziladi.

Yordamchi o‘lchovlar

Har qaysi gavdaning tuzilishida orqaning kengligi va ko‘krakning balandligi har xil bo‘ladi. Shu o‘lchovlarni proporsional hisoblashda chiqqan son tug‘ri

kelavermaydi. Shuning uchun bu o‘lchovlarni xamma o‘zidan o‘lchab olishi kerak.

Nimcha uchun gazlama tanlash

Nimcha milliy kiyim xisoblanadi. Uni yubka yoki shim bilan kiysa bo‘ladi. Gazlama tanlashda kiyimni qaysi yoshdagi kishi kiyishi, uning boo‘-basti, rangi, ozg‘in yoki semizligi hisobga olinadi. Kiyim erkin xarakatlarga xalaqit bermaydigan bo‘lishi kerak.

Nimcha andazasining chizmasini chizish

Gorizontal va vertikal chiziqlar chiziladi (113- rasm). Ikki chiziq kesishgan joyga A xarfi koo‘iladi. A dan tik chiziq bo‘yicha nimchaning uzunligi qo‘yiladi:

AN=KU=60

Bo‘yin chizig‘i. A nuqtadan o‘ng tomonga kiyimning kengligi qo‘yiladi va o‘nga chok xaki qo‘shiladi.

AV=KAyar+Q=44+2 sm=46sm

Nuqtalar birlashtirilib to‘g‘ri to‘rtburchak hosil qilinadi. Belgacha uzunligi. A nuqtadan tik chiziq bo‘yicha belgacha o‘lchab qo‘yiladi.

AT=OrBU=36 sm

T nuqtadan o‘ngga bel chizig‘i o‘tkaziladi.

Ko‘krak chizig‘i. A nuqtadan tik chiziq bo‘yicha ko‘krak aylanasining uchdan bir qismiga tekislik xaqi qo‘shib qo‘yiladi:

AG=KAyar:3+5 sm=44:3+5 sm=19,7 sm

G nuqtadan AV ga parallel chiziq chiziladi. Bu ko‘krak chizig‘i bo‘ladi. T nuqtadan pastga bel va bo‘ksagacha bo‘lgan uzunlik 16 -18 sm o‘lchab qo‘yiladi: TB=16 sm.



114- rasm.

Bu nuqtadan o‘ngga chiziq tortiladi. Orqa ko‘krak kengligi. G nuqtadan o‘ngga orqa ko‘krak kengligi o‘lchovi o‘lchab qo‘yiladi: Yanada aniqrog‘i yordamchi o‘lchov qurq qo‘yiladi.Eng o‘mizining kengligi:

$GG_3$=KAyar:4=44:4=11 sm

$G_2$ va $G_3$ nuqtalardan yuqoriga qaratib tik to‘g‘ri chizimar chiziladi. Yon chizig‘ini chizish. $G_2$ va $G_3$ kesmaning o‘rtasi topiladi. $G_3$ nuqtadan pastga tik chiziq chiziladi. Kiyim ikki qismdan, orqa va old bo‘lakdan iborat bo‘ladi.

Nimchaning ort bo‘lagini chizish

Amaliy mashgulot uchun chizg‘ich, qalam, sm lenta, rezinka, daftar, masshtabli chizgich kerak bo‘ladi.

Ishni bajarish. . Yoqa o‘miz kengligi.

A nuqtadan o‘ngga bo‘yin aylanasining uchdan bir kismiga 0,5 sm to‘kislik haqi qo‘shib chiziladi.

AR=BAyar:3+0,5= 17,5:3 + 0,5=6 sm. Yoqa o‘mizning balandligi doimiy

ulchov 2 sm:RR=2 sm. Yelka qiyaligi 1,5 sm dan 2,5 sm gacha yelka tuzilishiga qarab olinadi: $A_1A_2$=2 sm.

Yelkaning uzunligi. $R_1$ nuqtadan yelka qiyaligi. $A_3$ nuqta orqali $P_1$P=EU+1,5 sm vitochka chuqurligi qo‘shilib $R_1$P=13+1,5= 14 sm o‘lchab qo‘yiladi. Bu vitochkaning uzunligi 7 yoki 8 sm qilib olinadi.

Eng o‘mizni chizish uchun yordamchi nuqtalardan foydalaniladi. Buning uchun A| $G_2$ kesma to‘rt bo‘lakka bo‘linadi. $A_1$ $G_2$=AG; $A_1G_2$= 19,7:4=5 sm. Pastki bir bo‘lagini X nuqta, yuqoridagi bo‘lagini A nuqta bilan belgilaymiz. $G_2$ nuqtadan doimiy ulchov $G_2$ 0=3 sm ulab O nuqta bilan belgilaymiz. P nuqtani X nuqta bilan O va $G_4$ nuqtalar bilan birlashtirsak, ort bo‘lagining eng o‘miz chizigi kosil bo‘ladi.

Old bo‘lagini chizish. (114- rasm**)**

Old bo‘lagining yoqa o‘miz yuqori nuqtasini aniqlash uchun ko‘krak chizig‘idagi $G_1$ nuqtadan yuqoriga $G_1$ $V_1$=KA yar:2+1 bo‘yicha, yanada anikrog‘i KB=22 sm o‘zidan o‘lchab olingan balandlik qo‘yiladi. $G_1$ $V_1$=KB o‘lchab qoo‘ilsa, aniq bo‘ladi.

$G_1V_1$=KAyar:2+1 formulasi hamma gavdaga to‘g‘ri kelavermaydi. Yoqa o‘mizning kengligi $V_1V_2$=BAyar:3+0,5= 17,5:3+0,5=6 sm o‘lchab qo‘yiladi.

Yoqa o‘mizning chuqurligi $VV_3$=3,5 sm o‘lchab qo‘yiladi.

Yoqa o‘mizning egriligini chiqarish uchun $V_2V_3$ kesmani ikkiga bo‘lamiz va $0_1$ nuqtadan 1,5 sm li perpendikulyar chiziq chizib $O_2$ nuqta qoo‘amiz. $V_20_2$ $V_3$ nuqtalar birlashtiriladi.

Yelka qiyaligini chizish. $A_1G_2$ kesmaning yuqoridagi to‘rtdan bir bo‘lagini $A_1$ deb belgilaymiz. $V_2$ nuqtani $A_4$ nuqta bilan birlashtiramiz. $V_2$ nuqtadan chapga doimiy o‘lchov 4 sm ni o‘lchab $V_4$ xarfi bilan belgilaymiz.

Ko‘krak vitochkasini chizish. $G_1$ nuqtadan chapga ko‘krak chizig‘i ustiga KO=9sm o‘lchab $G_5$ nuqtani qoo‘amiz. $G_5$ va $V_4$ nuqtalarni birlashtiramiz. $T_3B_4$ kesma vitochkaning bir tomoni bo‘ladi.

Yelkadagi vitochka chuqurligini aniqlash.

$V_4V_5$=KAyar:8=44:8=5,5 sm o‘lchab qo‘yiladi. Ko‘kragi kattalar uchun shu *5,5* sm+1=6,5 sm o‘lchab qo‘yiladi. Ko‘kragi kichik gavdada *5,5*-1=4,5 sm o‘lchab qo‘yiladi. Vitochka tomonlari tenglashtiriladi. $G_3V_4$=$G_5$,$V_6$- Yelka qiyaligi chizig‘i ustiga $B_5$ nuqtadan EU=4 sm. =13-4=9 sm o‘lchab qoo‘amiz va $P_1$ nuqta qoo‘amiz. $P_1$ dan $A_2G_3$ kesmaning to‘rtdan bir bo‘lagi 2x ni tutashtiruvchi chiziq chizamiz. $P_1$ nuqtadan pastga 1,5 sm o‘lchab $P_2$ nuqta qoo‘amiz. $P_2$ nuqtani $V_6$ nuqta bilan birlashtiramiz. Old bo‘lagining yelka chizig‘i hosil bo‘ladi.

$P_2$ 2X kesma ikkiga bo‘linadi - $O_3$ deb belgilanadi. $O_30_4$ =0,5 sm li perpendikulyar chiziq chiziladi. $G_3$ nuqtadan 2,5 sm li bissektrisa chizig‘i chiziladi –$G_3O_5$=3 sm. 2X ni $O_5$ va $G_4$ bilan birlashtirilsa, old bo‘lagining eng o‘miz egri chizig‘i hosil bo‘ladi.

Beldagi vitochkaning chukurligini kisoblash

(KAyar+2) -(BAyar+2) = (44+2) - (34+2) = 10 sm. Chiqqan ayirma - 10 sm ni beldagi vitochkaning chuqurligiga taqsimlaymiz. Old bo‘lagiga 4 sm ni, orqa bo‘lagiga 3 sm ni va yoniga 3 sm taqsimlaymiz. Ko‘krak chizig‘idan 3-4 sm pastrog‘idan nuqta olib vitochkaning chu`urligi nuqtalari bilan birlashtiramiz.

Nimchaning yon chizig‘ini aniqlash.

(BkAyar+2):2=(48+2):2=50:2=25 sm. $B_1B_2=BB_3=25$ sm. $G_4B_2$ nuqta birlashtirilsa, old bo‘lagining yon chizig‘i, $G_4B_3$ ni birlashtirilsa, ort bo‘lagining yon chizig‘i hosil boi`ladi. Quyidagicha hisoblash asosida istalgan o‘lchamga kerakli andaza chizmasini chizish mumkin.

AMALIY MAShG‘ULOT



115-rasm

Yelkadagi vitochkani yon chokiga ko‘chiriladi (115- rasm).

Andazani bichishga tayyorlash.

1.Andazaning nomini yozib qo‘yish.

2.Uning qismlarini yozib chiqish.

3.Andaza necha qismdan iborat ekanligini aniqlash.

4.Andazada gazlamaning buylama ipi yo‘nalishini aniqlash.

5.Andazada gazlamaning buklanadigan joylarini belgilash.

6.Andazada gazlamadan qoldirib bichiladigan chok xaqini yozish.

7.Yelka choki 1-2 sm gacha, eng o‘miz 1 sm, yon choklari 2 sm, etagi 3-4 sm qoldirib bichiladi.

Bichish va tikish paytida xavsizlik qoidalariga rioya qilish, ya’ni:

1) Qaychini uzatishda uning uchlarini yopib, dastasidan ushlab turish;
2) ish vaqtida qaychini yopiq xolda o‘ng tomonga qo‘yish;
3) mashinada tikishda qaychi aylanuvchi qismlar oldida turmasligi;
4) qaychi tikilayotgan gazlama tagida turmasligi;
5) qaychi ma’lum bir joyda saqdanishi kerak;
6) nina va tug‘nog‘ich maxsus yostiqchaga qadalgan xolda saqlanishi;
7) nina va tug‘nog‘ichlarni kiyimga qadab qoo‘maslik;
8)qo‘lda tikish vaqtida angishvonadan albatta foydalanish.

Elektr dazmol bilan ishlaganda:

1) dazmol shnurini tekislab qo‘yish;
2) dazmolni me’yoridan ortiq qizdirib yubormaslik;
3) dazmol taglikka qoo‘ilishi;
4) ish tugagach, uni sovitib uz joyiga qo‘yish kerak.

Gazlamani bichishga tayyorlash

Gazlamalar yuvilganda kirishadi. Gazlamaning shu xossasini hisobga olib, bichishdan oldin uni suvga bo‘ktirib yoki ho‘llab olish kerak. Nam holda dazmollab olinsa, tayyor kiyim keyinchalik kirishmaydi. Shoyi va jun gazlamalarni 2-5 soat ho‘l choyshabga o‘rab qo‘yiladi. Keyin chap tomondan ho‘l latta ustidan dazmollanadi. Dazmol boo‘lama ip yo‘nalishida yurgiziladi. Ip gazlamalar namligida dazmollanadi. Sun’iy shoyilarga suv sachratilmaydi, aks xolda u dog‘ bo‘lib qo‘ladi.

Nimchaga qancha gazlama ketadi?

1. Ensiz gazlamadan: KU+chok haqi KU+chok haqi=60-4+2+60+4+2=66+66=132 sm, ya’ni 2. KU+10 foiz gazlama olinadi.

2. Enli gazlama bo‘lsa: KU+chok haqi=60+6sm=66 sm, ya’ni KU+Yu foiz gazlama olinadi. Yirik gulli gazlama bo‘lsa, 30 foiz gazlama ortiqroq olish kerak.

O‘tilgan mavzular yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Gazlamani bichishga tayyorlang.
2. Guli bir tomonga yo‘nalgan gazlama ustiga andaza qanday joylashtiriladi?
3. Andazaning qismlarini bichishga tayyorlang.
4. Nimcha uchun qancha gazlama kerak?

Nimchani dazmollash uchun uni tikilgan gazlamaning xossasini hisobga olish kerak. Ish davomida vaqtincha qo‘llangan qo‘l choklari sug‘urib olinadi. Bo‘r va qalamlarning izlari tozalanadi. Tukli va jun gazlamalarning o‘ngi va teskari tomoni cho‘tka bilan tozalanadi. Mabodo dazmollash vaqtida kiyimdagi biror chokning usti yaltirab qolsa, o‘sha joyining ustiga emas, balki yaqinrog‘iga qizib turgan dazmol ustiga xo‘l latta tashlab issiq, bug‘ni yo‘naltirish kerak.

Tikilgan kiyimniig sifatini aniqlash

O‘quvchilar stol atrofiga o‘tiradilar.

Tikilgan hamma kiyimlar o‘qituvchi boshchiligida instruksion kartasiga binoan bittadan tekshirib chiqiladi. Vitochkalarni, yelka va yon choklarini, mashina baxyaqatorlarini tug‘ri bajargan o‘quvchilarning ishi yuqori baxolanadi va noxiya, shaxar ko‘rgazmasiga ajratib olinadi. Normadan ortiq yo‘l qoo‘ilgan xatolar tuzatilib, keyin baholanadi.

**Nimchaning yeng umizi quyidagicha tikiladi.**

Yengsiz yoki asosiy detallar bilan yaxlit bichilgan yeng umizlari magiz kuyib, bitta ochik kirkimli magiz chok bilan, ikkala kirkimi yopik magiz chok bilan maxsus moslama yordamida, bitta baxyakator yuritib yoki moslamasiz ikkit baxyakator yuritib, shuningdek, kiya bichilgan beyka ikki bukib kuyib tikilishi kerak (116- racm).



116-Rasm



117-Rasm



118-Rasm

Beyka kuyib ishlov berish xam mumkin. Beykalar juda keng tarkalgan. Ular bir kavatli va kush kavatli buladi (117- racm). Ular bostirib tikiladigan va detal orasiga olib tikiladigan bulishi mumkin. Beykalar gorizontal, vertikal, oval va murakkab chizik buylab joylashtiriladi. Beykani detalning chetlariga kuyib,

agdarma chok bilan tikiladi. Beykalar tanda ipiga 45° burchak ostida yoki kundalang kilib xam bichiladi. Nimchani istalgancha magiz kuyib va beyka kuyib tikish mumkin. Dazmollash. Vitochkalarni bir tomonga yotkizib dazmollanadi. Etagi ustki detaldan zix chikarib bostirib dazmollanadi. Magiz kuyib ishlansa, mag'iz cho'zib dazmollanadi, mag'izni buyumning o'ngiga qo'yib tikish xam mumkin (118-rasm).

***Vitochka chuqurligini hisoblash va chizig'ini aniqlash.***

Yelkadagi vitochka chuqurligini aniqlash.

$V_4V_5$=KAyar:8=44:8=5,5 sm o'lchab qo'yiladi. Ko'kragi kattalar uchun shu 5,5 sm+1=6,5 sm o'lchab qo'yiladi. Ko'kragi kichik gavdada 5,5-1=4,5 sm o'lchab qo'yiladi. Vitochka tomonlari tenglashtiriladi. $G_3V_4=G_5V_6$. Yelka qiyaligi chizig'i ustiga $B_5$ nuqtadan EU=4 sm. =13-4=9 sm o'lchab qoo'amiz va P nuqta qoo'amiz. $P_1$dan $A_2G_3$ kesmaning to'rtdan bir bo'lagi 2 ni tutashtiruvchi chiziq chizamiz. $P_1$ nuqtadan pastga 1,5 sm o'lchab $P_2$ nuqta qo'yamiz. $P_2$ nuqtani $V_6$ nuqta bilan birlashtiramiz. Old bo'lagining yelka chizig'i hosil bo'ladi.

P2 2X kesma ikkiga bo'linadi - $O_3$ deb belgilanadi. $O_30_4$ =0,5 sm li perpendikulyar chiziq chiziladi. $G_3$ nuqtadan 2,5 sm li bissektrisa chizig'i chiziladi $G_3O_{,5}$=3 sm. 2X ni $O_5$ va $G_4$ bilan birlashtirilsa, old bo'lagining eng o'miz egri chizig'i hosil bo'ladi.



119-rasm. Ko`krak vitachkasi yon chiziqqa ko`chirilgan jelatkaning andaza chizmasi.

Beldagi vitochkaning chuqurligini hisoblash

(KAyar+2) -(BAyar+2) = (44+2) - (34+2) = 10 sm. Chiqqan ayirma - 10 sm ni beldagi vitochkaning chuqurligiga taqsimlaymiz. Old bo'lagiga 4 sm ni, orqa bo'lagiga 3 sm ni va yoniga 3 sm taqsimlaymiz. Ko'krak chizig'idan 3-4 sm pastrogidan nuqta olib vitochkaning chuqurligi nuqtalari bilan birlashtiramiz.

Nimchaning yon chizig'ini aniqlash

(BkAyar+2):2=(48 + 2):2=50:2=25 sm. B,B2=BB3=25 sm. G4B2 nuqta birlashtirilsa, old bo'lagining yon chizig'i, $G_4B_3$ ni birlashtirilsa, ort bo'lagining yon chizig'i hosil bo'ladi.

Ko‘krak vitachkasi yon chiziqqa kuchirilgan jelatka (119-rasm). Bu fasondagi jelatkaniig andazasini hosil qilish uchun jelatka oldi va orqasiniig asosin andazalarshda fasonning chiziqlari tushiriladi.

Jelatkaning orqasi (119-rasm, a). A nuqtadan pastga, $Sh_2$ nuqtadan esa o‘ngga 1 sm dan o‘lchab, 1 raqamlari kuyilib, bu nuqtalar bir-biriga tutashtiriladi.

Jelatkaning oldi (119-rasm, b). Shz nuqtadan chapga 1 sm o‘lchab, 1 raqami, PS nuk,tadan pastga 18 sm o‘lchab, 18 razami qo‘yiladi va 1 nuk,tasi 18 nuk,tasiga tutashtiriladi. Yelka vitachkasi bekitilib, S3 nuqtadan pastga 9 om o‘lchab, 9 raqami k.uyiladi va 9 nuqtasi V nuk-';aga tutashtiriladi.



120-rasm.



121-rasm.



122-rasm.

Cho‘ntak. Jelatka oldining o‘rta chizig‘idan chapga bel chizig‘i bo‘yicha 8 sm o‘lchab, 8 raqami qo‘yiladi va 8 nuqtasidan pastga 11 sm o‘lchab, 11 raqami yoziladi. 11 nuqtasidan chapga 17 sm va pastga 18 sm o‘lchab, bu nuqtalar tegishlicha 17 va 18 raqamlari bilan belgilanadi. 17 nuqtasidach pastga 18 sm o‘lchab, 18 raqami qo‘yiladi. 18 va 18 nuqtalari o‘zaro tutashtiriladi.

Andazani gazlama ustiga qo‘yish (119-rasm, v, g). Jelatkaning orqasi o‘rtasiga chok tushadigan qilib bichiladi. Chok haqlari chizmada ko‘rsatilgan. Vitachkani tikkanda baxyaning uchi V nuqtaga 3 sm etkazilmaydi.

Nimchaning eng o‘miz quyidagicha tikiladi**.** Engsiz yoki asosiy detallar bilan yaxlit bichilgan eng umizlari mag‘iz qoo‘ib, bitta ochiq qirqimli mag‘iz chok bilan, ikkala qirqimi yopiq mag‘iz chok bilan maxsus moslama yordamida, bitta baxya qator yuritib yoki moslamasiz ikkita baxyakator yuritib, shuningdek, qiya bichilgan beyka ikki bukib qoo‘ib tikilishi kerak (120-rasm). Beyka qoo‘ib ishlov berish ham mumkin. Beykalar juda keng tarqalgan. Ular bir qavatli va qo‘sh qavatli bo‘ladi (121-rasm). Ular bostirib tikiladigan va detal orasiga olib tikiladigan bo‘lishi mumkin. Beykalar gorizontal vertikal, oval va murakkab chiziq bo‘ylab joylashtiriladi. Beykani detalning chetlariga qoo‘ib, ag‘darma chok bilan tikiladi. Beykalar tanda ipiga 45° burchak ostida yoki kundalang kilib ham bichiladi. Nimchani istalgancha mag‘iz qoo‘ib va beyka qoo‘ib tikish mumkin.

Dazmollash. Vitochkalarni bir tomonga yotkizib dazmollanadi. Etagi ustki detaldan zix chiqarib bostirib dazmollanadi. Mag‘iz qoo‘ib ishlansa, mag‘iz cho‘zib dazmollanadi, mag‘izni buyumning o‘ngiga qoo‘ib tikish ham mumkin (122-rasm).

# BOB.V. ERKAKLAR KIYIMLARINI LOYIHALASH

## 5.1. ERKAKLAR KO‘YLAGI VA UNGA O‘LCHOV OLISH

Erkaklar ko‘ylagi. Erkaklar ko‘ylagi qanday mavsumda, ishda, uyda yoki ko‘chada kiyilishiga qarab turli gazlamalar (pike, ipak gazlama, reps, chit, tafta va xokazo)dan tikiladi. Yoqasimon umizga tikiladigan yoki tugmalab qo‘yiladigan qilish mumkin.

Sirtqi va ichki ko‘ylaklar o‘lchami bo‘yin va ko‘krakinng yarim aylanasi uzunligi bo‘yicha belgilanadi. Xar qaysi o‘lchamda yoqa o‘lchovi va ko‘ylak uzunligi bo‘y uzunligiga bog‘liq bo‘ladi.

Andaza chizmasini chizish uchun quyidagi o‘lchovlar kerak:

-Ko‘ylakning uzunligi - 80 sm

-Orqaning uzunligi - 38 sm

-Yelka kengligi-16 sm

-Bo‘yin qismining yarim aylanasi- 19,5 sm

-Ko‘krakning yarim aylanasi - 48 sm

-Yengning uzunligi -60 sm

-Andaza chizmasini chizish

-To‘g‘ri burchak chizib, uchiga A xarfi qo‘yiladi.

Ko‘ylakning uzunligi. A nuqtadan pastga 80 sm uzunlngida (Ko‘krakning ulchaigan uzunligi) chiziq tushirib, uchiga 11 harfi qo‘yiladi. N nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Yeng o‘mizining chukurligi. A nuqtadan pastga 25 sm (ko‘krak yarim aylanasining ½ qismiga barcha o‘lchamlar uchun 9 sm qo‘shiladi, ya’ni 48:3 + 9 = 25 sm) o‘lchab, G nuqta qo‘yiladi. G nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Bel chizigi. A nuqtadan pastga 40 sm (onka uzunligiga barcha o‘lchamlar uchun 2 sm qo‘shiladi, ya’ni 38 + 2-40 sm) o‘lchab. T nuqta kuynla. i. T nuqtadan o‘ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Orqaning kengligi. G nuqtadan o‘ngga 23 sm (ko‘krak yarim aylanasining 1/z qismiga barcha pazmerlar uchun 7 sm qo‘shiladi, ya’ni 48:3 + 7 = 23 sm) o‘lchab, $G_2$ nuqta kyiladi. $G_a$ nuqtadan yuqoriga gorizontal chiziq, bilan kssishadigan kplib tik chiziq, chikarilib, chiziqlar kssishgan nuqta P bilan belgilanadi.

Yeng o‘mizining kengligi. $G_a$ nuqtadan o‘ngga 14 sm (ko‘krak yarim aylanasining 1/3 qismiga barcha o‘lchamlar uchun 2 sm qo‘shiladi, ya’ni 48:4+2=14 sm) o‘lchab, $G_3$ nuqta qo‘yiladi. $G_3$ nuqtadan yuqoriga gorizontal chiziq bilan kesishadigan tsiglib tik chiziq, chikariladi, chiziqlar kesishgan Hi bilan belgilanadi.

pastga 9 sm uzunlikda tik chiziq tushiriladi. har bo‘lish nuqtasidan o‘ngga va chapga 1 sm dan o‘lchab (vitachka uchun),shu nuqtalar 1 raqamlari bilan belgilanadi; 1 va 1 nuqtalar 9 nuqtaga tutashtiriladi.

Shimning tizzasini tizza chizig‘i bo‘yicha toraytish mumkin; buning uchun $K_3$ nuqtadan o‘ngga va $K_4$ nuqtadan chapga 3-4 sm dan o‘lchab, shu nuqtalar orqali chizmadagidek punktir chiziqlar o‘tkaziladi.

## 5.8. O‘G‘IL BOLALAR JIMFERI

O‘g‘il bolalar jimferi (132- rasm). 44-46- o‘lcham. Bu jemfer uchun 700 g jun ip, 4, 4, 5, 5 va 5,5- no‘merli spisalar kerak bo‘ladi.

To‘qish nusxasi: paypoq nusxa tuqilishi va chirmovlardan romblar hosil qilinadi

Hisob: paypoq nusxa to‘qilishida - 16 halqa=10 sm; 21 qator = 10 sm; romblar hosil qilishda-21 halqa = 10 sm; 21 qator=10 sm.

Jemferning orqasi. Spisalarda 76 halqa hosil qilinadi va 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida 5 sm to‘qiladi. So‘ngra polotnoning yon tomonlarida har 11 sm dan keyin 1 halqadan orttirib ketiladi. Dastlabki qatordan hisoblab 41-sm da eng o‘miz uchun yon tomonlarida qator oralatib 4, 3, 2 va 1 halqadan bekitiladi. Shundan keyin to‘qish o‘zgarishsiz davom ettiriladi. 62-sm da yelka qiyaligini hosil qilish uchun .har tomonda qator oralatib 2 marta 7 halqadan va 1 marta 6 halqadan bekitiladi. Yelka qiyaligi uchun halqalarni ikkinchi bekitishda yoqa o‘miz ham xosil qilinadi. Buning uchun polotno ikki teng qismga bo‘linadi, har qism alohida to‘qiladi. Yoqa o‘miz uchun qator oralatib 8 va 3 halqa bekitiladi va yelka qiyaligi uchun halqalarni bekitish davom ettiriladi.

Jemferning oldi. Spisalarda 76 halqa hosil qilinadi va 1x1 rezinka nusxada to‘qilishida 5 sm to‘qiladi; so‘ngra bir qatorda 21 halqa orttiriladi; 10 marta har 4 halqadan keyin va 12 marta har 3 halqadan keyin (navbatma-navbat) orttiriladi. To‘qish davom ettirilib, ters halqalar ters halqa qilib va o‘ng halqalar o‘ng halqa qilib to‘qiladi, bunda yon tomonlarda har 11 sm dan keyin 1 halqadan orttirib ketiladi. Dastlabki qtordan hsoblab 41-sm da eng o‘miz uchun polotnoning hr ikkala tomonida qtor oralatib 5, 4, 3 va 1 halqadan bekitiladi. 59-sm da markaziy 7 halqa bekitiladi; polotno ikk teng qismga bo‘linib, har qism alo-hida-alohida to‘qiladi. Yoqa o‘mizni hosil qilish uchun oldingi o‘rta chiziqdan ikki tomonga 3, 2 halqa va 5 marta qator oralatib 1 halqadan bekitiladi. So‘ngra to‘qish o‘zgarishsiz davom ettiriladi. Yoqa o‘mizni hosil qilish bilan bir vaqtda yelka qiyaligi uchun 62- sm da qator oralatib 2 marta 8 halqadan va 1 marta 9 halqadan bekitiladi.



132-rasm. O`g`il bolalar junli jemfer.

Eng. Spisalarda 37 halqa hosil qilinadi va 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida 5 sm to‘qiladi. So‘ngra , paypq nusxa to‘qilishida 40 sm to‘qib, yon tomonlarda har 3 sm dan , keyin bir halqadan (jami 26 halqa) orttiriladi. Dastlabki qatordan hisoblab 46-sm da engning eng baland qismi (eng boshi)ni hosil qilish uchun yon tomonlarda 5, 4, 3 halqa va 8 marta 1 halqadan, so‘ngra qator oralatib 2, 3, 4 halqadan bekitiladi. Qolgan halqalarning hammasi bir qatordayoq. bekitiladi. Ikknnchi eng ham shunday to‘qiladi.

Yelka choklari va yon choklar ulanadi. Bo‘yin aylanasida spisaga 100 halqa o‘tqazib, 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida 12 sm to‘qiladi, bunda spisalarning diametri 3 marta uzgartirilishi, oxirgi 7 sm diametri 5,5 mm bo‘lgan spisalar yordamida to‘qilishi lozim.

## 5.9. QIZLAR JIMFERI.

Qizlar jmferi. (133-rasm) 42-o‘lcham. Bu jimfer uchun 450 g jun ip va 3, 4 hamda 5 nomerli spisalar kerak bo‘ladi.

To‘qish nusxasi : paypoq nusxa to‘qilishi

Hisob: 23 halqa+ 10sm , 35 qator =10




133-rasm. Qizlar jimferi.

Jimferning orqasi: 3 nomerli spisalardan 98 halqa hosil qilinadi va 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida 3 sm to‘qiladi. So‘ngra paypoq nusxa to‘qilishida 34 sm to‘qiladi. Dastlabki qatordan hisoblab 38 sm day eng o‘miz uchun yon tomonlarda qator oralatib 5, 3,2 va 1 petliyadan bekitiladi. Keyin to‘qish uzgarishsiz davom ettiriladi. Dastlabki qatordan hisoblab 56-sm da yelka qiyaligi uchun polotnoning yon tomonlarida qator oralatib 5 marta 5 halqadan bekitiladi: Yoqa o‘mizning o‘rtada qolgan 26 halqasi to‘g‘nog‘ichga o‘tkaziladi.

Jimferning oldi. Spisalarda 99 halqa hosil qilinadi va 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida 3 sm to‘kiladi, so‘ngra paypoq nusxa to‘qilishida 27 sm to‘qiladi. Dastlabki qatordan hisoblab 31-sm da bir rangli ipdan jimferning ko‘kragiga tushadigan qiyiqning burchagi to‘qila boshlaydi Halqalar quyidagicha taqsimlanadi va to‘qiladi:

1-qator - 49 halqa olachipor ipdan to‘qiladi.

2 va 3 - qatorlar 1- qatorlar kabi to‘qiladi.

4-qator - 48 halqa olachipor ipdan, 3 halqa sidirg‘a rang ipdan,48 halqa yana olachipor ipdan to‘qiladi.

5- va 6- qatorlar 4 -qator kabi to‘qiladi.

7-qator - 47 halqa olachipor ipdan, 5 halqa sidirg‘a rang ipdan, 47 halqa olachipor ipdan to‘qiladi.

8- va 9- qatorlar yelka qiyaligiga etguncha 7-qator kabi to‘qiladi. Jimferning oldingi yarmini to‘qish uchun 3 o‘ram ip olish kerak; o‘ramlardan chuvatilayotgan iplar polotnoning teskari tomonida chatishtirilishi va to‘qish zichligi o‘zgarmasligi uchun tortib-tortib qoo‘ilishi lozim. Sidirg‘a rang halqalarni har 3- qatorda: 1 marta o‘ng halqalar qatorida va 1 marta ters halqalar qatorida o‘ng va chap tomonlarga jildirib olachipor rang halqalar o‘rnini egallash kerak. Dastlabki qatordan hisoblab 33- sm da uzun-qisqa qatorlar to‘kish yo‘li bilan yelka vitachkasini hosil qilish, bunda yon tomonlarda qator oxiriga 6 halqa etkazmay to‘qilishi va bu 4 marta takrorlanishi lozim. 38-sm da eng o‘miz uchun yon tomonlarda qator oralatib 5, 3, 2 va 1 halqadan bekitiladi. 50- sm da 8 markaziy halqa to‘g‘nag‘ichga o‘tkaziladi; keyin jimferning xar yarmi alohida-alohida to‘qiladi. Yoqa o‘mizni to‘qish uchun to‘g‘nog‘ichga 3, 2 halqa va qator oralatib 5 marta 1 halqadan o‘tkaziladi. So‘ngra 10 qator uzgarishsiz to‘qiladi. 56- sm da yelka qiyaligi uchun yon tomonlarda qator oralatib 5 marta 5 halqadan bekitiladi. Jimfer oldining ikkinchi yarmi ham shunday to‘qiladi.

Eng. Spisalarda 50 halqa hosil kilinadi va 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida 3 sm to‘qiladi; so‘ngra paypo‘ nusxa to‘qilishida davom ettiriladi; eng kengayib borishi uchun polotnoning yon tomonlarida har 8-qatorda bir halqadan orttirib ketiladi. Dastlabki qatordan hisoblab 39- sm da engning eng baland qismini hosil qilish uchun yon tomonlarda qator oralatib 5, 3, 2 halqa, 14 marta 1 halqadan va 2, 3, 4, 7 halqadan bekitiladi. Ikkinchi eng xam shunday to‘qiladi.

Yon choklar va yelka choklari ulanadi. Yoqa o‘mizdagi ochiq halqalar spisaga kiygiziladi, bu halqalarga yoqa o‘mizning yon tomonlaridagi (chetki halqalar ustunchasi bo‘yicha) halqalar ham qo‘shilib, 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida yoqa to‘qiladi;. balandligi 12 sm keladigan yoqani to‘qiyotganda u kengayib borishi uchun spisalar diametrini 2-3 marta oshirish (yo‘gon spisa olish) kerak, jimferning ko‘krak qismidagi qiyiq (vstavka) qanday rang ipdan to‘qilgan bo‘lsa, shokila va bog‘ichni ham shu rangdan to’qish, so‘ngra shokilani mazkur bog‘ich yordamida qiyiqningpastki burchagiga rasmdagidek biriktirish kerak.

Yosh bolalar kurtkasi.(134-rasm) bu kurtka uchun 400 ga jun ip va 3 nomerli spisa kerak bo‘ladi.

To‘qish nusxasi: paypoq nusxa to‘qilishi “moo‘na” to‘qilishi. 1x1 rezinka

to‘qilishi.




134-rasm

Hisob: paypoq nusxa to‘qilishida 23 petliya=10 sm, 40 qator =10 sm, “mo‘yna” to‘qilishida 20 halqa=10 sm; 33 qator=10 sm.

K u r t k a n i n g orqasi. Spisalarda 80 halqa hosil qilinadi va 1x1 rezinka to‘qilishida 3 sm to‘qiladi, so‘ngra paypoq toqilishida 27 sm to‘qilib, polotnoning yon to monlarida har 13 sm dan keyin halqadan orttirib ketiladi. Keyin yelka qiyaligiga etguncha o‘zgarishsiz to‘qdladi. Dastlabki qatordan hisoblab 47 sm da yelka qiyaligini hosil qilish uchun qator oralatib navbatma-navbat 2 marta 5 halqadan va 1 marta 6 halqadan bekitiladi. O‘tada qolgan 22 halqa tug‘nag‘ichga kiygiziladi.

K u r t k a n i n g oldi (chap yarmi). Spisalarda 4.1 halqa hosil qilinadi va 1x1 rezinka to‘qilishida 3 sm to‘qiladi. So‘ngra bezak planka uchun 10 halqa 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida to‘qiladi. Qolgan ters halqalar ters halqa qilib, o‘ng halqalar o‘ng halqa qilib to‘qiladi, bunda polotnoning yon tomonlarida har 13 sm dan keyin bir halqadan (har tomonda 2 halqadan) orttlriladi. Dastlabki qatordan hisoblab 31-sm da eng o‘miz uchun yon tomonlarda qator oralatib 3, 2 va 2 marta 1 halqadan bekitiladi 43- sm yoqa o‘miz uchun tug‘nag‘ichga qator oralatib 5, 3, 2 halqadan va 4 marta1 halqadan o‘tkaziladi. So‘ngra to‘qish o‘zgarishsiz davom ettiriladi.47- sm da yelka qiyaligini .hosil qilish uchun qator oralatib 4 marta 5 halqadan bekitiladi. Kurtka oldining o‘ng yarmi ham shu tarzda to‘qiladi.

Eng. Spisalarda 42 halqa hosil qilinadi va 1x1 rezinka nusxa to‘qilishida 3 sm, paypoq, nusxa to‘qilishida 37 sm to‘qiladi; bunda yon tomonlarda har 10-qatorda 1 halqadan jami 14 marta orttiriladi. Dastlabki qatordan hisoblab 41-sm da eng boshini hosil qilish uchun yon tomonlarda qator oralatib 3, 2 va 14 marta 1 halqadan, so‘ngra qator oralatib 2, 3, 4 va 7 halqadan bekitiladi. Ikkinchi yeng ham shu tariqa to‘qiladi.

Tayyor detallar ho‘l latta orqali dazmollanadi. Yelka choklari va yon choklar ulanadi. Oldingi yoka o‘miz bilan orqadagi yoqa o‘mizning to‘g‘nag‘ichlardagi

ochiq halqalari spisalarga o‘tkaziladi Ularga oldingi yoqa o‘mizning yon tomonlaridagi eng chetki ustunchalardan teng miqdorda halqalar qo‘shiladi. Shundan keyin yoqaning tik qismi, ya’ni stoykasi 1x1 reznika nusxa to‘qilishida 5-7 sm balandligida to‘qiladi, stoykaning halqalari bekitiladi. Oldingi bezak plankaga «molniya» tikiladi. Englar umizga o‘tqaziladi.

## QO‘SHIMCHA TAKLIF QILINADI.

## 12.TO‘GARAK ISHLARI UCHUN GILAMChILIK XAQIDA.

**Gilam** dastgox, yordamida qulda yoki mashinalarda bir tomoni patli, ko‘p satli, odatda ko‘p rangli, gulnak,shli, ba’zan tasvir hosil qilib tukiladi. Xesha ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni susaytirish uchun zarur. Pati (urishiga, ba’zan arqogiga yonma-yon bog‘lab, so‘ng qaychi bilan tekislab kisib hosil qilinadi)ning uzuiligi 3 mm dan 18 mm gacha (ung tomondan arqoq, va urish ustini koplab hosil bo‘lgan pati gilamning yumshoq, qalin, issiq, chidamli va nafis bulishini ta’minlaydi).

Gilamning tuzima gulli (guli, tasviri gilam to’qish jarayonida gilamning teskari tomoniga utkazib tuqiladigan), bosma gulli (tukib tayyorlangan gilamga guli buyab bosiladigan) turlari keng tarqalgan.

Qulda tukilgan gilam. Dastgohda qulda tukilgan gilamlar chidamliligi, nafosati bilan mashina gilamlaridan afzal bo‘ladi, yaxshi saqlansa un yillab, hatto yuz yillab xizmat qiladi. Gilam to’qishda jun (quy, echki, tuya), paxta, ipak, zig‘ir tolasidan foydalaniladi. Gilamchilik xalk, ijodi sohasi sifatida qadim zamonlardan rivoj topgan. Har yerda gilam tayyorlash va uni bezashning uziga xos uslubi vujudga kelgan, shuning uchun ham gilamlar tayyorlangan joyning yoki uni tuqigan qabilaning nomi bilan ataladi: masalan, geometrik naqshli turkman gi-lamlari tekin, yovmut, bejirim gilamlari deb ataladi. Kavkaz gilamlariniig mashhur shirvoni, darbandi, axti va boshqa xillari qizil, kuk, zangori, pushti rang, sariq, capg‘ish oq ranglarda gul, barg, qushlar tasviri ishlangani, hayvonlar uslub-lashtirilib ifodalangani bilan ajralib turadi. Ordabili, sinnayi, farogoni, sarruxch, cherizi va boshqa naqchlar bilan mashhur bo‘lgan Eron gilamlarida gul va usimliklar, hayvon va qushlarning uslublashtirilgan doirasimon shakllari ko‘p kuzga tashlaiadi. Baland patli Xitoy gilamlarida bo’rtma naqsh, baliq, hayvonlar, morfologik maxluqlar, sgojetlar, turli gullar tasviri ishlangan bo‘ladi, o’rta qismi ko‘pincha gul ishlanmay, ochiq qoldirilgan, sidirg‘a rang (sariq, ko’k, yashil, binafsha, pushti)da bo‘ladi. Odatda, Xitoy gilamlari tasvir qismlari har xil me’yorda qirqilib, relef, hosil qilingani, tasvir zamini esa qisqaroq patli qilib ishlangani bilan ajralib turadi.

Qo’lda to’qilgan gilamlar hajmiga qarab 3 guruhga bo’linadi: kichik -3 $m^2$ gacha, o’rtacha 3 $m^2$ dan 6 $m^2$ gacha, katta 6 $m^2$ va undan katta gilamlar. Mashinada tuqilgan gilam tashqi ko’rinishi va guli bilan qo’lda to’kilgan gilamdan deyarli farq qilmaydi, faqat chidamsizroq bo‘ladi. Bundan tashqari, mashinada to’qilgan gilamlarda sun’iy tolalardan ham ko‘p foydalaniladi. Gilam to’qishda ishlatiladigan tabiiy tolalar tuzilishini tadbiq etish oqibatida, ularga juda o’xshash kimyoviy

tolalar ishlanadi, hatto ba’zi xossalari bilan tabiiy tolalardan afzalroq sun’iy tolalar ham tayyorlandi (masalan, poliakrilonitril tolalardan tayyorlangan gilamning rangi nurga chidamliroq). To’qilishiga ko’ra gilam turlari ko‘p. Gilamlarning arqog’i ko‘pincha paxta yoki zig’ir tolasidan tayyorlangan pishiq ipdan iborat bo‘ladi. Gilamning hajmi, rangi, guli xona intereri (devor rangi, mebellar qoplangan mato, pardalar va shu kabilarning rangi, gullari)ga qarab tanlanadi.

Gilam to’qish san’ati xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turi bo‘lib, ko‘p asrlik milliy an’ana va uzoq tarixga ega. Gilam to’qish badiiy to’qish hunariga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to’qish san’ati ayniqsa chorvachilik bilan shug’ullanadigan ko’chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamondan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Gilam asosan qolga yoki bo’yra ustiga to’shaladi, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o’tov ichiga o’raladi:

XI-XII asrlarda O‘rta Osiyoda shu jumladan, O‘zbekiston territoriyasida gilam to’qish san’ati juda rivojlangan, XIV asrda esa O‘zbekiston territoriyasida gilam to’qish san’ati rivojlanmay qoldi, chunki mongol bosqinchilari O‘rta Osiyoni egallab olgan edi. XIV asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoning Amir Temur qo’liga o’tishi bilan bu soha yana rivojlanib ketdi. Har xil xorijiy mamlakatlardan olib kelingan ustalar gilam to’qish ustaxonalarida ishlaganlar, XVIII-XIX asr boshlarida ayniqsa, Buxoro va Farg’ona xonliklarida gilam to’qish san’ati tez sur’atlar bilan rivojlandi. Bunda gilam tayyorlash ishining yaxshi, yuqori sifatli to’qililishi, bo’yalish texnikasi bilan ajralib turdi.

XX asr boshlarida Quqon, Samarqand, Andijon, Buxoro, O‘rta Osiyoning gilam to’qib sotish markazi hisoblangan. Lekin XX asr boshlarida bu yerlarda gilam to’qish san’atining rivojlanishi pasayib ketdi. Gilam to’qiydigan mashinalar ixtiro etila boshlandi. Xiva, Andijon, Qarshi, Urgut shaharlarida gilam to’qiydigan korxonalar ochildi. Mashinada to’qilgan gilamlar o‘ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Ularda ko‘pincha gilamlar sun’iy tolalardan to‘qiladi. Gilamlarning aksari ko‘pincha zig‘ir yoki paxta tolasidan tayyorlanadi. 30-yillarda murakkab patli gilamlar mashinalarda tuqiladigan buldi. Pat boglaydigan maxsus dastgohli korxonalarda gilamlar ishlab chiqarila boshlandi. Andijonda «Mehnat guli» arteli qoshida gilam to’qish kursi ochildi. Artelga Fargona vodiysidagi Oyim qishlog‘idan katta usta Mehriniso Teshaboyeva taklif etildi. Mashhur usta qulida juda ko‘p yosh mutaxassislar yetishib chiqdi. Jumhuriyatda gilamdo‘zlikni yanada rivojlantirish uchun Turkmanistondan mashhur ustalar taklif etildi va ichida ko‘plab gilamduz ustalar tayyorlab berildi.

O‘zbekistonda gilam to’qish maktabi acocat ikki - Samarqand va Andijon katta gruppalarga bulinadi. Andijon gilamlari uzining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil kuk koloriti bilan farq qiladi. Fargona, Qoraqalpoq gilamlari asosan ikki xil, ya’ni qizil va tuq kuk gammada tuqiladi. O‘zbek gilamlarining chetiga ko‘pincha ruta urtasiga turunj yoki doyra naqshi ishlanadi. Samarqand gilamdo‘zlik maktabiga Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi gilam tukuvchilar kiradi. Buxoro gilamlari o‘zining rang-barangligi, kattaligi, uzun patliligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Samarqand gilamlari kiska patli, markazida turunj chetiga alohida-alohida

naqshlar ishlanadi. Qalqon deb nomlangan turunj naqshi juda ko‘p ishlanadi. Gilamlar hoshiyador estetik jihatdan chiroyli ishlangan bo‘ladi.

Gilamning tuzima, tikma va tuqima xillari bor. Tuqima gilamda gilamning guli tuqiladi. O‘zbekistonda patli va patsiz (paloc gilamlap tuqiladi). Tikma gilam tayyor buyumga guli tikiladigan gilam.





135-136 rasmlar. Ktpgi-xalta va Dul turva.

Bosma gilam guli buyab bosiladigan gilam. Gilamlar utmishda yer bag‘irlab yotiq holatda o‘rnatilgan pastak sodda dastgohda tuqilar edi. Keyinchalik tuquv dastgohlari ancha mukammalashdi. Bu dastgohlarning tuquvchi ayollar yonma-yon utirib birdaniga to’qiydigan keng tapgakli xillari yasaldi. Qulda gilam to’qish juda qiyin, masalan, yaxshi mutaxassis 1 m2 patli gilam to’qish uchun 20-25 kun sarf qiladi. Shuning uchun ham qulda tuqilgan gilamlar qimmat turadi. Gilamlar ikki xil kalta patli (3-7 mm) va uzun patli (8-17 mm) qilib tuqiladi. Turkmanlar gilam to’qishda tuya tiviti, quy juni, paxta tolasi va ipak ishlatadi. O‘zbeklar tuya tiviti, quy juni va paxta tolasi ishlatadi. XIX asrning oxirigacha gilam to’qishda usimliklardan tayyorlanadigan buyoqlar ishlatilgan. Keyin esa anilin buyoqlaridan

foydalanila boshlandi.

Pat gilam to’qish ancha murakkab bo‘lib, unda arqoqdan tashqari nax degan ip ham ishlatiladi. Keyinchalik pat gilamlar maxsus dastgohli korxonalarda tuqiladigan buldi. Pat gilamlar naqsh yoki gulni sanama iroqiga uxshatib rangli iplarni nusxasiga qarab terish asosida tuqiladi. Naqsh yaratishda bandlarni hisobi aniq bulishi hamda bir qator band boflab chiqilgach arqoq utkazilib taroq bilan bostiriladi(137-rasm). Shundan so‘ng patlar qaychi bilan tekislanib chiqiladi. Gilam tuquvchi ayol gilamning 1 $dm^2$ yuzasida 600-1030 tacha pat boglashi lozim. Gilamdo‘zlik ayollar hunari sifatida mashhur bo‘lib, erkaklar bu hunar bilan shugullanmaganlar. Gilam to’qish juda murakkab ish. Tajribali gilamduz usta gilam to’qishni yoshlik paytlaridan urgana boshlab 16- 17 yilda haqiqiy usta bo‘lib yetishgan. 7-9 yoshdagi qizlar charqda ip yigirishni urganib, 11-14 yoshida esa gilam to’qishda ustaga shogird bo‘lgan. Bu yoshda ular buyoqlash ishlariga qatnashmaydilar. 20- 25 yoshda to’qishni yaxshi urganadilar, 30-35 yoshlarda esa tajribali, har xil gilamlarni mustakil to’qiy oladigan bo‘ladilar. O‘zbekistonda ko‘pincha yuk tashish uchun xurjun gilamlar ham to’qishgan. Xurjun yuk tashish uchun muljallangan gilamga uxshab tuqilgan qushaloq xalta (135-136, -rasmlar). U jun, paxta ipidan tuqiladi. Xurjunni ot, eshak, xachir, tuya ustiga ba’zida odamlar yelkasiga tashlab yuradi. Unga har xil buyumlar, oziq-ovqatlar solinadi. U O‘rta Osiyo, Kavkaz xalqlari urtasida keng tarqalgan. Turkman xurjunlari juda chiroyli va sifatli tuqilishi bilan ajralib turadi. Xurjunlar ko‘pincha geometrik naqshli qilib tuqiladi.



137-rasm. Gilam tuqishda ishlatiladigan naqsh elementlari.

Gilam urnida sholcha ham ishlatiladi.

**Sholcha** - qadimdan echki, tuya va quy juni, paxta va sun’iy toladan tuqiladi. U patsiz, taqir bo‘ladi. Sholcha polga, yerga tushaladi. Sholcha O‘rta Osiyo hamda Qozogistonda keng tarqalgan. Ukraina, Moldaviya, Ruminiya, Bolgariyada ham bor bo‘lib, uziga xos tuqiladi. Sholchaning uch turi mavjud. Gulli tuqiladigan, ya’ni tuqima sholchalar, guli buyab bosiladigan, uchinchisi guli tikiladigan, ya’ni tikma sholchalar bo‘ladi. Hozir ayrim joylarda xususan Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlari va boshqa joylarda zamonaviy sholchalar qulda tuqilmoqda. Hozir Buxoro viloyatining Gijduvon, Qiziltepa

rayonlarida, Samarqand viloyatining Nurota, Urgut rayonlarida, Xiva, Shaxrisabz va boshqa joylarda sholcha to'qish fabrikalari ishlab turibdi. O'zbekistonda eng yaxshi sholcha to'qiydigan shaharlardan biri Buxoro bo'lib, ular sholchasining kattaligi, oddiy keng naqshlari, sifati, chidamliligi bilan farq qiladi. Sholcha ishlab chiqarish bilan birga kop, sumka, parda, bosh kiyimlar, paypoq va boshqalar ham tayyorlanadi. Gilam usimlik, ya'ni paxta, zigir, tolalaridan, quy, echki, tuya junidan tuqiladi. Keyingi vaqtlarda esa sun'iy tolalardan ham tuqilmokda. Gilamlar ko'pincha geometrik naqshli bo'ladi. Gilam naqshi maxsus rassomlarni eskizi yordamida solinadi. Badiiy gilamlar to'qishda buyuk kishilar, mehnatkashlar, yozuvchilarning mashhur asarlari chizilgan rasmi va boshqalar ishlanmoqda. O'zbekiston gilamlariga zamonaviy naqsh elementlari masalam, paxta, paxta chanogi va boshqalar kirib keldi.



138-Rasm

**Palos** jup, paxta ipi, sun'iy tolalardan qulda maxsus dastgohda, fabrikada tuqiladi. Patsiz, taqiolngi bilan gilamdam farq qiladi (palosni patsiz gilam deb atash mumkin). Asosan polga, yerga buyra yoki kigiz ustidan tushaladi, gulli nafis ishlapgan ayrim xillari devorga hamosiladi. Yaxlit tuqiladigan va mato to'qish usulida tuqib, keyin tikib tayyorlanadigan xillari bor. Paxta ipi va jundan tuqilgan paloslarning ung-teskarisi bulmaydi, ikkala tomoni ham bir xilda bo'ladi. O'rta Osiyoda jumladan, O'zbekistan territoriyasida qadimdan keng tarqalgan. Paloc tushaladigan pol toza (yuvib, yaxshi quritilgan) va tekis bulishi kerak. Tushaladigan paloys rangi xona ichidagi mebellarga ishlatilgan materiallar, pardalar, shuningdek

devor rangiga mos bulishi lozim. Palos vaqt-vaqti bilan tashqariga olib chiqarib, changi qoqib turiladi. Changni asfalt, maisa, kor ustida qoqib olgan ma’qul (changini kok,atrotgaida biror joyga osib yoki tayeq bilan qoqish tavsmya qilinmaydi, bu palosning tez yirtilishiga olib keladi). Turgan joyida changidan t'ozalashda yumshoq chutka yoki chanpotgich (pilesos)dan foydalanish kerak. Palos kirlanganda uning rangini buzmaydigan poroshoklardan foydalanib, latta yoki yumshoq chutka ishlatib tozalash kerak (qattiq kirlanganda ximchistkaga berish lozim). Ro‘zg‘orda ishlatilmayotgan jun va sun’iy tolalardan tuqilgan paloslarni buklab taxlamaslik kerak, uram tarzida urab, jun palos bo‘lsa, orasiga naftalin sepib quyish kerak. Mebellar (divan, kreslo va shu kabilar)ga tushaladigan kichik palos (sholcha)larni xonadonda yuvib turish mumknn. Ular qanday materialdan tayyorlanganiga e’tibor qilish kerak.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek gilamduzligi uzining milliy an’analarini saqlagan holda yangi tajribalar bilan boyitildi. Xiva, Andijon, Samarqand, Qarshining patli, Shahrisabzning taqir gilamlariga extiyoj katta. Hozir har bir xonadoniga kirar ekansiz o‘zbek gilamlarini albatta uchratasiz. O‘zbekistonning tasviriy san’at, o‘zbek xalq amaliy san’ati muzeylariga kirsangiz gilamlarimiz doimiy ekspozisiyaga aylanib qolganligini kurasiz.

## 13.TO‘GARSAK ISHLARI UCHUN KIGIZ BOSISh.

Kigiz bosish san’ati qadim zamonlardan beri rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san’ati turlaridan biri. O‘zbekiston territoriyasining qaysi joyida xalqlar chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, shu yerda kigiz bosish kasbi keng tarqalgan. Ota-bobolarimiz kigizni yerga buyra ustidan solishgan, o‘tovlarni o‘rashgan, qalpoq, piyma va boshqalarda ishlatishgan (139, 140, 141, 142-rasmlar).



139-Rasm. Kigiz xalta



140-rasm. Namat.

Ayrim hollarda guldor, chiroyli kigizlar badiiy buyum sifatida ishlatilgan. Kigiz oq qizil, qora, guldor va gulsiz bo‘ladiu Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarida qoraqo‘y va chaydim kigizlar, Xorazmda esa takyanamat xillari bor.

O‘zbekistonda kigiz bosishning uziga xos tomonlari bo‘lib, kigiz bosish quyidagi texnologiyada bajariladi.



141-rasm.Kigiz.

Kigiz qo‘yning kuzgi junidan yoki echki junidan tayyorlanadi. Jun titib tozalanadi, yuvib quritiladi. Shundan so‘ng maxsus savagichlar yordamida yaxshilab savalanadi, ya’ni titiladi. Bu jarayondan so‘ng jun rangi va sifatiga kura yuzlik, oraliq, tanlab ajratiladi, yuziga maxsus rang bilan bo‘yalgan mayin junlardan naqshlar ishlanadi. Kigizlarga shox, romb, yulduz, bulut va oddiy geometrik naqshlar ishlanadi. Bosiladigan kigiz hajmiga moslab samish qolip tayyorlanadi. Kigizni tayyorlashda chiy yuziga yuzlik undan so‘ng oraliq jun tashlanadi. So‘ngra ustidan qaynoq suv quyiladi. Oraliq jun yayratiladi va yana suv quyiladi. Maxsus chiy sholcha yoki qalinroq matoga uraladi arson bilan markam boylab ustidan tez-tez qaynoq suv sepib dumalatiladi. Arkon yechiladi va kigizni chiydan ajratib olinib yana ustidan qaynoq suv sepiladi. Kigizni o‘rtasidan arqon bilan o‘rab, uch-to‘rt kishi o‘tirib uni dumalatib uchalaydi, bilaklaydi.



142-rasm. Namat.

Agar suvi qolmagan bo‘lsa suv beriladi va ikki uchini biriktirib bog‘lab bir yoki bir yarim

soat tortib chuzib turiladi. Kigiz qotgandan so‘ng ikki yoniga taxta kuyib ishchalab tekislab chiqiladi.1 Hozir kigizlar maxsus mashinalar yordamida tayyorlanayapdi. Masalan, sanoat korxonalarida jun maxsus mashinalarda titiladi. Unga maxsus suyoqlik sepiladi va mashinada aralashtiriladi, aralashma mashinadan tarab utkazilib momigi olinadi. Aralashni mashinada tekis qilib tushab, zichlanadi. Shundan so‘ng maxsus sulfat kislota eritmasi shimdiriladi. Kerakli o‘lchamda kerakli zichlikda mashinada ishlanadi. Uni cho‘zib, chetlari to‘g‘rilab turiladi. Keyin esa bugli churitkichlarda churitiladi. Oxirida esa pardozlanib, ortichcha qillar qirqib tashlanadi, presslanadi va silkitiladi. Ba’zan jundan tashqari mineral va kimyoviy tolalardan ham kigizlar tayyorlanmoqda. Kigiz texnikada va Qurilishda keng ishlatilmoqda. Muzika asboblari, protezlarda, samolyotlarda, amortizatorlar sifatida avtomobillarda ishlatilmoqda. Qurilishda esa tovush va sovuqni utkazmaydigan material sifatida ham keng qo‘llanilmoqda. Hozirgi vaqtda palos, gilam, gilam poyandozlar ko‘plab ishlab chicharilishi tufayli chulda kigiz tayyorlash texnologiyasi unutilib ketish arafasida turibdi.

## 14. TO‘GARAK ISHLARI UCHUN TERI CHARMDAN MAHSULOTLAR TAYYORLASH

**Kunchilik-** kun tayyorlash kasbi, hunarmandlikning qadimiy turlaridan. Hayvon terisidan kishilar juda qadim zamonlardan beri foydalanadi. Ibtidoiy odamlar kiyim urniga teri yopingan. Asta-sekin odamlar xayvon terisini oshlashni, kimyoviy va mexanik ishlov berib, undan kun tayyorlashni, kundan asta kiyim, turli buyum qilishni o‘rgangan. O‘rta Osiyo shahar va qishloqlarida ham rivoj topgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda, Xorazmda, Farg‘ona vodiysida 20-asrning boshlarida yuzlarcha Kunchilik do‘konlari mavjud bo‘lgan. Ularda qoramol, qo‘y, echki, tuya terisidai turli navlardagi kun tayyorlangan. Poyabzal, telpak ulov abzallari, qayish, kabilar tayyorlashda kun asosiy material bo‘lgani uchun hamda unga talab kattaligidan O‘zbekistonda kunchilik hunarmandlikning yirik va muhim sohasiga aylangan. Xorazmda 1923 yilda 300 dan ortiq kunchilik do‘koni bo‘lgan. Bu do‘konlarning 100 tachasi Xonqada bo‘lib bu yerdagi ayrim qishloqlarning aholisi faqat kunchilik bilan shug‘ullangan. 20-asr boshlarida Xonqada 2 kun zavodi vujudga keldi. Bu zavodlar ularda ishlovchi kosiblarning ko‘pligi bilangina boshqa oddiy kunchilik do‘konlaridan farq qilardi. 3avodlarning har birida oyiga 1800-2000 qoramol terisidan kun tayyorlangan. 3avodda yog‘ochdan ishlangan 20 ga yaqin tezob (teri ishqorlash uchun kul aralashtirilgan ohak suvi) idishi (chuqurligi 3 m, diametri 2.5 m) bo‘lib, har birida 80-100 teriga ishlov berilgan. Kunchilikning Xorazmdagi ikkinchi markazi Urganchda 30 dan ortiq kunchilik do‘koni bo‘lgan. Kunchilik do‘konlari va kunchilar ko‘pincha kunning biror navi bo‘yicha ixtisoslashgan (tagcharm ishlab chiqaruvchilar charmgar, yumshoq kun ishlab chiqaruvchilar saxtiyongar mesh tayyorlovchilar meshgar va hokozo). Kunchilik korxonalarida hamma ish, asosan qo‘l kuchi bilan qilingan. Uskuna tezob idishi yoki hovuzchasidan, dud o‘chog‘idan iborat bo‘lib, kunchilar tuz, ohak, oshlovchi moddalar bilan ish ko‘rishgan.

Hozirgi zamon kunchilik zavodlarida ishlar, asosan, uch bosqichda bajariladi. Bular terini tayyorlash, oshlash va pardozlashdir. Tayyorlashda ximiyaviy usul bilan teriga dastlabki ishlov berilib, jun yumshatiladi va teri kirish mashinasida junlardan tozalanadi. So‘ngra maxsus mashinada terining sirti qirib tekislanadi. Terini osh tuzi va kislota eritmasida ishlab oshlashga tayyorlanadi. Oshlash terini maxsus moddalar eritmasida ishlash yuli bilan charmga aylantirishdan iborat. Pardozlashda terining tashqi kurinishi yaxshilanadi va unga ba’zi muhim xususiyatlar beriladi. Buning uchun teri ximiyaviy va mexanik ishlanadi. Kunchilik zavodlarida chanlar, barkas, barabanlar, jun qirish mashinasi, gushtpardani ajratish mashinasi, silliqlash mashinasi va boshqa mashina xamda apparatlardan foydalaniladi. Hozir O‘zbekistonda bir necha kunchilik zavodlari ishlab turibdi. Toshkent va Samarqand kun zavodlarida poyabzal, galanteriya mahsulotlari uchun har xil navlarda kun tayyorlanmoqda.

**Kun-poyabzal sanoati** - yengil sanoatning hayvonlar terisidan yumshoq va qattiq charm tayyorlaydigai hamda tabiiy va sun’iy charmdan poyabzal ishlab chiqaradigan tarmog‘i. Bundan tashqari, charmdan kiyim, egar-jabduq, attorlik buyumlari, to‘qimachilik mashinalari va boshqa mashinalar uchun detallar ishlab chiqaradi.

Taraqqiy qilgan mamlakatlarda kun-poyabzal buyumlar 19- asrning ikkinchi yarmidan sanoat usulida tayyorlana boshladi. 19-asrning 80-90- yillarida qum sanoatida dastlabki tayyorlash va pardozlash ishlari mexanizasiyalashdi. Poyabzal ishlab chiqarishda 19-asrning 50-yillarida tikuv mashinalaridan foydalaniladi boshlagach, mexanizasiyalash yulga qo‘yildi. 19-asrning oxiriga kelib maxsus mashinalar kashf etildi.

O‘zbekistonda Kun-poyabzal sanoti sexi korxonalari rekonstruksiya qilindi va eng yangi asbob-uskunalar bilan jihozlandi. 1966 yilda Toshkentda «O‘zbekiston» ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Bu birlashma respublika poyabzal va attorlik sanoatini xom ashyo va tayyor mahsulot bilan ta’minlaydi.

## 15. TO‘GARAK ISHLARI UCHUN MO‘YNADO‘ZLIK

**Mo‘ynado‘zlik** - mo‘ynadan yoki mo‘yna qoplab kiyim-kechak tikish kasbi. Kishilik jamiyatining hali to‘qimachilik yuzaga kelmagan ilk davrlarida paydo bo‘lgan. Kiyimlar dastlab mo‘ynaning o‘zidan ishlangan. Jun, ip, ipak va boshqa gazlamalardan kiyim-kechak tikish urf bo‘lgach, mo‘yna maxsus tarmoq sifatida ajralgan: telpakdo‘zlik va po‘stindo‘zlik tarmoqlariga bo‘lingan.

Mo‘ynado‘zlikda mehnat bir necha turga bulinadi, masalan, mo‘ynani tozalash, oshlash, buyash, bichish, tikish va hokozo. Ilgarn Mo‘ynado‘zlik ishlari ichki mehnat taqsimotiga asoslangan bo‘lsada, bu ishlarning hammasi bir korxonada bajarilgan. Barcha ishlarni mo‘ynado‘z o‘z xalfa-shogirdlarining yordami bilan qilgan. 20- asrning 30-yillaridan O‘rta Osiyoda fabrika, artel va boshqa korxonalar vujudga kelgach, kustar mo‘ynado‘zlik korxonalari barxam topib, zamonaviy mo‘yna sanoati taraqqiy eta boshladi.

**Mo‘yna sanoati** - yengil sanoatning mo‘ynali hayvonlar terisini qayta ishlab,

turli xil mahsulotlar tayyorlovchi sohasi bo‘lib ilgari O‘rta Osiyoda mo‘yna sanoati kustar va mavsumiy xarakterda edi.

O‘zbekistonda Toshkent kun mo‘yna zavodi mo‘yna sanoatining yirik korxonasi hisoblanadi. Bu zavod Samarqand kun xom ashyo zavodidan va respublika go‘sht kombinatlaridan keltirilgan xom ashyodan buyumlar tayyorlaydi. Zavodda xotin-qizlar, erkaklar va bolalar kalta kamzuli va nimchasi, bosh kiyimlar va hokozolar ishlab chiqariladi. Zavodning ishlab chiqarish jarayoni mexanizasiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan. O‘zbekiston qorako‘li yuqori sifatliligi bilan jahon bozorida yuksak baholanadi. Ayniqsa, Konimex qorako‘lchilik shirkati yetishtirgan terilar a’lo sifatlidir. O‘zbekistonda ondatra, nutriya, qunduz kabi hayvonlar terisi bosh kiyim, ustki kiyim tikish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi va tashqariga sotiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

**1.** I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq» nashriyot–matbaa konserni, 1999.

**2.** I.A. Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O‘zbekiston, 1999.

**3.** I.A. Karimov “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari”. – T.: 2009 y.

**4.** I.A.Karimovning Vazirlar mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilishda qilingan ma’ruzasi.

**5.** I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2005 yil.

**6.** M. V. Maksimova. “To`qishni o`rganamiz” Ommabop – Toshkent: “Mehnat” 1988 y. Ruschadan tarjima.

**7.** O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi. “Uzviylashtirilgan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi” (Mehnat ta’limi, tasviriy san’at, chizmachilik, musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya (1-9 sinflar)). – Toshkent: 2010 y.

**8.**T.M. Poshshaxo‘jayeva, SH.A. Abduraxmonova. “Xizmat ko‘rsatish mehnati”. 5-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992 y.

**9.** T.M. Poshshaxo‘jayeva, SH.A. Abduraxmonova. “Xizmat ko‘rsatish mehnati”. 6-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993 y.

**10.** T.M. Poshshaxo‘jayeva, SH.A. Abduraxmonova. “Xizmat ko‘rsatish mehnati”. 7-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1994 y.

**11.** M.SH. Jabborova. “Tikuvchilik texnologiyasi”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1994 y.

**12.** A.T. Truxanova. “Tikuvchilik texnologiyasi asoslari”. – Toshkent:

“O‘qituvchi”, 1996 y.

**13.** S.S. Bulatov. “O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati”. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Mehnat”, 1991.

**14.** Q.T. Olimov. “Tikuvchilik korxonalari jihozlari”. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent: DITAF. 2001y.

**15**.“Tikuvchi chevar ishlab chiqarish ta’limidan texnalogiya yo`l – yo`riq kartalari to`plami. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma – Toshkent: “Talqin”, 2003 y.

**16**. T.A. Ochilov va boshqalar “Gazlamashunoslik” Yengil sanoat kollejlari o`quvchilari uchun darslik – Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 2003 y.

**17.** O‘zbek Milliy ensiklopediyasi. Barcha tomlar jamlanmasi (1-14 tomlar). Toshkent.

**18.** Uy-ro‘zg‘or ensiklopediyasi. Toshkent.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB – HUNAR TALIMI MARKAZI

«TASDIQLANDI»
Oliy va O‘rta Maxsustalim vazirligi
192- sonli buyruq
“11”may 2011 yil

Ro‘yxatga olindi
№ KMD – 3520602 – 2.07

Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash va modellashtirish fanidan
O‘QUV DASTURI

Tuzuvchilar: D Rasulova -Toshkent Politexnika KXK maxsus fan o‘qituvchisi

Taqrizchi:

Namunaviy mavzular rejasi

| t/r | Bo‘lim va mavzularning nomi | Jami ajratilgan soat | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta’lim (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Nazariy | amaliy | labora-tori | seminar | Kurs ishi | |
| | Kirish | 2 | 2 | | | | | |
| 1 | **Kiyimlarni konstruksiyalashga doir dastlabki ma’lumotlar** | | | | | | | |
| 1.2. | Kiyim to‘g‘isida umumiy ma’lumotlar | 2 | 2 | | | | | |
| 1.3 | Kiyimlarni bichish va tikish haqida | 2 | 2 | | | | | |
| 1.4 | Kiyimlarni modellashtirish asoslari | 2 | 2 | | | | | |
| 1.5 | Odam gavdasidan o‘lchov olish va o‘lchash usullari. Yetakchi o‘lchovlar. | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 1.6 | Kiyimni loyhalashda uning konstruksiyasida ishlatiladigan detallar (yeng, yoqa, cho‘ntak va boshqalar) | 8 | 2 | 6 | | | | |
| 2. | **Bolalar uchun trikotaj buyumlarini loyixalash** | | | | | | | |
| 2.1. | Yasli yoshidagi bolalar kiyimini loyihalash. | 4 | 2 | 2 | | | | |
| 2.2. | Maktabgacha yoshdagi bolalar ichki kiyimlarini bichish va tikish | 8 | 2 | 6 | | | | |
| | Bolalar kiyimlarini texnik modellatirish(bosh kiyim,fartukYu rumol va boshqalar) | 8 | 2 | 6 | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2.3. | Maktab yoshidagi bolalar kiyimlarini modellashtirish va tayyorlash( Ko‘ylak, shim va boshqalar) | 10 | 2 | 8 | | | | |
| 3. | **Ayollarni bel kiyimini loyixalash** | | | | | | | |
| 3.1. | Yubkalarni texnik modellashtirish va tayyorlash | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 3.3 | Milliy lozim konstruksiyasini xisoblash va chizish | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4 | **Ayollarni yelkada turadigan trikotaj kiyimlarini loyixalash** | | | | | | | |
| 4.1. | Yelkada turadigan trikotaj kiyimlarining konstruktiv sxemasiyu Nimchalarni modellashtirish va tayyorlash. | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4.2 | Ayollar sport ko’ylaklarini modellashtirish asoslari. | 4 | 2 | 2 | | | | |
| 4.3. | Klyosh vak koketkali ko’ylaklarni bichish va tikish | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4.4. | Qisqa reglan yengli ko’ylaklarni bichish va tikish | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4.5 | Ayollar milliy ko‘ylaklarini har xil kurinishda bichish va tikish | 6 | 2 | 4 | | | | |
| 4.6. | O‘zbekcha dumoloq koketkali ko’ylakni bichish va tikish | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4.7 | Ayollar jaketini asos chizmasini xisoblash va chizish | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4.8 | Jaketni asos chizmasiga fason chiziqlarini o‘tkazish | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4.9 | Ko‘krak vitochkani kuchirish qidasi bilan har xil modellar hsil qilish | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4.10 | Yoqalarning turlari. qaytarma va tik yoqalarni xisoblash va chizish | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 4.11 | Turli cho‘ntaklarni xisoblash va chizish | 2 | | 2 | | | | |
| 4.12 | Ayollar nimchalarini modelashtirish | 6 | 2 | 4 | | | | |
| 4.13 | Vitochka chuqurligini hisoblash va chizig‘ini aniqlash | 2 | | 2 | | | | |
| 5 | **Erkaklar kiyimini loyixalash** | | | | | | | |
| 5.1 | Erkaklar djemperi va kuylagiga ulchov olish.ni | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 5.2 | Bir chokli yengni konstruksiyasini xisoblash va | 2 | | 2 | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | chizish | | | | | | | |
| 5.3 | Erkaklar kuylagi va djemperlarini andazasini xisoblash va chizish | 6 | 2 | 4 | | | | |
| 5.4 | Erkaklar kuylagini yeng andazasi.Ikki chokli yengni xisoblash va chizish | 4 | 2 | 2 | | | | |
| 6 | Milliy bosh kiyimlarni loyixalash. Duppi tikish texnologiyasi. | 8 | 2 | 6 | | | | |
| 7 | Gazlama tanlash va ketadigan miqdorini aniqlash.Gazlamaga andaza joylashtirish | 4 | 2 | 2 | | | | |
| 8 | Shimli kostumlarni bichish va tikish | 6 | 1 | 5 | | | | |
| 9 | O‘g‘il bolalar jinferi Andazalari chizmasini tayyorlash | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 9.1 | Andazalarni tayyorlashga qo‘yiladigan texnik talablar | 2 | 2 | | | | | |
| 9.2 | Bel kiyimlarni (maktab yoshidagi bolalar uchun) asosiy, hosila va yordamchi andazalarini tayyorlash | 4 | 1 | 3 | | | | |
| 9.3 | Yelkada turadigan qiz bolalar jenfer kiyimlarni asosiy, xosila va yordamchi andazalarini tayyorlash | 4 | 1 | 3 | | | | |
| | Jami | 160 | 50 | 110 | | | | |

## MUNDARIJA

**Kirish**……………………………………………………………………….......... 3

**I-BOB. KIYIMNI KONSTRUKSIYALASHGA DOIR MA’LUMOTLAR**

1.1.Kiyim to‘grisida umumiy ma’lumotlar……………………………………… 4
1.2. Kiyimlarni bichish va tikish haqida………………………………...……. 10
1.3. Kiyimlarni modellashtirish asoslari…………………………………………… 11
1.4.Odam gavdasidan o‘lchov olish.................................................................... 14
1.5 Kiyimni louihalashda uning konstro‘ksiyasida ishlatiladigan detallari (yengi, yoqa, cho‘ntak va boshqalar)........................................................................ 16

**II-BOB. BOLALAR UCHUN TRIKOTAJ KIYIMLARNI LOYIHALASH**

2.1. Yasli yoshidagi bolalar ichki kiyimlarini bichish va tikish texnologiyasi.......... 26
2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar kiyimlarini loyihalash .................................... 31
2.3.Bolalar kiyimlarini texnik modellatirish(bosh kiyim, fartuk, ro‘mol va boshqalar)............................................................................................ 39
2.4. Maktab yoshidagi bolalar kiyimlarini modaellashtirish va tayyorlash (ko‘ylak, shim va boshqalar) ........................................................................ 54

**III-BOB. AYOLLAR BELDAN KIYILADIGAN KIYIMLARNI LOYIHALASH**

3.1.Yubkalarni modellashtirish......................................................................... 66
3.2.Milliy lozimn konstruksiyasini tayyarlash……………………………… 75

**IV-BOB. AYOLLAR KIYIMLARNI LOYIHALASH**

4.1. Jelatkalarni modellashtirish……………………………………………… 78
4.2. Ayollarni sport va yozgi ko‘ylagini modellashtirish........................................ 81
4.3. Klyosh va koketkali ko‘ylaklar haqida.......................................................... 83
4.4. Qisqa reglan yengli ko‘ylaklar andaza chizmasini chizish.............................. 87
4.5. O‘zbekcha ko‘ylaklarni bichish va tikish ..................................................... 95
4.6. O‘zbekcha dumaloq koketkali ko‘ylak.......................................................... 101
4.7.Xalatlarni bichish va tikish texnologiyasi……………………………… 103
4.8.Ayollar jaketini modellashtirish…………………………………………….. 105
4.9. Kiyimlarni yoqasi va ularni bichish hamda tikish texnologiyasi…………….. 111
4.10. Kiyimlarni cho‘ntaklarini bichish hamda tikish…………………………... 119
4.11. Nimchalarni modellashtirish, o‘lchov olish va gazlama tanlash…………….. 128

**V-BOB. ERKAKLAR KIYIMLARINI LOYIHALASH**

5.1. Erkaklar kouylagi va unga o‘lchov olish........................................................ 136
5.2. Erkaklar ko‘ylagini yeng andazasini tayyorlash.............................................. 139
5.3.Erkaklar ko‘ylagini yoqasini tayyorlash asoslari.............................................. 139
5.4. Milliy kiyimlardan choponni bichish va tikish................................................ 141
5.5. Milliy bosh kiyimlarni loyihalash……………………………………….. 143
5.6. Gazlamani tanlash va ketadigan miqdorini aniqlash....................................... 146
5.7. Shimli kastumlarni bichish va tikish texnalogiyasi......................................... 148
5.8. O‘g‘il bolalar jimferi...................................................................................... 154
5.9. Qizlar jimferi………………………………………………………………….. 155
**Foydalanilgan adabiyotlar**……………………………………………….. 168
**Ilova. O‘quv dasturi**……………………………………………….......... 170

**M.Z.MURTAZAYEV, G.M.AXMEDOVA, J.A.HAMIDOV, M.E.ESHONKULOVA**

**SERVIS BO‘YICHA**

# KENG ASSORTIMENTDAGI KIYIMLARNI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH

**KASB HUNAR KOLLEJLARI UCHUN DARSLIK**

**M a s‘ u l m u h a r r i r:**
**M.Hayitova**

**Texnik мuharrir:** **A.Moydinov**
**Musahhih:** **F.Ismoilova**
**Musavvir:** **H.G‘ulomov**
**Kompyuterda tayyorlovchi:** **N.Rahmatullayeva**

**Nashr.lits. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 25.07.2012.**
**Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.**
**Shartli bosma tabog‘i 22,5. Nashriyot bosma tabog‘i 22,0.**
**Tiraji 350. Buyurtma № 18.**